

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSETI
YURIDIK FAKULTETI
“MILLIY G'OYA VA HUQUQ TA'LIMI” KAFEDRASI**



MA'NAVIyatshunoslik

**FANIDAN
O'QUV-USLUBIY MAJMUA**

*2021/2022 o'quv yili kunduzgi ta'lif shakli, barcha bakalavriyat yo'nalishi
4-bosqich talabalari uchun*

NAMANGAN - 2021

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan 2021 yil __ avgustdagi __ - sonli kengash qarori bilan tasdiqlangan ishchi fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

A. Abdullayev Namangan davlat universiteti “Milliy g’oya va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti v.b.

Taqrizchilar:

O. Mamatov Namangan davlat universiteti “Milliy g’oya va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti, f.f.n.
T. Qozoqov Namangan davlat universiteti “Milliy g’oya va huquq ta’limi” kafedrasi dotsent , t.f.n.

NamDU Yuridik fakulteti dekani:

2021 yil “__” _____
t.f.n., dots. B. Talapov

“Milliy g’oya va huquq ta’limi” kafedrasi mudiri:

2021 yil “__” _____ **f.f.n. dots. O. Mamatov**

O'quv-uslubiy мажмуда Namangan davlat universiteti Kengashining 2021 yil __ avgustdagi __ - sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

№	MUNDARIJA
1.	Titul varog'i
2.	Mundarija
3.	Ma'ruza matnlari
4.	Amaliy mashg'ulotlar ishlanmasi
5.	Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
6.	Glossariy
7.	Ilovalar: -Namunaviy fan dasturi; -Ishchi fan dasturi; -Tarqatma materiallar; -Testlar; -Baholash mezonlari;

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasи



MA'NAVIyatshunoslik
fanidan

MA'Ruzalar MATNI

Ushbu ma’ruzalar matni Namangan davlat universiteti Milliy g’oya va huquq ta’limi kafedrasining 2021 yil __ _____ dagi № ____- sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan

Tuzuvchi:

A. Abdullayev

Namangan davlat universiteti “Milliy g’oya va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti v.b.

Taqrizchi:

f.f.n. O. Mamatov

1-MAVZU: MA’NAVIYATSHUNOSLIK FANI PREDMETI.

MA’NAVIYATNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O’RNI.

Reja:

1. Ma’naviyat tushunchasi: moxiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo’lish shakllari.
2. Ma’naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri.
3. Ma’naviyat va jamiyat hayoti.

Ma’naviyat nima, degan savolga ilmiy, siyosiy, publitsistik adabiyotlarda turlicha yondashuvlar asosida har xil fikrlar bildiriladi. Qayd etish lozimki, G‘arbda ma’naviyat tushunchasi alohida o‘rganilmaydi. U barqaror mazmunga ega bo‘lgan ilmiy tushuncha sifatida G‘arbda mavjud emas. Lekin biz ma’naviyat deb ataydigan hodisa, yaxlit holda bo‘lmasada, falsafa, etika, sotsiologiya psixologiya, semiotika, kulturologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, san’atshunoslik kabi fanlar doirasida har xil ilmiy usullar yordamida tadqiq etiladi. Ma’naviyat tushunchasi o‘rniga ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya, intellektual madaniyat, axloq va shu kabi har xil atamalar qo‘llaniladi. Ma’naviy madaniyat deganda, G‘arbda ko‘proq diniy madaniyat, cherkov faoliyati tushuniladi. SHuningdek, G‘arbda spiritualizm (spiriti - «ruhiy», «ma’naviy» mazmunni bildiradi) degan amaliyot bor. Spiritualizm o‘lgan kishi ruhini chorlab, u bilan muloqot qilishni anglatadi. Shu sababdan biz qo‘llaydigan ma’naviy madaniyat atamasini ayrim g‘arb tillariga aynan lug‘aviy mazmuniga qarab «spiritual madaniyat» deb o‘girish mumkin emas. Uni zarur hollarda, axloqiy va intellektual madaniyat deb o‘girish urf bo‘lgan. Ma’naviyat atamasi, to‘liq ishonch bilan aytish joizki, islam mamlakatlarida, yana aniqrog‘i, ko‘proq O‘zbekistonda tarqalgan atama. Hatto bizga qo‘shni Tojikistonda ma’naviyat atamasiga nisbatan uning boshqa sinonimi - «ruhoniyat» ko‘proq qo‘llaniladi.

Ma’naviyat arabcha ma’ni (ma’no) so‘zidan, u esa «a’no» o‘zagidan yasalgan deb hisoblanadi. A’no - birlamchi, tub mohiyat mazmunini anglatadi.

«Ma’naviya» arab tilida juda ko‘p mazmunga ega tushuncha. Lug‘atlarda uning 8-10 tagacha mazmuni qayd etilgan. Uning arabchadan kelib chiqqaniga, arabcha o‘zakdan yasalganiga shubha yo‘q. Lekin atamaning bugungi mazmuni shakllanishiga juda ko‘p ijtimoiy-madaniy va lisoniy omillar ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, boshqa tillar va madaniyatlar. Faraz qilish mumkinki, ma’naviyat atamasi shakllanishiga «ma’ni» bilan bir qatorda sanskrit tilida mavjud bo‘lgan «ma’nas» tushunchasi ham ta’sir ko‘rsatgan. Atamaning ushbu shaklda tarqalishiga tasavvuf ilmi, xususan, Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma’naviy» asari katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lish ehtimoli yuqori.

Ilmiy adabiyotlarda ma’naviyatga nisbatan mavjud qarashlarni tahlil qilsak yoki nazariyalar, ta’limotlarning umumiy ilmiy usulidan kelib chiqib, qanday bo‘lishi mumkinligini faraz qilsak, juda qiziqarli va o‘ta rang-barang, ayrim hollarda bir-birini to‘liq inkor qiluvchi mulohazalarni ko‘ramiz. Ularning ba’zilari falsafa, tarix, tilshunoslik, adabiyot va san’at ma’lumotlariga, xulosalariga tayangan va izchil ratsionalistik bo‘lsa, ba’zilarida noilmiy va irratsional unsurlar, dalillar, farazlar, vulgar talqinlar uchrab qoladi. Bunga misol qilib freydizmni, umuman, psixoanalizni ko‘rsatish mumkin. Ayrim olimlar ma’naviyatga diniy-mistik nuqtai nazardan yondashadilar. U inson mutlaqo tushuntirishdan ojiz, ilohiy inoyat, «qalb ko‘zi» bilan ko‘rilgan haqiqat, g‘oyibdan insonga ko‘rsatilgan hidoyat, yo‘l, ishora, ko‘ngilga solingan ijod va faoliyat, botiniy ilmlar, nozik va ilohiy his-tuyg‘ular va h.k. deb tushuntiriladi.

An’anaviy diniy-mistik qarashlar zamon ta’sirida o‘zgarib, yangi ko‘rinishlar kasb etmokda. Bugun har xil monterik qarashlar, kosmos (koinot) yuborayotgan kodlashtirilgan belgilar, timsollar, ramzlar, salbiy va ijobiy energetika va shunga o‘xhash qarashlar ham jamiyatning ma’naviyat, ma’naviy hayot to‘g‘risidagi tasavvurlari va qarashlarida aks etmoqda.

Jamiyat rivojlanishi yangi axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari, internet va kompyuterlar, AKTlar (axborot kommunikatsiya texnologiyalari) yaratgan virtual voqelik, ommaviy madaniyat jamiyat ma’naviy hayotini, odamlar dunyoqarashimi ancha o‘zgartirib yubordi. Inson hozirgi jamiyatda juda ziddiyatli,

chalkash ta'sirlar ostida qoldi. Shu sababdan ma'naviyatga insonning asl tabiatidan, autentligidan kelib chiqib yondashish, ya'ni ekzistensialistik yondashuv dolzarblik kasb etmoqda. Ammo bir narsani nazarda tutish kerakki, ekzistensializmning ontologik qarashlari, bilish nazariyasi, jamiyat va inson to'g'risidagi fikrlari, xulosalari yaxlit va izchil ta'limot emas. Lekin ekzistensializmning inson autentligi to'g'risidagi fikrini deyarli barcha ijtimoiy va gumanitar fanlar foydali, ilmiy samarador usul sifatida tan olgan. Ekzistensializmdagi eng yaxshi jihatlarni olib, boshqa falsafiy va ilmiy usullar bilan birlashtirish maqsadga muvofiq.

Ma'naviyat tushunchasiga qaytamiz. Ayrim mualliflar, yuqorida aytilganidek, ma'naviyatning mohiyatini ilohiy deb talqin qilmoqdalar. Ular to'liq diniy-mistik nuqtai nazarga o'tib ketmasada, diniy yondashuv tarafdiridir. Ma'naviyatni ular ongning to'liq tushuntirib berish mumkin bo'limgan sirli jihatlari, insonning ruhiy kuchi, undagi tug'ma diyonat, vijdon, iymon, Xudo insonning ko'ngliga solgan ijtimoiy va ijodiy moyillik, intilish, deb talqin qiladilar. Bu qarashlarga muvofik ma'naviyat ilohiy yoki tabiiylikdan ustun hodisadir.

Ilohiy hodisalar, abadul abad o'zgarishsiz, mutlaq bo'ladi, faqat ularni tushunish, idrok etishgina o'zgarishi mumkin. Ma'naviyat haqida gapirganda esa, biz uning yuksalishi, aksariyat qadriyatlarning yangilanishi yoki, aksincha, tanazzuli, qashshoqlanishini, o'zgarishini, nisbiyligini ta'kidlaymiz. SHubhasiz, zardushtiylik negizida shakllangan uzoq ajdodlarimiz ma'naviyatidan islom negizida vujudga kelgan ota-bobolarimiz ma'naviyati keskin farq qiladi. Xalqimizning bugungi kundagi ma'naviyati zamonaviy qadriyatlar va mustaqillik ta'sirida nafaqat o'rta asrlardagi, hatto, sotsializm davridagi ma'naviyatidan ajralib turadi. Zero, I. Karimov ta'kidlaganidek: «Ma'naviyat uzluksiz harakatdagi jarayondir. Fikr, tafakkur, his-tuyg'u tinim bilmaganidek, ularning mahsuli o'laroq ma'naviyat ham doimo o'zgarish va yangilanishda bo'ladi»¹. Fanda masala ilohiy hodisa sifatida qo'yilishi mumkin emas. CHunki fanning vazifasi tadqiq etadigan

¹ Ислом Каримов. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-китоб. - Т.: «Ўзбекистон», 1999. 302-6.

xodisalarni tekshirish, tahlil qilish, umumlashtirish va mazmun-mohiyatini, nazariyasi va amaliy qo'llanishini, rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishdan iborat. Balki fan bu jarayonda xatolarga yo'l qo'yar, adashar, noto'g'ri talqin qilar, ammo u doimo mantiqqa asoslanadi, tahlildan, talqindan, tushuntirishdan, xulosa qilishdan qochmaydi. Ilohiy hodisalar fanning emas, dinning, ilohiyot ilmining obekti bo'lishi mumkin. Fanning obektini esa tabiiy, ijtimoiy va ruhiy-intellektual hodisalar tashkil etadi. Fan o'rganayotgan hodisaga his-hayajondan, hayoliy orzu-istiklardan, subektiv xohishdan kelib chiqib emas, balki xolis va ratsional, aniq ilmiy dalillarga tayangan holda yondashadi.

Chop etilayotgan ba'zi kitoblarda ma'naviyat ba'zan ongning, ba'zan axloq va e'tiqodning, ko'pincha ma'naviy madaniyatning sinonimi, ma'nodoshi, ba'zan hatto ularning hammasini ifodalaydigan yig'ma tushuncha sifatida ishlataladi. "Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan madaniyatning insoniyat, shaxs ongida ifodalanishidir. Madaniyat mazmun jihatdan nihoyatda keng bo'lib, har bir tarixiy davridagi ma'naviyat uning barcha tomonlarini qamrab ololmaydi"², - deb hisoblaydi E. Yusupov. Ko'rinish turibdiki, ma'naviyat bu erda ongning madaniyatni aks ettirishiga ko'ra, mazmun jihatdan nisbatan ajralib turadigan bir bo'lagi, ideal hodisa deb to'g'ri, ammo biroz torroq talqin qilinmoqda. Sovet davrida bitilgan falsafiy va kulturologik asarlarda doimo «ma'naviy hayat» va «ma'naviy dunyo» haqida so'z yuritilgan. Ammo bu tushunchalar doirasida «ma'naviyat» alohida tahlil etilmagan. Rus olimlari haligacha bu an'anani davom ettirib kelmoqdalar.

O'zbekistonda mustaqil taraqqiyotning ma'naviy omillarini mustahkamlash, ulardan samarali foydalanish zaruriyati ma'naviyat tushunchasini har tomonlama tahlil etishni taqozo etadi. Ma'naviyat faqat insonga, jamiyatga xos. Lekin u ilohiy yoki gayritabiiy hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. U inson faoliyati bilan bog'liq. Tabiatda ma'naviyat yo'q. Biz hayvonot dunyosi turlari, xillari, nasli va boshqa belgilariga qarab ularni odobli va diyonatli, nozik didli, xudojo'y yoki kufr

² Э.Юсупов. Хадисларда дунёвий ва диний гояларнинг боғлиқлиги. - «Ўзбекистонда ижтимоий фанлар» журнали, 1994, 5-сон.

botqog'iga botgan va h.k. deya olmaymiz. Masalan, odobli, vijdonli yoki tarbiya ko'rmagan, vijdonsiz bo'ri degan ibora mutlaqo ma'nisiz (ba'zan ramziy yoki hajviy mazmunda ishlatilishi mumkin). Tabiat uyg'unlik va ichki simmetriyaga asoslangan bo'lsa-da, u ma'naviyatning sub'ekti emas. Ammo tabiat ma'naviyatning ob'ektidir. Tabiatdagi mavjud go'zallik, uyg'unlik san'at asarida aks etishi (rassom, bastakor, shoir, yozuvchi asarlari, foto-, tele-, kinotas-virlarda va h.k.), alohida kishining yoki ekskursiyachi guruhning zavq-shavq olish manbaiga aylanishi mumkin. San'at tabiatdan zavqlanish va unga taqlid qilishdan boshlanadi.

Zavq-shavq inson hissiyoti va aqlidan tug'iladi. Shu sababdan ma'naviyatda doimo sub'ektivlik bor. Inson ongi-shuuridan o'tmagan, inson va jamiyat tomonidan anglab olinmagan hodisa ma'naviyat bo'lolmaydi. Shu sababdan ijtimoiy hodisa sifatida ma'naviyat, birinchi galda, moddiy emas, balki ideal hodisadir. U barqaror insoniy tuyg'ular, tushunchalar, baholar, me'yorlar va ideallar - qadriyatlar tizimidir. Lekin inson va jamiyat hayotida moddiy va ideal hodisalar bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi, ular qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi. Moddiy hodisalar anglab olinishi jarayonida ideallahadi, sub'ektivlashadi, ya'ni inson (jamiyat) ongining bir bo'lagiga aylanadi, Aksincha, inson ongi, bilimlari uning xulqida, faoliyatida, mehnatida moddiylashadi, ob'ektivlashadi. Ma'naviyat ob'ektivlik va sub'ektivlik birligidir. Masalan, Alisher Navoiy asarlari o'z ob'ektiv mazmuniga va shakliga ega. U biror shaxsning yoki davrning xohish-istagiga, didiga, tuyg'ulariga, siyosiy qarashlariga bog'liq emas. Bu ularning ob'ektiv jihat, ammo har bir kishi, har bir tarixiy davr Navoiy asarlarini o'zicha talqin qiladi va tushunadi. Boshqacha aytganda, Alisher Navoiy ijodidan bahra olish, ko'ngil mulkiga aylantirish doimo sub'ektiv tarzda kechadi.

Inson ma'naviyati bilan hayvondan, jamiyat esa tabiatdan farq qiladi, deyish juda o'rinnlidir. Agar moddiy ishlab chiqarishda va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishda insonning ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi mohiyati namoyon bo'lsa, ma'naviyatda (ma'naviy ne'matlarni yaratishda va ulardan foydalanishda,

ma’naviy faoliyatda) insonning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyati ro‘yobga chiqadi.

Ma’naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavju-dot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning e兹gulik, mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan tizimidir hamda ularni yaratish jarayonidir. Ushbu xislat va fazilatlar hayvonot uchun xos emas. Ammo ularning muqobillari - axloqsizlik, g‘araz, hasad va hokazolar ham hayvonlarda uchramaydi. Keyingilar ma’naviyatga emas, balki ma’naviyatsizlikka aloqador. Demak, ma’naviyat bu shunchaki insonga xos belgilar yig‘indisi emas, balki ijobiy xislatlar, fazilatlar majmuidir. «Inson ongli faoliyatining, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma’naviyat bo‘la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarga ma’naviyat deb ataladi»³

Insoniy fazilatlar jamiyatda tarixan shakllanadi. Ular ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli. Kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni anglash, ularni baholash, qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish yoki, aksincha, qoralash, cheklash, bartaraf etishga intilish zarurati turli axloqiy (keyinchalik huquqiy ham), estetik, diniy va boshqa me’yorlarni, urf-odat va marosimlarni yuzaga keltiradi. Ular qadriyat darajasiga ko‘tariladi. Qadriyat insonga, jamiyatga foyda keltiradigan, ularni yuksaltiradigan ijtimoiy baholar, me’yorlar va ideallarning umumiy atamasi va ob’ektivlashgan voqeligi hamda badiiy, ilmiy asar, obidalar yoxud udum, marosim, axloq va h.k.

Qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayonida kishida insoniy fazilatlar qaror topadi. Insoniy fazilatlar, shunday qilib, ijtimoiy munosabatlarning (shu jumladan, tabiatga munosabatning) inson ongi va faoliyatida o‘zlashtirilgan qadriyat sifatida zohir bo‘lishidir. Boshqacha aytganda, insoniy fazilatlar va ularning majmui - ma’naviyat ijtimoiy qadriyatlarning mushtaraklashgan ifodasidir. Qadriyatlarni o‘zlashtirish insonning qay darajada ma’naviy shaxsga aylanganini ko‘rsatadi,

³ Эркин Юсупов, Ўтқир Юсупов. Маънавий камолот ва жамият тараққиёти. - Хўжанд: 1996, 29-6.

unga ichki kuch, iroda, e'tiqod, ijtimoiy ideal bag'ishlaydi. Shularni nazarda tutib Islom Karimov: «Ma'naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir», deya e'tirof etgan⁴.

Ma'naviyat insoniy fazilatlar bilan birga, «ma'naviy madaniyat» deb atalmish dunyoviy ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, adabiyot va san'at, xalq ta'limi, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an'analar hamda din va diniy amaliyot - ibodat, taqvo, diniy marosimlar va hokazo, diniy adabiyot, diniy san'at kabi boshqa ko'plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlarni qamrab oladi. Insonning hayotga munosabati rivojlanishi jarayonida uning ongi, ayniqsa, ilmiy, falsafiy, diniy tasavvurlari boyib boradi, o'zgaradi. Shu boisdan turli tarixiy davrlarda yashagan kishilarning qarashlari, ijtimoiy baholari va mo'ljallari, qadriyatlari o'zaro farq qiladi.

Ong to'laligicha ma'naviyatga kirmaydi, chunki unda o'zgaruvchan, muvaqqat, tasodify holatlar ko'p uchraydi. Ongga o'tkinchi kayfiyatlar, ehtiroslar, turli tushunchalar, noxolis va xato baholar katta ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviyat esa bir zumda o'zgarib qolmaydi. U chuqur tarixiy, madaniy ildizlarga ega. To'g'ri, unga ham sobit, barqaror tuyg'ular, or-nomus, milliy g'urur va iftixorga oid his-hayajon va ehtiroslar ta'sir ko'rsatadi. Ammo ular o'tkinchi emas. Ongning yuqori darajasi - tafakkurga oid unsurlarning ham vaqt sinovidan o'tgan ko'pchilik tomonidan tan olingan barqaror, sobitlari (to'g'ri yoki xatoligidan qat'i nazar) ma'naviyatni tashkil etadi. Demak, ma'naviyat ongning mohiyatli mazmuni yoki ongdagi mohiyatlilikdir. Ushbu jihatdan ma'naviyat ong kabi ideal hodisadir, ammo ilohiy hodisa emas.

Ideal hodisa sifatida ma'naviyatda, eng avvalo, insoniy his-tuyg'ular, kechinmalar, aniq obrazli tasavvurlar ajralib turadi. Uyat, ibo, hayo, halollik kabi oddiy tuyg'ulardan to ezgulik, go'zallik,adolat, vijdon azobi va amri, zavq-shavq, vatanparvarlik, fidoyilik kabi murakkab tuyg'ulargacha inson ma'naviy ongingin

⁴ Ислом Каримов. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: «Маънавият», 2008, 19-6.

birlamchi darajasini tashkil etadi. Ma'naviy ongning ikkinchi - yuqori darajasiga tushunchalar, g'oyalar, baholar, did, qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, ideal kiradi. Ular tuyg'ular kabi axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, diniy, falsafiy karashlarni ifodalaydi. Faqat tuyg'ulardan farqli, insonning hissiy munosabatlarini emas, balki aqliy-intellektual munosabatini ifodalaydi. Ular jamiyatning qadriyatlar tizimini tashkil etadi.

Tuyg'ular va tushunchalar o'rtasida o'tib bo'lmas jarlik yo'q. Inson o'z his-tuyg'ulari to'g'risida fikr-mulohaza yuritib, uni anglab olishga, baholashga intilsa, u tushunchalar olamiga o'tadi. Ezgulik va go'zallik ham tuyg'u sifatida, ham tushuncha va ideal sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi holatda inson o'ylab o'tirmaydi, ob'ekt unda bevosita his-hayajon uyg'otadi. Ikkinci holatda u haqda mulohaza yuritadi, tahlil qiladi. Masalan, kimningdir xulqidan, qilgan ishidan xafa bo'lgan, jahli chiqqan kishidan sababini so'rasangiz, u o'sha kishi xattiharakatining qaysi jihatlari axloqiy yoki boshqa ijtimoiy me'yorlarga mos kelmasligini, qanday xatoga yo'l qo'yganini yoki bilib turib g'irromlik, surbetlik qilganini aytadi.

Ideallik ma'naviyatning mohiyatini to'liq ochmaydi: ideallik ma'naviyatning faqat birlamchi mavjudlik shaklidir. Materialistik yondashuvga binoan: «Ongda mustaqil mavjudlik yo'q. U faqat miyaning ob'ektga nisbatan funksiyasi sifatidagina mavjud. Ongning o'ziga xosligi shundaki, u qandaydir sub'ektiv, ideal narsadir. U o'zining moddiy substratlariga - miya va in'ikos ob'ektiga - munosabatidan tashqari mustaqil mavjudlikka ega emas»⁵.

Ma'naviyat esa masalaga hatto materialistik yondashganda ham, mustaqil - xulq-atvorda, faoliyatda, ijodda predmetlashgan, adabiyot, san'at asarlariga, ilmiy kashfiyotlarga, urf-odatlarga, marosimlarga, an'analarga aylangan madaniy merosda mavjudlikka egadir. Ma'naviyat, avvalo, madaniyat orqali mustaqil mavjudligini namoyon etadi. U, shuningdek, iroda (shaxs va millat irodasi), ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muhitni kamrab oladi. Bu haqda keyinroq to'xtalamiz. Hozircha ma'naviyat va ong munosabatlari to'g'risidagi fikrni davom ettiramiz.

⁵ А.Г.Спиркин. Сознание и самосознание. — М.: 1972, 68—69-бетлар.

Ma’naviyat jamiyatda qaror tolgan etakchi g‘oyalarga hamda kishilarning dunyoqarashiga, e’tiqodiga bog‘liq. Haqiqatan, ma’naviyat ongdagi tasodifiy, ikkinchi darajali, vaqtinchalik holat bo‘lishi mumkin emas. U barqaror, mustahkam e’tiqodga aylangan, qadriyat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, jamiyatdagi munosabatlarni va inson xatti-harakatini tartibga solishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. E’tiqodsiz ma’naviyat bo‘lmaydi. E’tiqod ma’naviyatning eng asosiy ustunlaridan biridir. U ma’naviyatga mushtaraklik va jipslik bag‘ishlaydi. Uning turli tarkibiy qismlarini o‘zaro birlashtiradi va ma’naviyatni amaliyotga bog‘laydi. E’tiqod ma’naviyatning mohiyatini ochib beruvchi tushunchalardan biridir.

Ma’naviy ong ikki darajali hodisa dedik. Birlamchi daraja - uyat, hayo, minnatdorlik, mehr, qahr-g‘azab, xursandlik, g‘am-qayg‘u, oshuftalik, muhabbat, do‘stlik, vijdon, go‘zallik, zavq-shavq va shu kabi tuyg‘ular, kechinmalar yoki ma’naviyatning poydevorini tashkil etuvchi ko‘ngil dunyosidir. Uni inson mohiyati yoki ruhoniyati, yoki qalb, dil ham deydilar Lekin inson faqat tuyg‘ulari bilangina yashamaydi. U ko‘rgan, boshdan kechirganlarini o‘zicha tahlil qiladi, ularga baho beradi, tushunchalar va nazariy qarashlar tizimi orqali umumlashtiradi, maksad-muddaolari, jamiyat qadriyatlari va talablari bilan bog‘laydi. Tushunchalar, baholar, qarashlar, ideallar insonning aqliy faoliyati mahsullaridir. Uni aql, fikrlar dunyosi (tafakkur) deb ataydilar. Shunday qilib, ma’naviy ong ko‘ngil va aql dunyosidan - ruhoniyat va tafakkurdan iborat. Ko‘ngil va aqlni bir-biridan ajratish, qarama-qarshi qo‘yish xatodir. Chunki ular, magnit qutblaridek, qarama-qarshiliklar birligidir. Bir qutbli magnit bo‘lmaganidek, faqat tuyg‘ulardan (ko‘ngildan) yoki aqldan tashkil topgan, turli nazariy fikrlardan iborat ma’naviyat bo‘lmaydi.

Ijtimoiy ong va ma'naviy ong nisbati

Ongning gorizontal kesimi

Izoh: Ma'naviyat ong ijtimoiy ongga nisbatan anche tor tushuncha. Unga faqat ijtimoiy ongdagi sobit, barqaror va ijobiy mazmundagi insoniy tuyg'ular, goyalar, tushunchalar va ideallar kiradi. Salbiy mazmundagilari ma'naviyatni emas, balki ma'naviyatsizlikni ifodalaydi. Masalan, uyat, hayo, go'zallikdan zavqlanish, minnatdorlik, shukronalik, vijdon amri, vijdon azobi, mas'uliyat tuygusi va shu kabilar inson ma'naviyatiga oid tuygulardir. Ular hayvonot olamida uchramaydi. Uyatsizlik, behayolik, ochko'zlik, surbetlik, yolgonchilik va h.k. ham ijtimoiy ong unsurlaridir, ammo manaviy ongga kirmaydi.

Ma'naviy ongning tuzilmaviy shakllari


(gorizontal kesim)



Izoh: E'tiqod ma'naviyat ongning negizini tashkil qiladi. Unga asotirlar, din va falsafa kiradi. Ularning har uchalasini ijtimoiy ongning alohida shakllari sifatida qabul qilish mumkin. Asotir ibtidoiy sinkretik e'tiqoddir. Nafosatga go'zallik tuyg'usi va u haqdagi qarashlar hamda adabiyot va san'at (badiiy qarashlar) mansub. Axloq tarkibiga odob-axloq tuygulari ea me'yorlari, qarashlaridan tashqari urf-odatlar.

Ongning, jumladan, ma'naviy ongning vertikal kesimi

Tafakkur olami, aql	Ideallar
	Ta'limotlar
	Nazariyalar
	Tizimlashgan qarashlar
	Fikr, mulohaza
	Tushuncha, g'oya
Hissiy-emotsional olam, qalb	Did
	Zavq-shavq yoki qaxr-g'azab
	Hissiy qoniqish yoki qoniqmaslik
	Hissiy kechinmalar
	His-tuyg'ular



Mumtoz adabiyotda va O'rta Sharq falsafasida ko'ngil va aqlga biroz tor yondashilgan. Lekin ular bir-biriga deyarli qarama-qarshi qo'yilmagan. Alisher Navoiy asarlarini o'qib shunday xulosaga kelish mumkinki, ko'ngil (qalb) o'zida tuyg'u va aqlni birlashtiradi: «Ko'ngul badan mulkinining podshohidir... Bas ulkim ko'ngil mulkinining sohib shohi bo'lg'ay - shohlar shohi bo'lg'ay». Ayniqsa, «ruhoniyat» tushunchasini Navoiy ma'naviyat, ya'ni insonning hissiyot va tafakkur dunyosining mushtarak voqeligi sifatida talqin qiladi:

Chun riyozat raf' etib ruhoniyat,

Salb bo'lgoch kimsadin nafsoniyat,

Qolmagay ruhoniyatdan o'zga hech,

Sen taxallufdin bu ma'ni ichra kech.

o'qiyimiz «Lison ut-tayr»da. Ammo ba'zi hollarda, masalan, tasavvufda, ustunlik ko'ngilga berilgan. Faqat Ollohga muhabbat (ishq) tan olingan. Majnunning Layliga, Farhodning Shiringa, Shayx San'onning xristian qiziga, qushlarning Simurg'ga, bulbulning gulga, shoirning mayga, sharobga ko'ngil qo'yishi va oliy muhabbatning boshqa har qanday ko'rinishlari majoziy ma'noda Olloxga intilishni, Olloho sevishni ifodalagan. Muhabbatdan zavq-shavq, ishqdan mastlik, o'zlikdan kechib yor (Olloh) vasliga etishish oshiqning birdan-bir muddaosidir. Bunday holda xayolparastlikdan tashvishlarga to'la real dunyoga qaytaradigan, bu bilan ko'ngilning sarxush orzularini chilparchin qiladigan aql shoirga, sufiyga kerak emas... SHunday bir tomonlama yondashuvlarni nafaqat tasavvuf olimlarida, shuningdek, ayrim boshqa ta'limotlar allomalarida ham uchratamiz.

Sho'rolar fanida ko'proq aqlga ustunlik berilgan. Sovet dohiylari ko'ngil haqidagi gaplarni ziyojicha «oh-vohlar», ular xalqni sinfiy kurash va sotsializm qurishdan chalg'itadi, deb hisoblagan. Ammo ongli ravishda kommunistik g'oyalarga sadoqat ko'rsatilganda ham masalaga bir tomonlama, jangovar va vulgar ateizm, murosasiz sinfiylik va partiyaviylikdan kelib chiqib mulohaza yuritilgan.

Ko'ngil va aqlni muvozanatga keltirish zarurligi ko'pchilik yondashuvlarda hisobga olinmas edi. Buning natijasi o'laroq, hozirgacha kundalik onda (nazariy onda emas) ko'ngil va aqlni qarama-qarshi qo'yish, yoshlar o'rtasida «qalbiga quloq tutib sevgini tanlash kerakmi yoki oilaviy burchingga, ota-onang, yaqinlaringga, agar uylangan bo'lsang, farzandlaring va xotinga sodiq qolib, sevgidan voz kechish kerakmi» kabi mavzularda, ya'ni ko'ngilgami yoki aqlga - qaysi biriga muvofiq yashash lozim qabilidagi bahslar bo'lib turadi. Har xil yondashuvlarni ko'p tanqid qilish mumkin. Lekin masala faqat tanqid yordamida hal bo'lib qolmaydi.

O'zbekistonning kelajak taraqqiyoti tashkiliy, bunyodkorlik ishlari qatorida ma'naviy yuksalishga bog'liq. Rivojlanish esa «inkor qilish kayfiyatidan bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish»ni, jamiyat hayotining ma'naviy asoslarini mustahkamlashni talab qiladi.

«Ma'naviy asoslar» tushunchasi axloqiy, huquqiy, estetik, diniy va boshqa mafkuraviy munosabatlarni, ma'naviy-mafkuraviy vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy muassasalarni, keng ma'nodagi ma'naviy hayotni qamrab oladi. Mustaqil taraqqiyotning ma'naviy asoslari deganda, xalqimiz hayotining yuksalishiga ta'sir ko'rsatuvchi moddiy ishlab chiqarishga oid bo'limgan barcha asosiy omillar nazarda tutiladi. Davlatning ta'lim-tarbiya, ilm-fan, adabiyot va san'at sohasida olib borayotgan siyosati, estetik me'yorlarga, badiiy uslublar rang-barangligiga, madaniy merosga, dinga, siyosiy va axloqiy qarashlar xilma-xilligiga, ularning o'zaro kurashiga munosabati ham jamiyat taraqqiyotining ma'naviy-mafkuraviy asoslari hisoblanadi.

Ma'naviy asos - voqelikka faol munosabat va ma'lum maqsadga, idealga intilish, shu ideallarga o'z faoliyatini moslashtirishdir.

Ma'naviy asoslar tizimida uchta katta guruhni hamda ikkita maxsus omilni ajratish mumkin: birinchi guruh - ijtimoiy ongga oid hodisalar: tuyg'ular, tushunchalar, g'oyalar, baholar, me'yorlar, ideallar, ya'ni «sof ma'naviyat». Ikkinci guruh - «predmetlashgan» ma'naviy qadriyatlar, madaniy meros. Uchinchi guruh-ma'naviy funksiyalarni bajaruvchi ijtimoiy muassasalar.

Ikki maxsus omil, bu - optimistik ma'naviy muhit va ma'naviy ehtiyojlarning yuksalishidir.

Har bir guruh, o'z navbatida, tarkibiy qismlarga va nisbatan mustaqil shakllarga bo'linadi. Birinchi guruh doirasida falsafiy ong, axloq, estetik ong, huquqiy ong, diniy ong, ilmiy dunyoqarash va uning alohida tarkibiy qismi sifatida milliy g'oya ajralib turadi. Ongning ikki darajasi - ijtimoiy psixologiya va mafkura ham bir-biridan farqlanadi.

Ikkinci guruxda esa siyosiy madaniyat, axloqiy madaniyat, huquqiy madaniyat va hokazo hamda san'atning muayyan turlari: badiiy adabiyot, teatr,

haykaltaroshlik, rassomlik, naqqoshlik, dizayn, musiqa, kinochilik va shu kabilar alohida ko'rsatilishi mumkin.

Uchinchi guruhga xalq ta'limi tizimi - mактабгача тарбија, умумта'лим, о'рта максус ва касб-хунар, олий та'лим, илмиy тадқиқот тизими - илмиy ишлаб чиқарish бирлашмалари, илмиy текшirish institutlari, Fanlar akademiyasi va shu kabilar, ijodiy uyushmalar - yozuvchilar uyushmasi, rassomlar, kompozitorlar, kinochilar, teatr arboblari va boshqa ijodiy soha xodimlarining turli uyushmalar, matbaa va ommaviy axborot tizimi - gazeta va jurnallar, radio va televidenie, kitob noshirligi, internet, ijtimoiy tarmoqlar va shu kabilar; mafkuraviy tarbiya tashkilotlari, maskanlar (jumladan, diniy tashkilotlar), urf-odatlar, an'analar hamda oilaning tarbiya va ma'naviyatga tegishli jihatlari kiradi. Ulardan har qaysisining inson va jamiyat, mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishdagi ahamiyati, salohiyati bir xil emas, ammo juda muhim. Har qaysining imkoniyatlaridan maksimal foydalanish uchun ularni alohida atroflicha va chuqur tadqiq etish lozim.

Ma'naviyatga munosabat ko'p jihatdan milliy taraqqiyot muvaffaqiyatlarini belgilaydi. Ayniqsa, madaniy merosga to'g'ri munosabat nihoyatda muhimdir. Chunki milliy qadriyatlarni tiklash va rivojlantirish masalasi murakkabligi tufayli ayrim kishilar uni kelajakka emas, o'tmishtga qaratmoqchi bo'layotganini sezmayaptilar. Islom xalifaligini tiklash yoki O'zbekistonni islom respublikasiga aylantirish, shariat me'yorlarini joriy qilish to'g'risidagi fikrlarda ana shu narsa ko'zga chalinmoqda.

Madaniy meros xalqning bebaho boyligidir. Ammo madaniy merosimizda umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlarga aylangan bebaho durdonalar bilan bir qatorda tarixan eskirgan, yuksak taraqqiy etgan, ma'rifatli keljakni yaratish zaruratiga mos kelmaydigan hodisalar, me'yorlar va tamoyillar ham oz emas. Masalan, paranji yopinish, evropacha kiyim-kechakdan voz kechish yoki teatr, rang-tasvir va haykaltaroshlik kabi san'at turlarini inkor qilish, maktablarni o'kuvchilar jinsiga qarab bo'lish, ko'pxotinlikni yoqlash kabilar shular jumlasidandir. Ular bugungi kunda biz uchun haqiqiy milliy qadriyat emas, balki qadrini yo'qotgan anaxronizmlardir.

Ayni paytda biz madaniy merosga o‘ta ehtiyotkorlik va e’tibor bilan, o‘ta g‘amxo‘rlik bilan yondashmog‘imiz, uni avaylab-asramog‘imiz, undan milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishda samarali foydalanmog‘imiz lozim. Chunki madaniy merosda xalqimizning tarixi, hayotiy tajribasi, ming yillar davomida qo‘lga kiritgan yutuqlari yig‘ilgan. Madaniy meros avlodlar o‘rtasida vorisiylikni ta’minlaydi. Madaniy meros tufayli avlodlar qadim o‘tmishdagi ajdodlari bilan muloqot qiladi. Inson o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun madaniy meros qatorida zamonaviy ilm-fan, texnika, adabiyot va san’at, chet tillari, AT va muloqot shakllarini yaxshi o‘zlashtirishi zarur. Zamonaviy taraqqiyot kishidan juda katta hajmdagi murakkab bilimlarni, ko‘nikmalarni egallashni talab qiladi. Ammo hech bir kishi faqat ilm olish, yangi yutuqlarni o‘zlashtirish yoki ishlab chiqarish, biznes bilan kechayu kunduz band bo‘lolmaydi. U jismoniy va ruhiy tiklanishi uchun dam olishi, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etishi lozim. Zamonaviy sivilizatsiya bu borada unga katta imkoniyatlar qatorida katta xavf-xatar ham tug‘dirmoqda. Insonning kompyuter, smartfon, planshetlar, aniqrog‘i, elektron o‘yinlar, virtual dunyo bandisiga aylanish xavfi juda baland. Ommaviy madaniyatning aksariyat mahsulotlari, ayniqsa, uning kitch qismiga mansublari yana boshqa xavf tugdirmoqda. Ayonki, ularga qarshi tura olish uchun kishida mafkuraviy immunitet shakllangan bo‘lishi lozim. Mafkuraviy immunitet, mazmuniga ko‘ra, siyosiy-mafkuraviy, axloqiy, badiiy-estetik, diniy-e’tiqodiy, umuman, madaniy immunitet kabi konkret shakllarda namoyon bo‘ladi.

Ma’naviyat tushunchasining ta’rifi va tuzilmasi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, ma’naviyatga quyidagicha dastlabki ta’rif berish mumkin: Ma’naviyat, bu - ijtimoiy ongning e’tiqod va qadriyatlar darajasiga ko‘tarilgan sobit, barqaror tuygulari, ehtiroslari, tushunchalari, g‘oyalari, me’yorlari, ijtimoiy mo‘ljallari, ideallaridir, ularning yaratilish jarayoni va madaniy merosda, urf-odatlarda aks etishi, millatga muayyan maqsadlarga erishish uchun yordam beradigan iroda hamda jamiyatda qaror topgan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir.

Shunday qilib, ma’naviyat to‘rt o‘zaro uzviy bog‘liq tarkibiy qismdan iborat:

- a) ongning, dunyoqarashning olamga faol munosabat ko‘rinishidagi funksional jihatni (ijtimoiy ong shakllariga muvofiq - falsafiy, diniy, axloqiy, estetik, huquqiy tuyg‘ular, tushunchalar, baholar, qarashlar, nazariyalar);
- b) ma’naviy madaniyat yutuqlari (xalq og‘zaki ijodi asarlari: qo‘shiqlar, dostonlar, ertaklar, maqollar, matallar, xalq amaliy san’ati asarlari, adabiyot, arxitektura, dizayn, tasviriy san’at, teatr, kino, musiqa, estrada asarlari va sh.k.; fan, ommaviy axborot va tashviqot, ta’lim-tarbiya tizimi, istirohat va sport, urf-odatlar, diniy amaliyot va h.k.);
- c) iroda (erkin tanlash, qat’iyat, fidoyilik, or-nomus, milliy g‘urur, ijtimoiy qo‘rquvni engish va h.k.);
- d) jamiyatda qaror topgan ma’naviy muhit. Ma’naviyat shaxsning tabiat va jamiyat bilan mushtaraklashib, o‘zaro munosabatini uyg‘unlashtirishni bildiradi. Ya’ni ma’naviyat tushunchasi:
- 1) shaxs va jamiyat tomonidan ijtimoiy borliqni o‘z faoliyati asosi va ob’ekti sifatida anlab olinishini (shu boisdan ham ma’naviyat dunyoqarashning funksional jihatni bo‘ladi);
 - 2) shaxsning, millatning muayyan xulq-atvori va yaratuvchilik faoliyati, borliqqa munosabati, borliqni qayta yaratish yoki o‘zgartirish bo‘yicha ijodiy rejalarini;
 - 3) bu rejalarmi amalga oshirish uchun, birinchidan, shaxs va jamiyatdagi qat’iyat, erk va irodani hamda, ikkinchidan, jamiyatda mavjud bo‘lgan mafkuraviy shart-sharoitni bildiradi.

Demak, ma’naviyat orqali inson tabiat va jamiyat bilan bir butunlikni tashkil qiladi, uyg‘unlashadi, olamning haqiqiy javhariga, gultojiga aylanadi. Ma’naviyatsiz inson tabiatning shunchaki bir jonzoti bo‘lib qolaverar, o‘zligini, olamdagи o‘z o‘rnini anglamas, «ikkinchi tabiat»ni yaratolmasdi. Insonning tabiatga va jamiyatga ijobiyligi ta’siri ma’naviyatga, salbiy ta’siri esa undagi kamchiliklarga bog‘liq.

Ma’naviyatdagi ratsionallik (oqilonalik) va irratsionallik (nooqilonalik). Ma’naviyat nafaqat ratsional, shuningdek, ma’lum darajada irratsional xarakterga ega. Ma’naviyatning ongga, aqlga, mantiqqa oid tomoni insonning ratsional dunyosini tashkil etsa, irodaga oid tomoni qisman irratsional dunyosini tashkil etadi. Ma’naviyatning hissiyotga oid jihatlari esa ham ratsional, ham irratsional xarakter kasb etadi.

Hissiyot ong va irodani birlashtiruvchi qatlam, u bir tomoni bilan ongga singib ketadi. Ikkinci tomoni bilan irodaga tutashadi (estetik zavq ongli ravishda kechishi mumkin, masalan, asarning badiiy mukammalligini yaxshi tushungan holda yoki shaxmat kombinatsiyasining go‘zalligini idrok etgan holda ulardan zavqlanish mumkin. SHu bilan birga, estetik zavq go‘zallikning bevosita ta’sirida, go‘zallikning tashqi «sehri»ga maftunlikdan hosil bo‘ladi. Bunda ratsional tahlil ikkinchi o‘ringa chekinadi). Uyat, or-nomus va vijdon tuygusi, g‘urur, qo‘rquv bir tomondan - ratsional, ikkinchi tomondan - irratsional mazmunga ega.

Alpomishning bandilikdan qutulishda Kayqubod yordamidan voz kechishi oriyatning, iordaning ko‘rinishidir. Amaliy foydalilik nuqtai nazaridan (tezroq bandilikdan qutulib, dushmanlardan o‘ch olish, adolatni tiklash, Barchin visoliga etish, o‘z yurtiga tezroq qaytish, u yo‘qligida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan turli xavf-xatarlarning oldini olish va hokazo), ya’ni oqilona ish tutish nuqtai nazaridan Alpomishning qarori unchalik to‘g‘ri emas. Ammo Alpomish obrazi ifodalaydigan ma’naviy tushunchalar, axloqiy ideallar o‘zgalarning yordamidan asosiy maqsadiga erishish uchun foydalanishga yo‘l qo‘ymaydi. U boshqa sohalarda o‘zgalardan yordam olishi mumkin(Kayqubodning oziq-ovqatlarini rad qilmaydi), lekin dushmanlar bilan prinsipial kurashda alp sifatida o‘zligini to‘la-to‘kis namoyon etishi, o‘z kuchi bilan g‘alaba qozonishi lozim. Bunday ish tutish xalqning ma’naviy idealidir, lekin u ratsionalizm doirasiga sig‘maydi.

G‘urur, or-nomus va fidoyilikka ko‘plab tarixiy misollarni keltirish mumkin. Ayniqsa, xalq ozodligi uchun kurashgan buyuk shaxslar, qahramonlar, siyosatchilar, qo‘zg‘olonchi va inqilobchilar hayotida ichki tuyg‘u, sezgi va fahm-farosatga tayanib, tavakkalchilik bilan qo‘rmasdan amalga oshirilgan ishlar son-

sanoqsiz. Ularni oxirigacha ratsionalizm nuqtai nazaridan tushuntirib berish qiyin. Lekin bundan iroda faqat irratsionalistik bo‘lar ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Badiiy ijod jarayonida esa irratsionalizm va ratsionalizmni ko‘p hollarda bir-biridan ajratish qiyin.

Ma’naviyatdagi irratsional jihatlar, diniy, diniy-mistik qarashlarda, turli irimlarda, ayrim hollarda ijodkor shaxslarning «darvishona», «mashrabona» xattiharakatlarida, ba’zan bama’ni kishilarning «aql bovar qilmaydigan» bema’ni qiliqlarida ko‘rinib qoladi. Irratsionalizm ma’naviy hayotda, insonning xulq-atvorida ancha ta’sirli rol o‘ynaydi.

Yuqorida ma’naviyatda sub’ektiv va «moddiylashgan» ob’ektiv tomonlar mavjudligi qayd etilgan edi. Ma’naviyatning sub’ektiv tomoni, o‘z navbatida, ikki ratsional va irratsional qismlarga bo‘linadi. Iroda ko‘p hollarda irratsional xarakterga ega.

Ma’naviyat sub’ektiv hodisa, tuyg‘ular, aql va iroda sifatida borliqning shunchaki aksi emas, balki dunyoqarashning (kengroq olsak, ongning) borliqqa nisbatan amaliy munosabat shaklidagi muayyan faoliyatga aylanishidir. Ma’naviyat ob’ektivlashgan qadriyatlar tizimi (ma’naviy madaniyat) sifatida esa millatning o‘z-o‘zini anglash, o‘z ruhini, irodasini va ongini, ijtimoiy amaliyotini takomillashtirish imkoniyatlarining va vositalarining erishilgan darajasidir, jamiyatning madaniy saviyasidir.

Qisqa qilib aytganda, ma’naviyatda *millatning aqliy va ruhiy salohiyati hamda ijodkorlik qobiliyati yuzaga chiqadi*. Bu salohiyat va qobiliyat asrlar davomida toblanib, xalqning tarixiy bunyodkorlik, diniy va dunyoviy tajribasini o‘zida mujassamlagan. Shu bois ma’naviyatga barqarorlik xos. Ma’naviyat jamiyat bilan birga yuksaladi, rivojlanadi, tanazzulga va inqirozga uchraydi, qayta uyg‘onadi, gurkirab o‘sadi. Ma’naviyat uchun izchil tarixiylik va zamonaviylik, an’anaviylik va yangilanish xos. Ma’naviyatning rivojlanishi tarixiy zaruratni jamiyat tomonidan to‘g‘ri tushunilishiga va shunga muvofiq jamiyatda amalga oshirilayotgan ishlarga bog‘liq.

Ma’naviy muhit ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida.

Insonga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan mafkuraviy talablar axloqiy, huquqiy, estetik, diniy me’yorlar, ma’naviy muhitni tashkil qiladi. Ma’naviyatning mohiyatini «ma’naviy muhit» tushunchasisiz teran anglab olish mushkul. Sog‘lom ma’naviy muhit shaxsni ham, butun avlodni ham muayyan yo‘nalishda tarbiyalaydi, ijobiy xislatlarini yuzaga chiqaradi, ularni nomaqbul ta’sirlardan himoya qilishga urinadi. Chunki ma’naviy muhit har qanday yutuqlar va kashfiyotlarning (chetdan qabul qilinganlarining ham) taqdirini belgilaydi: yo rivojlantiradi, yo unutilishga mahkum etadi yoki deformatsiya qilib, o‘ziga moslashtiradi. Aksincha, nosog‘lom ma’naviy muhit odamlarni bir-biridan begonalashtiradi, o‘zaro ishonchni, mehr-oqibatni susaytiradi, ijtimoiy qo‘rquvni kuchaytiradi.

Ma’naviy muhit jamiyatning hissiy, aqliy va jismoniy kamolotda erishgan o‘rtacha saviyasi asosida vujudga kelgan talablari va ularning amalga oshish tartibidir. Muhit, odatda, barqarorlikka, bir tekislik va bixillikka intiladi. Uning talablari va ta’siri hammaga birdek, o‘rtacha bo‘ladi. Uning talablariga javob berish uchun kimlardir o‘z ustida ishlaydi, takomillashadi, o‘sadi va h.k. Kimlar uchundir umumiylar ma’naviy muhitning talablari kamlik qiladi. Bunday shaxslar yoki ijodiy guruhlarning imkoniyatlari to‘liq yuzaga chiqmasdan qolish xavfi tug‘iladi. Shu boisdan umumiylar ma’naviy muhit doirasida nisbatan alohidalashgan tabaqaviy, kasbiy (professional) yoki guruhiy muhitlar - katta-kichik submuhitlar mavjud. Submuhitlar o‘zaro biroz farq qiladi. Farq ularning muayyan ijtimoiy guruh, tabaqa va sinflarning psixologiyasi va siyosiy mavqeい, amaliy intilishlari, intellektual salohiyati ta’sirida vujudga keladi. Ammo bu farq ortiqcha baholanmasligi va ma’naviyatga mutlaqlashtirilgan sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish uchun asos bo‘lmasligi kerak. Submuhit umumiylar muhitdan ajralib keta olmaydi va, pirovardida, uning asosiy va fundamental talablariga bo‘ysunadi. Muhit ma’naviyatning eng umumlashgan uzluksizlik shakli, madaniyat esa davomli (diskret) shaklidir.

Ma’naviy muhit siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga, boshqaruv rejimiga bog‘liq. Agar siyosiy tuzum, boshqaruv usullari zo‘ravonlikka asoslansa, jamiyatda odamlar, tashkilotlar faoliyati ustidan yoppasiga mafkuraviy nazorat o‘rnataladi. Bir mafkuraning hukmronligi qaror topadi. Unga xilof keladigan har qanday fikr va qarashlar tan olinmaydi, ta’qib qilinadi va taqiqlanadi. Taqiqni buzganlar jazolanadi, qatag‘on qilinadi. Bunday sharoitda odamlar bir-biridan cho‘chib, ishonmasdan yashaydi. Ko‘ngildagini ochik aytolmaydi. Mavjud tuzum kamchiliklarini tanqid qilolmaydi. Ba’zi hollarda bir-birlari ustidan tegishli idoralarga chaqimchilik qilib turadi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik yo‘qligi shaxs kamoloti va jamiyat rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Va, aksincha, jamiyatda erkinlik va demokratik boshqaruv darajasi qanchalik baland bo‘lsa, ma’naviy muhit shunchalik yaxshilanadi, uning inson kamoloti va jamiyat rivojlanishiga ijobjiy ta’siri shunchalik kuchayadi.

O‘zbekiston kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari rivojlanmoqda. Bu jarayon ma’naviy muhit yanada yaxshilanishini taqozo etadi va bunga zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Diniy madaniyat nima ?
2. Ma’naviy muhit tushunchasi ?
3. Insonga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan mafkuraviy talablar ?
4. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy erkinlik ?
5. Shaxs kamoloti tushunchasi ?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. - T.: O‘zbekiston, 2018.
3. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2010.
4. Erkaev A. Ma’naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma’naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma’naviyat, 2018. - 480 b.
5. Qosimon B. Uyg‘ongan millat ma’rifati. – T.: Ma’naviyat, 2011.
6. Yusupov E. Xadislarda dunyoviy va diniy g‘oyalarning bog‘liqligi. - «O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 1994, 5-son.

2-MAVZU: INSON-JAMIYAT-MA'NAVIYAT UZVIYLIGI.

Reja:

- 1.** Ma'naviyat va inson tabiat.
- 2.** Ma'naviyat va insonning hissiy hamda aqliy dunyosi.
- 3.** Tafakkurning tarixiy shakllari va ma'naviyat.
- 4.** E'tiqod va ma'naviyat.
- 5.** Iroda ma'naviyatning mavjudlik shakli sifatida.

Kundalik ongda ko'pincha e'tiqod biror dinga ishonish va uning ahkomlarini bajarish, deb tor mazmunda tushuniladi. Aslida e'tiqod ancha keng tushuncha, diniy mazmundan tashqari dunyoviy mazmunda ham qo'llaniladi. Erkin, demokratik e'tiqod, siyosiy e'tiqod, axloqiy e'tiqod, ilmiy e'tiqod va h.k. so'z birikmalari bunga misoldir. E'tiqod muayyan g'oyalar, qarashlar tizimiga qattiq ishonchni va sodiqlikni anglatadi. Sobiq tuzum paytida kommunistik e'tiqod to'grisida gapirilar edi. Bunda kommunistik g'oyalarga, marksizm-leninizmga ishonch va sodiqlik nazarda tutilgan. Diniy e'tiqodni biz ko'proq imon yoki imon-e'tiqod deymiz va bu bilan uni e'tiqodning dunyoviy shakllaridan farqlaymiz. E'tiqod avvalo shaxs (jamoa, guruh, jamiyat) tomonidan muayyan g'oyalarga, baho va me'yorlarga ikkilanmasdan, shubha qilmasdan, qat'iy ishonch asosida hosil bo'lган eng muhim va birinchi darajali hisoblangan barqaror, sobit tushunchalar, umumqabul qilingan me'yorlar, yuksak qadriyatlar, nazariyalar va qarashlardir, ya'ni ilmdir (bilimdir).

Shunday qilib, e'tiqodning mazmunini birinchi galda ilm tashkil qiladi. Chunki kishi nimaga e'tiqod qilayotganini nimaga ishonayotganini, nimaga intilayotganini, nimaga o'z xulq-atvorini, ijodini moslashtirish lozimligini bilishi lozim. Bu ilm diniy yoki dunyoviy yoxud ularning ma'lum darajadagi qorishuvi bo'ladimi, undan qat'iy nazar, e'tiqodning keng ma'nodagi hayotiy mazmunini tashkil etadi. Ilmsiz e'tiqod yo'q, bo'lishi mumkin ham emas. Ilmlar bir-biridan xarakteri, mazmuni, predmeti, olamni aks ettirishi, tabiat, jamiyat, inson bilan bog'liq hodisalarini tahlil qilish, umumlashtirish usullari, shakllari, yo'nalishi va ahamiyatiga ko'ra ancha farq qiladi. Eng avvalo ilmni biz, tafakkur xususiyatlaridan kelib chiqib, ratsional va

irratsional ilmlarga ajratamiz. Ratsional ilm izchil mantiqqa, puxta nazariy tadqiqotlarga va amaliy tajribaga tayanadi. Tabiatshunoslik fanlari mazmuni va beradigan bilimlari, axborotlari hamda insoniyat mehnat faoliyati va hayoti davomida o'zlashtirgan, orttirgan tajribasi orqali hosil bo'lgan amaliy bilimlar ratsional mazmunga ega. Ratsional ilmni nazariy va amaliy-eksperimental usullar yoki hayotiy tajriba yordamida takrorlash, isbotlash mumkin. Ratsional ilm samara beradigan ilmdir. Uning yordamida ob'ektiv borliq - koinot, tabiat, jamiyat, inson sir-asrorlari, tuzilishi, turli qismlari, unsurlari, xususiyatlari, o'zaro aloqalari, xossalari va h.k. o'rganiladi.

Shu tariqa to'plangan bilimlar yordamida inson tabiatga va jamiyatga ta'sir ko'rsatdi, yangiliklar yaratdi. Yangi hayvonlar zotlarini urchitdi, oziq-ovqat va texnik o'simliklarning yangi navlarini yaratdi, konlarni ochib, tabiiy minerallarni qayta ishlab, mashinalar, traktorlar, asboblar, uskunalar, uy-ro'zg'or buyumlari yasa-di. Uylar, qishloqlar, shaharlar qurdi va h.k. Ratsional ilm asosida inson turli tabiiy xavf-xatarlarga, epidemiyalar va kasalliklarga karshi kurashdi. SHu sababdan ratsional ilmni samarali, amaliy natija beruvchi, insonning o'zini, jamiyatni, tabiiy yashash muhitini o'zgartiruvchi ilm deymiz.

Irratsional ilm aniq dalillardan tashqari noaniq, taxminiy, emotsional, ba'zan g'ayritabiyy, diniy, mistik, ezoterik yoki mantiqiy chayqovchilik ruhidagi vajlarga tayanadi yoki ularni ilmiy dalillar bilan aralashtirib yuboradi. Masalaga o'ta hissiyotga berilib, xolislikni unitib, biryoqlama yondashilganda olingen bilim, diniy va mistik unsurlardan xoli bo'lsada, irratsionallik kasb etishi mumkin. Irratsional ilmning to'g'riliqini nazariy yoki amaliy tajriba orqali tekshirib, isbotlab bo'lmaydi. Diniy asarlarda va ta'limotda irratsional jihatlar ko'p. Mistik ilm esa to'liq irratsionaldir. Lekin bu - irratsional ilm to'liq uydirma, qalloblik degani emas, balki ularni oqilona, mantiqiy yoki amaliy tushuntirishning iloji yo'q, deganidir. Ammo, tan olish kerak, aksariyat folbin, ekstrasens va ruhiy shifo beruvchi tabiblar mistikasi uydirma, qalloblikdir. Ularni valiy zotlar, buyuk shaxslar, haqiqatan noyob qobiliyatga ega shaxslar mistikasidan farqlash lozim.

Irratsional ilm aniq bilim bermasada, masalaning, muammoning ba'zi bir jihatlarini payqashga, ichki sezgi (intuitsiya) yordamida ba'zi narsalarni ochib berishga

qodir. Masalan, ba'zi bir atoqli diniy arboblar, ekstrasenslar shunday natijalarga erishganlar. SHu sababdan ularning oddiy avomga va hatto ancha o'qimishli odamlarga ta'siri ba'zan sezilarli bo'lган. Bunday kishilar yuz mingdan, balki milliondan bitta uchraydi. Ammo hayotda g'ayritabiyy qobiliyati, kuchi borligiga da'vogar qalloblarning son-sanog'i yo'q. Shu sababli dunyoviy ilm-fan kabi islom dini ham folbin va karomatgo'ylarni qoralaydi.

Fan beradigan ilm, to'gri yoki noto'g'riliidan qat'i nazar, ratsionaldir. Fanning noto'g'ri uslublar, adashishlar orqali to'plagan xatoliklari, noto'g'ri xulosalari ham mantiqqa, aqlga asoslanadi. Agar fan siyosatga xizmat qilib, o'ta mafkuraviylashib keqagina, irratsional xarakter kasb etishi mumkin. Bu ko'proq ijtimoiy va gumanitar fanlarga, juda kam hollarda tabiatshunoslik fanining dunyoqarash, e'tiqod bilan bog'liq mazmuniga (tadqiqotning o'ziga emas) taalluqli bo'lishi mumkin. Masalan, biologiya fanining evolyutsiya, tur, irsiyat va shu kabi hodisalar bilan bog'lik ba'zi xulosalari fashistlar tomonidan siyosiy mafkuraviy jihatdan noto'g'ri talqin qilingan, irqchilik kabi g'ayriinsoniy siyosiy nazariyalarga asos qilib olingan edi. Bunda biologiya fanining hech qanday aybi yo'q. Ayb siyosatchilarda. Misol tariqasida fashizm davrida Germaniyada shimoliy tipdag'i ariy xalqlarining boshqalardan ustunligini isbotlashga qaratilgan irqchilik nazariyasini, inson irsiyatini yaxshilash uchun yevgenika rejalarini keltirish mumkin. Gitlerning va fashizmning har jihatdan muxolifi bo'lган Stalin va bolshevizm nafaqat irqchilik nazariyasini, shuningdek, umuman genetika fanini ham inkor etdi. Ko'plab genetika olimlari qatag'on qilindi. Mag'zavaga qo'shib tog'oradagi bola ham uloqtirildi.

Haqiqiy ilm siyosatga bo'y sunmaydi. U ob'ektiv haqiqatni aks ettiradi. To'g'ri, siyosat ilmiy bo'lishi, ilmga mos kelishi mumkin. Bunday holda u e'tiqodga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Lekin zo'ravonlik siyosatiga bo'ysundirilgan, noto'g'ri ilm esa e'tiqodni xatoga yetaklaydi, unga murosasizlik, mutaassiblik va tajovuzkorlik, beshafqatlik bag'ishlaydi. Yana misol tariqasida Gitler va Stalinni, turli diktatorlarni, zamonaviy ekstremistik ta'limotlarni eslash mumkin.

Ilmlarni dunyoviy va diniy ilmlarga bo'lish mumkin. Dunyoviy ilm asosan ratsional mazmunga ega. U nazariy va amaliy tadqiqotlar (fan) hamda hayotiy tajriba, ishlab chiqarish orqali to'planadi, avloddan-avlodga o'tib keladi. Diniy bilimlar ko'proq ko'r-ko'rona ishonchga, biror bir hodisani ilohiy haqiqat, deb bilishga asoslanadi. Diniy ilmlarda ham nazariy (ilohiyot fani), toat-ibodat va diniy marosimlar bilan bog'liq amaliy ilmlar mavjud. Diniy ilmda ratsionalizm va irratsionalizm qorishib ketgan. Shunday qilib, har qanday ilmni nazariy va amaliy ilmlarga bo'lish mumkin. Nazariy ilmlar aniq bir tizimga keltiriladi, mantiqan (xato yoki to'g'ri ekanligidan qat'i nazar) har tomonlama asoslanadi, mavhum ilmiy tushunchalar, tamoyillar, ilmiy qonunlarda ifodalanadi. Amaliy bilimlar (ilmiy-eksperimental ilmlardan tashqari) ko'proq kundalik hayot va tajriba orqali shakllanadi. Ulardan farkli, ilmiy tajriba orqali qo'lga kiritilgan amaliy ilmlar nazariyadan, nazariy farazlar va hisob-kitoblarni, xulosalarmi eksperiment orqali tekshirib ko'rish va hayotga tatbiq etishdan kelib chiqadi va oqibatda yana nazariya orqali umumlashtiriladi. Amaliy eksperimental ilmlar ba'zan nazariyaga aniqlik kiritadi, uni boyitadi, ayrim yanglish fikrlar va farazlardan tozalaydi. Ba'zan nazariyani tubdan o'zgartiradi, yangilaydi. Biologiya sohasida olib borilgan eksperi-mental tadqiqotlar genlar nazariyasi, genetika fani va biotexnologiyalar vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Astronomik asboblar, yirik radio va optik teleskoplar ixtiro qilinishi, ularni zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter yordamida ishlatilishi, yerning orbitasiga koinotni kuzatadigan astronomik stansianing chiqarilishi, olinayotgan axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullari paydo bo'lishi koinotga oid qarashlarni, nazariyalarni keyingi 20-30 yilda ancha o'zgartirib yubordi.

Eksperimental fanning yangi xolis ilmlarni ochish, mavjudlarini tasdiqlash yoki xatolarini ko'rsatishdagi ahamiyati shunchalik ulkanki, keyingi bir asrdan buyon olim-lar o'rtasida nazariy fanlar yetakchimi yoki eksperimental fanlar, degan jiddiy bahslar mavjud. Ularning har ikkalasi suv va havodek zarurligi hech kimda shubha uyg'otmaydi. Faqat nazariyadan eksperiment ko'proq tug'iladimi, yo eksperimentdan ko'proq nazariyami, degan qabilida bahs yuritiladi. Buyuk bobomiz Abu Rayhon

Beruniy ekperimentni (ilmiy tajribani, amaliy tadqiqotni) ilmiy haqiqatni aniqlovchi mezon, deb hisoblagan.

E'tiqodning ilg'orligi yoki qoloqligi, insonparvarligi yoki xudbinligi va boshqa ko'plab xususiyatlari uning mazmunini tashkil etuvchi ilmga bog'liq Ammo har qanday ilm, ayniqsa, kundalik bilimlar e'tiqod bo'lavermaydi. Nafaqat kundalik bilimlarda, hattoki ilm-fanda ko'plab turli axborot darajasidagi hamda asosiy arkoniy tamoyillarni shakllantirishga xizmat qiluvchi «yordamchi» va oddiy elementar tushunchalar borki, ular qanchalik fan va ilmiy tadqiqot, ijtimoiy amaliyot uchun ahamiyatli bo'lmasin, e'tiqodning bevosita tarkibiy qismiga kirmaydi. Shuningdek, amaliyotda tasdig'ini topmagan, faraz sifatida olg'a surilgan ilmiy tushun-chalar va nazariyalar, tabiiyki, e'tiqodga aylanmaydi. Ikkilanish va shubha bilan qaralgan ilm e'tiqod emas. Ilgari inson qattiq ishongan tushunchalar, g'oyalarga nisbatan jamiyat va ilm-fan taraqqiyoti natijasida shubha tug'ilsa, ular e'tiqod maqomini yo'qotadi.

E'tiqod tuzilmasining boshqa unsurlari. E'tiqod ilm bilan cheklanmaydi. U muayyan g'oyalar va qadriyatlarni faol aqliy va hissiy qabul qilish, sevish, ixlos qo'yish, ularga o'z ideallarini, ijtimoiy intilishlari va amaliyotini moslashtirishdir. E'tiqodda ishonch katta rol o'ynaydi. Ishonch e'tiqod mazmunini tashkil etuvchi tushunchalar, me'yorlar, g'oyalar, ta'limotga - ilmga (bilimga) nisbatan kuchli emotSIONAL (hissiy) ijobiy munosabatdir. Ishonch turmush tajribasi negizida hosil bo'lgan kundalik ong darajasiga va ilmiy bilimlarni muayyan (to'g'ri yoki noto'g'ri) tushunishdan hosil bo'lgan nazariy ong darajasiga oid bo'lishi mumkin. Ishonch oilaning tarbiyasi, submuhit ta'siri natijasida, jamiyatning ta'lim muassasalari, tashviqot va axborot vositalari orqali kishi ongiga ta'sir etishi oqibatida vujudga keladi. Ishonch ham, o'z mazmuniga ko'ra, ratsional yoki irratsional xarakter kasb etadi.

Ratsional ishonch shaxsning faol harakatiga, yaratuvchiligiga asoslanadi. Uning ob'ektini tashkil qilgan g'oya, ta'limot, ideal to'gri yoki xato, real yoki utopik bo'lishi mumkin. Lekin shaxs unga sidqidildan ixlos bilan intiladi, unga erishish yo'llarini izlaydi, ijod qiladi. Natijada, u o'sha maqsadga yetolmasa ham (agar u sarob bo'lib chiqsa) ma'lum samaraga erishadi, faoliyatni izsiz ketmaydi.

Irratsional ishonch shaxsning ijodiy passivligiga, farmonbardorligiga, mutaassibligiga tayanadi. «Agar irratsional ishonch nimanidir yo ko'pchilik yoxud qandaydir obro'li shaxs haqiqat hisoblagani uchungina haqiqat deb qabul qilsa, ratsional ishonch samara beruvchi o'z kuzatishlariga va mushohadalariga asoslangan e'tiqod mustaqilligini bildiradi»⁶, - deb yozadi Erix Fromm. Nazarimizda, Frommning ushbu xulosasi umumiy ko'rinishda ma'lum darajada biryoqlama, masalaga bir oz torroq yondashishning oqibatiga o'xshasada, lekin uning asosiy xulosasi nihoyatda teran va to'g'ri: ratsional ishonch bu samara beruvchi e'tiqod mustaqilligidir. Boshqacha qilib aytganda, ishonchning ratsional bo'lishi e'tiqod mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mustaqil e'tiqod esa shaxs va jamiyat ehtiyojlarini nisbatan to'g'ri anglaydi, bu extiyojlardan kelib chiqib yangiliklarga, rang-baranglikka, mavjud holatni o'zgartirishga intiladi. Irratsional ishonch erkinlikka, mustaqillikka, ijtimoiy yangilikka intilmaydi, balki ularni g'ayritabiyy kuchlardan, dohiylardan, avliyolardan kutadi. «Irratsional ishonch nimagadir yoki kimgadir mutaassibona (fanatik) ixlos qilishdirki, uning mohiyati shaxsga tegishli yoki shaxsdan tashqarida turuvchi irratsional obro'ga bo'y sunishdan iborat»⁷, - deganida, E.Fromm asosan haq edi.

Fromm mulohazalaridagi bizga biryoqlamalik bo'lib tuyulgan jihatlarga kelsak, quyidagilarni ta'kidlash lozim. Ishonch, uning ratsional yoki irratsional xarakteri shaxsning uzoq davom etgan mulohazalari, xulosalari va hayotiy tajribasi mahsuli bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Keyingi holda u jamiyatdagi yoxud shaxs submuhiti - oilasi, mehnat yoki diniy jamoasi yoki ulfatlarining norasmiy davrasidagi hukmron e'tiqod asosida shakllanadi va shaxs tomonidan tayyor aksioma sifatida qabul qilinadi. Ammo ishonchning ratsionalligi yoki irratsionalligi bular bilan belgilanmaydi.

Uzoq ilmiy tahlillar, mantiqiy xulosalar asosida shakllangan ishonch irratsional bo'lishi hech gap emas (agar tadqiqot usuli noto'g'ri tanlansa, dastlabki shartlarda va tayanilgan dalillarda xatoga yo'l qo'yilsa va h.k.). Axir filosofiyadagi, diniy

⁶ Erix Fromm. Psixoanaliz i etika. — M.: 1993, 159-6

⁷ Erix Fromm. Psixoanaliz i etika. — M.: 1993, 159-6

ta'limotlardagi, ijtimoiy na-zariyalardagi irratsional oqimlar atoqli mutafakkirlarning uzoq yillar davomidagi aqliy mehnati, izlanishlari, boshqa ta'limotlarni tanqidiy tahlil qilib, ma'lum xulosalarga kelish natijasida paydo bo'lgan. Aksincha, tayyor holda, «beo'ylov» qabul qilingan ishonch chuqur ratsional bo'lishi mumkin.

Ratsionallik va irratsionallik shaxsiy yoki jamoaviy tajribaga, dunyoviylikka yoki diniylikka, materialistik yoki idealistik tamoyillarga suyanishga bevosita bog'liq emas.

Ishonchning ratsionallik va irratsionallik mezonini taraqqiyot zaruriyatidan izlash kerak. Shaxs (jamoa) qattiq ishongan tushunchalar, me'yorlar, g'oyalar, ideallar tarixiy taraqqiyot talablariga qanchalik mos kelsa, ishonch shuncha ratsionallik kasb etadi. Tarixiy zaruriyatga, jamiyat rivojlanish talablariga mos kelmaydigan ilmga nisbatan shakllangan ishonch irratsionaldir. U ob'ektiv samara bermaydi. Demak, ma'naviyat rivojla-nishi uchun e'tiqod samarali ratsional ishonchga asoslanishi lozim. Bu ishonch chetdan mo'jiza kutib o'tirmaydi, shaxs o'z e'tiqodiga sodiq kolgan holda, maqsadiga erisha olmasa ham, sababini o'z faoliyatidan axtaradi. Binobarin, unga tanqidiy baho beradi, qo'shimcha vositalar izlaydi va h.k.

Yangi ta'limotlar, yangi dinlar o'zlaridan avval vujudga kelgan va faoliyat yuritayotgan boshqa muxolif ta'limotlar, dinlar bilan g'oyaviy, siyosiy kurashda o'z o'rnni topishga, o'z haqiqatini qaror toptirishga intilishi ular tarafdarlarini faol bo'lishga, o'z e'tiqodlari kelajagiga ishonishga, bu keljakni amaliy faoliyatlarini bilan yaratishga undaydi. Shu bois puxta va jiddiy ishlab chiqilgan yangi ta'limotlarga ishonch, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishidan kat'i nazar, dastlab o'ziga xos ratsionallik kasb etadi va amaliyotda katta samara beradi. Bu yangi ta'limotning ijtimoiy taraqqiyot bilan ziddiyatlari yuzaga chiqmaguncha, o'z ijodiy salohiyatini sarflab bo'limguncha davom etadi. Agar yangi ta'limot tarafdarlarining yaratuvchilik faolligi sust bo'lsa, ular ishonchining samarasi uzoq vaqt imkoniyat darajasida qolib ketadi. Uning vogelikka aylanishi yangi tarixiy davrda ta'limotning o'zida ham chuqur o'zgarishlar sodir bo'lgandan keyingina yuz berishi mumkin. Buni xristian dini misoli tasdiqlaydi.

Dastlabki xristianlik ta'limotining aksariyat tarafdarlari qullar yoki harakat erkinligi cheklangan oddiy kishilar bo'lgani sababli, xristianlik o'rnatilgach,

Yevropada antik davrga nisbatan ma'naviyatning aksariyat sohalarida, ayniqsa, ilm-fan, tibbiyot, adabiyot, san'at-da ortga ketish bo'ldi. Bu holat Uyg'onish davrigacha davom etdi. Islomga ishonch ham aynan shu sababdan u vujudga kelganidan keyingi dastlabki asrlarda olamshumul buyuk harbiy, siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy yutuqlarga olib keldi. Kuchli ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlab, jahonda yangi sivilizatsiya yaratdi. Ta'limotga ratsional ishonch ijtimoiy faollik va safarbarlik bilan qo'shilsagina yuksak amaliy samara beradi.

Dastlab ratsional bo'lган ishonch ijtimoiy tarjibalar orqali tasdiqlanmasa, hayotda o'zini oqlamasa, omma kutgan natijaga olib kelmasa, o'zining aksiga - yo ishonchsizlikka yo irratsional ishonchga (mutaassiblikka, mantiqqa zid ixlosga va sh.k.) aylanadi. Ma'naviyat esa inqirozga uchraydi, qashshokdashadi. Qashshoq ma'naviyatda mutaassiblikka moyillik kuchlidir. Ortodoksal diniy ta'limotlarning, marksizm-leninizmning va boshqa hayotga moslashib rivojlana olmagan ta'limotlarning qismati buni tasdiqlab turibdi.

Ilm kabi ishonch e'tiqodning asosiy bosh unsuridir. Ilm e'tiqodning mazmunini, ishonch uning hayotiylik kuchini tashkil etadi. Agar inson o'z borlig'ini, turmush va mehnat sharoitini, ijtimoiy ahvolini o'zgartira olishiga ishonmasa, u ijodiy izlanishlardan, qiyinchiliklar bilan kurashdan to'xtab, faqat tabiatga va hayotga moslashib yashayveradi. Bunday holda u yarim yovvoyi mavjudod sifatida qolib ketardi, hayvonot dunyosidan uncha uzoqlashmasdi. Ishonch izlanish, ijod qilish, kashf etish - yuksalish uchun insonga kuch-quvvat va rag'bat berdi. Fan negizida ham, din negizida ham, odamlarning o'zaro ijobiy aloqalari, bir-birini qo'llab quvvatlashi negizida ham ishonch yotadi. Ishonchsiz e'tiqod va ma'naviyat yo'q.

E'tiqod dunyoqarashning, u orkali butun ma'naviyatning o'zagi sifatida voqelikka inson munosabatini, xulq-atvorini, faolligini belgilaydi. Faollik uchun, ayniqsa, ijodkorlik uchun oddiy ishonchga asoslangan ilm ko'p hollarda kamlik qiladi. Ijodkorlik va faollik ishonchning ixlos va ishq bilan boyitilishini taqozo etadi.

Odatda, ixlos biror g'oyaga, nazariyaga yoxud san'at asariga, umuman qadriyatga, uning mualliflariga yoki targ'ibotchisiga ko'ngil qo'yishdir (salbiy narsaga «ko'ngil qo'yish», hatto ijobiy narsaga mavjud axloqiylik chegarasidan

chiqib, me'yoridan ortiq intilish aslo ixlos emas, u hirs va nafs yoki mutaassiblik deyiladi). Ammo ixlos shunchaki ko'ngil qo'yish emas, ko'ngil qo'yadigan ob'ektni bilish, emoqional va xolis baholash va unga intilish hamdir. Ixlos ijobiy emotsiyal baho, ob'ektga samimiy intilish tufayli vujudga keladi. Inson biror narsaga ko'ngil qo'yishdan avval uni har tomonlama tahlil qiladi, kuchli va zaif, foydali va befoyda jihatlarini aniqlaydi. Boshqa o'xshash narsalar bilan solishtiradi, taqqoslaydi, ulardan ustunligini, odamlar va jamiyat uchun foydaliroq ekanini, axloqiylik va go'zallik talablariga ko'proq mos kelishini bilib oladi. Unda o'sha ob'ektta nisbatan havas tug'iladi. Agar ixlos ob'ekti ijodkor shaxs bo'lsa, o'zini uning shogirdi, o'quvchisi, izdoshi, muxlisi deb hisoblaydi, unga nisbatan chuqr va samimiy hurmat yuzaga keladi. Ixlos qiluvchi kishi muxlis deyiladi. Ixlos ob'ekti diniy arbob bo'lsa, (tasavvufda) pir, eshon, ixlos qiluvchi esa murid deyiladi. Lekin murid pir irodasiga to'liq bo'ysunadi. Uning ixlosi avtoritar mazmunga ega.

Birovning tazyiqida kishida ixlos shakllanmaydi. U shaxsning o'z moyilligi, erkin tanlashi (ongli yoki ongsiz) asosida qaror topadi. Hatto avtoritar ixlos ham asosan erkin tanlashning yoki tarbiyaning natijasidir. Demak, ixlos tarkibiga «intilish» bilan birga «ixtiyor» ham kiradi. G'oya yoki ta'limotga ixlos qo'yish, unga o'z umrini bag'ishlash xolis xizmat qilishni, bundan shaxsiy foya izlamaslikni anglatadi. Ilm-fan, adabiyot va san'at daholari, buyuk mutafakkirlar orasida bunday zotlar tarixda ko'p uchraydi. Ularning aksariyati juda kamtarona, ba'zilari hatto ancha qashshoq kun kechir-gan. Lekin tanlagan g'oyasiga, ta'limotiga umrbod sodiq qolgan. Ixlosga amaliy intilish mavjudligi sababli u e'tiqodning yuzaga chiqib, amaliy faoliyatga aylanishiga xizmat qiladi.

G'oya yoki ta'limotga nisbatan irratsional ixlos puch xayolparasatlikka yoki tajovuzkor mutaassiblikka, fanatizmga olib keladi. G'oya, ta'limot taraqqiyat parvar bo'lsa, unga ixlos qilgan kishi faoliyati jamiyatga foya keltiradi. Aksincha, qoloq g'oyaga, xato ta'limotga ixlos qo'ygan kishi faoliyati amaliy samara bermaydi, odamlarga, jamiyatga zarar keltirishi mumkin. Agar xato g'oyaga xizmat qiladigan shaxs yuksak lavozimga yoki katta intellektual salohiyatga, kuchli irodaga ega bo'lsa, u

ko'plab odamlarni chalg'itadi, noto'g'ri yo'lga burib yuboradi, mamlakatga, jamiyatga katta zarar keltiradi.

Shaxsga ixlos qo'yish g'oyaga ixlos qo'yishdan ancha farq qiladi. U o'z mazmuniga ko'ra erkin (liberal) yoki avtoritar mazmunda bo'lishi mumkin. Avtoritar ixlos, oxir-oqibatda, shaxsga siginishga olib keladi. E'tiqod va tafakkur erkinligiga putur yetkazadi. Dogmatizmga, avtoritar shaxs qarashlarini dogmatlashtirishga yo'l ochadi. Avtoritar shaxs unga sig'inuvchi, og'zidan chiqadigan har bir so'zini birdan-bir haqiqat deb biladigan ixlosmandlarsiz shakllanmaydi. U ixlosmandlarsiz, nari borsa, odamlar miyig'ida kulib, jiddiy qabul qilmaydigan, o'ziga bino qo'ygan olifta, satang, kalondimog' shaxs bo'lib qolaveradi. Yevropaliklarning «Qirolni a'yonlari qirol qiladi» degan maqolida katta hikmat bor.

Samarali, xolis ixlos bilan boyigan ishonch axloqiylik kasb etadi. Ixlos butun e'tiqodga, ma'naviyatga ijobiy ma'nodagi axloqiy xis-hayajon, samimiylilik va ijtimoiy mo'ljal, maqsad baxsh etadi. Haqiqiy erkin ixlos insonni tarbiyalaydi: ijtimoiy mo'ljal sifatida uni takomillashishga, ma'lum bir marralarni egallahsga, o'zida muayyan xislatlarni shakllantirishga undaydi. Chunki erkin ixlos ibrat olishga, ixlos qo'ygan kishining yaxshi fazilatlariga havas qilishga, buyuk ajdodlariga, xalqiga, tarixiga munosib voris bo'lishga qaratilgan. Avtoritar ixlos esa biror shaxsga mute, qaram bo'lishga, ko'r-ko'rona taqlid qilishga, ixlos ob'ekti shaxsiga sig'inishga yoki o'z xalqini, ta-rixini biryoqlama baholashga, boshqa xalqlar va madaniyatlarga bepisand qarashga, millatchilikka, milliy manmanlikka xizmat qiladi.

Erkin ixlos e'tiqodning «insoniy» qiyofasini belgilovchi unsurlardan biri. Zero, erkin ixlos orqali e'tiqod milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy meros, ijodkor shaxslar, mutaffakirlar asarlari, ibratli hayoti hamda tarixiy voqealar bilan bog'lanadi, konkretlashadi, hayotiylashadi. Ixlos tufayli e'tikod aqliy hodisadan ko'ngil hodisasiga aylanib, individual shaklga ega bo'ladi, muayyan shaxs ongi va faoliyatining harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Ixlos insonning o'z maqsadiga erishish, aqlan va axloqan takomillashish, ijod qilish, yaratuvchilik faoliyati bilan shug'ullanish yo'lida juda katta hissiy rag'batdir.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, ixlos e'tiqodning ilm va ishonch kabi uzviy tarkibiy qismidir. U ishonchga nisbatan bir oz torroq, ammo undan ancha teranroq, e'tiqod mohiyatiga yaqinroqdir. Ixlos qotib qolgan tushuncha emas. Balki u ham ilm va ishonch kabi o'zgaradi, rivojlanadi. Ba'zan inson ixlos qo'ygan narsasidan ilmi kengayishi, chuqurlashishi natijasida yoki ishonchi oqlanmagani yoki boshqa sabablarga ko'ra, ko'ngli soviydi. Ba'zan esa, aksincha, insonning ixlosi yanada ortadi, kuchayadi. U ixlos ko'ygan narsasidan axloqiy tayanch topibgina qolmasdan, go'zallik va aqliy zavq-shavq tuyadi. Xis-hayajoni ehtirosga aylanadi. Bu ixlosning ishqqa aylanishidir.

Ishq ixlosning har tomonlama kuchaygan, kengaygan, ixlosga xos axloqiy his-hayajonga aqliy va estetik tuyg'ularni ham qo'shib insoniy ehtirosga muhabbatga, sevgiga, shu jumladan, diniy yoki g'oyaviy-siyosiy ehtirosga aylangan ko'rinishidir. Ishqda ehtiros kuchli bo'lganligi sababli unga ayrim hollarda teranlik yetishmasligi mumkin. Ammo aksincha ham bo'ladi, ishq insonning aqliy imkoniyatlarini, ijodkorlik salohiyatini maksimal ravishda yuzaga chiqaradi va e'tiqodga nihoyatda teranlik baxsh etadi.

Ishq ko'p hollarda maishiy (falonchiga oshiq bo'lish va sh.k.) yoki diniy-falsafiy (haqiqatga, haqqa intilish) mazmunlarida ishlatiladi. Maishiy tushunchadagi ishq haqida Alisher Navoiy shunday yozgan: «Avvalgi qism. Avom ishqidurkim, avom unnos orasida bu mashhur va shoe'durkim derlar: «Falon falonga oshiq bo'libdur». Va bu nav' kishi har nav kishig'a bo'lsa bo'lur, shag'ab va istiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati jismoniy emas va bu qismning biyikrak martabasi nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdir va mubah. Va pastroq martabasida va parishonliq va mushovvashliqlar va besomonliq va nohushliqlareki, zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab»⁸.

Mazmuni: birinchi qism - oddiy odamlar ishqni bo'lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir. Aytadilarki, «Falon odam falonchiga oshiq bo'libdi» - bu xildagi odamlar kimgadir oshiq bo'lib iztirob chekib, shuning xayoli bilan yurgaylar. Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliy

⁸ Alisher Navoiy. MAT, 14-jild. - T.: 1998. 67-68-betlar.

martabasi nikohdir. Nikoh - barcha xalqlar uchun umumiy va zaruriydir. Quyiroq martabasida janjal, tashvishlar, ko'ngilsizlik va sharmandaliklar ko'rindiki, bu haqda so'zlash — odobsizlik, bayon etish - hayosizlikdir.⁹ Tasavvuf talqinida ishq inson e'tiqodining mohiyatigina emas, inson hayoti ma'nosi va pirovard maqsadi hamdir. SHu bois ishq so'fiy uchun e'tiqodning oliy ko'rinishi, mukammal e'tiqod. Ishqning ushbu shaklini Alisher Navoiy «siddiqlar ishq» deb ataydi. Siddiqlar deganida u yuksak maqomga yetgan sufiylarni nazarda tutadi. Ularning qalblarida, fikru-zikrida Ollohdan, unga muhabbatdan o'zga hech narsa yo'q. Ular faqat Olloh ishq bilan yashaydilar, boshqa narsalar, hayot tashvishlari bilan qiziqmaydilar. Ishq turli mazmunlarda qo'llanilishi tabiiy. Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida uning uch qismi (ko'rinishi) borligini ta'kidlaydi. Yuqorida biz keltirgan ishqning ikki ko'rinishidan tashqari yana bir xilini - estetik, badiiy ijodga aloqador shaklini aytib o'tadi: «nazmtirozlar» va «afsonapardozlar» ishqni.

Ishq e'tiqodni nafaqat yanada faollashtiradi, xatti-harakatga, o'z maqsadiga, sevgan narsasiga yetishishga undaydi, shuningdek, uni o'z mohiyatiga yot ta'sirdan muhofaza ham qiladi. Chunki ishq murosa neligini bilmaydi. Ishq bilan yo'g'rilgan e'tiqod aql va ko'ngilni bir tomondan ziyrak qilsa, ikkinchi tomondan ko'r qilishi mumkin. Ishq tufayli e'tiqod negizida yotgan va ishonchga aylangan ilm yanada konkretlik, individuallik, to'laqonli ehtiroslilik kasb etadi. Ishqning faolligi, uning murosa bilmasligi, o'z maqsadiga ehtirosli intilishi bilangina chegaralanib qolmaydi. Ishq e'tiqodning ichki harakatlantiruvchi kuchi, energiyasidir. Ishqda ijodiy yaratuvchilik xususiyati mavjud. Bu, eng avvalo, ishqning idealni shakllantirishida ko'rindi.

Ishq ko'ngil ehtiroslarini yuzaga chiqarishga, avvalo o'z mahbubiga, qolaversa, boshqalarga yetkazishga ehtiyoj sezadi. Mahbubiga hamdu sanolar aytadi. Siddiqlar hamdu sanosi botiniy bo'lishi mumkin. Nazmtirozlar va afsonapardozlar ishqni go'zallikni kuylovchi g'azallar, qasidalar, she'riyatning boshqa janrlarida

⁹ Hozirgi adabiy tildagi talqini: *Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.* - T.: 1983. 51-52-betlar. (Inoyat Maxsumov nasriy bayoni bo'yicha berilmoqda.)

ifodalansa, oddiy oshiqning ishqisi oddiy so'zlarda va har xil maishiy shakllarda ifodalanadi. Kimdir mahbubasiga ehtirosli maktublar, bayram va har xil sanalar munosabati bilan tabriklar yozadi, gullar va boshqa sovg'alar bilan siy-laydi. Oshiqlik paytida ko'tarinki kayfiyatda qo'shiq hirgoyi qilib yuradi, ba'zilar hatto she'r to'qiysi va h.k. Tadqiqotchi olim ham faniga, o'rganayotgan mavzusiga, olg'a surgan g'oyasiga muhabbat va sodiqligi tufayli yillar davomida zahmat chekib ishlaydi, izlanadi, «igna bilan quduq qazadi». Qisqasi, hamma oshiqlarda ijodga rag'bat paydo bo'ladi. Ishq, shunday qilib, inson ma'naviy dunyosini boyitadi. Uni ma'naviyatni yaratuvchi ijodkor kuch, desak yanglishmaymiz. Ishqni ba'zan ma'naviyatning javhari deyishadi.

Ishqning muhim xususiyatlardan biri idealni shakllantirish, dedik. Ideal jamiyat rivojlanishi jarayonida qo'lga kiritiladigan yutuqlarning, ijtimoiy hodisalarning (jumladan, inson shaxsi takomillashuvining) erishish mumkin bo'lgan mukammal mazmuni va shakli haqidagi tasavvurlardir. Yoki narsalar va hodisalarning xayoldagi, tasavvurdagi eng mukammal, nuqson siz, aybsiz namunasidir. Inson qo'lga kiritilgan yutuqlarni, yaratgan narsalarni, ilmiy va badiiy ijodini (asarlarini) yashayotgan jamiyati va undagi tartib-qoidalarni doimo fikran muayyan ideallarga qiyoslaydi, mavjud holat bilan qonikmasdan, yanada takomillikka intiladi. O`zi ham bu jarayonda kamol topadi. Ushbu ma'noda ideal jamiyat va shaxsning o'sib borayotgan, yuksalayotgan ehtiyojlari va intilishlarini axloqda, huquqda, badiiy va ilmiy ijodda, ta'lim-tarbiyada, umuman turmushda ifodalaydigan, yuzaga chiqarishga qaratilgan eng yuksak, oliy ijtimoiy mo'ljallaridir. Shu boisdan u e'tiqodning unsuri. Idealsiz e'tiqod, binobarin, ma'naviyat yo'q.

Idealni mutlaqlashtirmaslik kerak. Aks holda u mavhum va nohayotiy, xayoliy hodisaga aylanadi. Ijtimoiy ideal konkret-tarixiy xarakterga ega. Uni mistiklashtirishning hech hojati yo'q. Xalq og'zaki ijodida Alpomish ideal qahramon, aql, fahm-farosat, jismoniy kamolot, mardlik, elparvarlik, vatanparvarlikning badiiy-epik namunasi. Alpomish mavhum g'oyalar, ideallar majmui emas, konkret ideallarni aks ettiruvchi jonli obraz. Navoiy uchun shunday

ideal - Farhod. U jismoniy va ma'naviy kamolotga erishgan oshik shaxs. Lekin Farhod obrazi murakkab axloqiy, sufiyona-diniy, ishqiy g'oyalarni, ularni mehnat orqali namoyon etishi «Dil bayor, dast bakor» g'oyasini, insoniy munosabatlarni aks ettirishiga ko'ra, Alpomish obraziga nisbatan ancha konkretdir. Oybek romanida esa Navoiyning o'zi - ideal obraz. Ayni paytda u real tarixiy shaxs, konkret inson obrazidir. Bu ideallarning birortasi mavhum tabiatga ega emas. Ular o'z davrning komil inson to'g'risidagi tasavvurlarini ifodalaydi. Har uchchala obraz o'z ehtiroslariga, maqsad va intilishlariga ega, jonli inson, fidoyilik, elga beg'araz xizmat qilish, o'z e'tiqodiga sodiqlik namu-nasi sifatida o'quvchi tomonidan qabul qilinadi.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirsak, e'tiqod tarkibi quyidagi qismlardan tashkil topadi: 1) ilm; 2) ishonch; 3) ixlos; 4) ishq; 5) ideal. Ular uzviy bog'liq, bir-biriga ta'sir ko'rsatadi, boyitadi va h.k. Ulardan har birining e'tiqod bilan munosabatlari qism va butunlik o'rtasidagi dialektik aloqalardir. Aynan ushbu tarkibiy qismlarning har biri tegishli vaziyatda butun e'tiqodning o'rmini bosishi mumkin. Aksincha, e'tiqod ulardan har birining bir bo'lagiga, qismiga aylanishi mumkin. Masalan, ilmnning bir bo'lagi sifatida ilmiy e'tiqod, ishqning (oshiqlikning) bir bo'lagi sifatida mahbubga e'tiqod, unga sodiqlik namoyon bo'ladi. Ilm e'tiqodga, e'tiqod ilmga yoki ishq e'tiqodga, e'tiqod ishqqa aylanishi to'g'risida ko'plab misollar keltirish mumkin.

E'tiqod tushunchasini tashkil etuvchi omillarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati. E'tiqod tushunchasi mazmun-mohiyatini to'la ochish uchun faqat uning tuzilmasini aniqlash va tahlil qilish yetarli emas. Amalda ilm-fan, falsafa, axloq, huquq, nafosat, din kabi ijtimoiy ongning barcha shakllariga oid kategoriylar va tushunchalarni jalb qilish lozim. Masalan, vatanparvarlik tushunchasini olaylik. Haqiqiy vatanparvar bo'lish uchun shaxs o'z ona tiliga, urf-odatlariga, madaniy merosiga, xalqi, mamlakati buguni va kelajagiga ishonch bilan qarashi, ularga ixlos qo'yishi, sevishi lozim. O`zining xudbin manfaatlarini el-ulus, Vatan manfaatlaridan ko'proq sevadigan kishi vatanparvar bo'lolmaydi. Yoki har qanday sharoitda ham Vatan manfaatlariga sodiq qolishga, og'ir zahmatdan, qiyinchiliklardan qo'rqib, fidoyilik ko'rsatishga irodasi va sadoqati yetmaydigan shaxs, u qanchalik keng

bilimli bo'lmasin, Vatanni sevishi haqida qanchalik ko'p gapirmasin, vatanparvar hisoblanishi mumkin emas.

Ayni paytda, Vatanga muhabbat ko'r-ko'rona bo'lsa, kutilgan samarani bermaydi. Vatan ishqisi shaxsning tanqidiy mulohaza yuritishini, mamlakati, xalqi kamchiliklarini bartaraf etishga, milliy qadriyatlarini takomillashtirishga intilishini to'sib qo'ymasligi kerak.

Ba'zan shunday kishilar uchraydiki, ular o'tmish bilan bir qatorda xalqimizning urf-odatlari, qarashlari, maishiy turmushini ham ideallashtiradi. Biror kamchilik haqida gapirgan kishini vatanparvarlik yetishmaslikda ayblaydi. Ular faqat o'zlarini haqiqiy vatanparvar, deb hisoblaydi. Hatto o'zlariga nisbatan millatparast degan tushunchani qo'llaydi. Go'yoki millatparvar, xalqparvar degan tushunchalar ularning xalqqa nisbatan o'ta muhabbatini, fidoyiligini to'liq ifodalay olmaydi. Aslida bu manmanlikning, o'zini ko'z-ko'z qilishning bir ko'rinishidan boshqa narsa emas.

Millatparast tushunchasi mazmuni haqida ikki og'iz fikr bildirish zarur. «Parast» forscha so'z yasovchi qo'shimcha. U salbiy mazmunda ishlatiladi. Masalan, otashparast (o'tga sig'inuvchi), molparast (ziqna, xasis, boylik yig'uvchi va h.k.), butparast (butlarga, sanamlarga sig'inuvchi), amalparast kabi tushunchalar mazmuni buni ko'rsatib turibdi. Shu sababdan millatparast emas, millatparvar bo'lish lozim. Millatparast xalqidagi mavjud kamchiliklarni ko'rolmaydi, uni ideallashtiradi. Aslida esa u ko'proq o'zini o'ylaydi. Xalq manfaatlari haqida og'iz ko'pirtirib, soxta obro' orttirgisi, biror lavozimga ilashgisi keladi. Millatparastni shuhratparast va mansabparast desa, to'g'riroq bo'ladi. Urf-odatlarimiz, milliy psixologiyamiz va mentalitetimizga xos ba'zi bir kamchiliklarni xolis baholab, ulardan qutilmasak, taraqqiyotda yuksak sur'atlarga erisha olmaymiz. Ayniqsa, mahalliychilik, guruhbozlik, urug'-aymoqchilik, sovg'a-salom, pora yordamida ishini bitkazib olishga urinish, tanish-bilishchilikni ba'zan jamiyat va davlat manfaatlaridan ustun qo'yish hamda ko'plab ko'zga tashlanmaydigan boshqa mayda-chuyda kamchiliklar jamiyat, Vatan taraqqiyoti uchun ancha xavflidir.

Taraqqiy etishni istagan jamiyat nafaqat alohida insonni, shuningdek, butun millatni tarbiyalab borishni unutmasligi zarur. Haqiqiy vatanparvar bo'lganligi hech qanday shubha uyg'otmaydigan jadidlarning ilg'orlari millat tarbiyasi, uning e'tiqodini yuksaltirish, ilm olishi, yangi yuksak g'oyalarga, ideallarga ixlos qilishi, intilishi, erk va ozodlikka ishq qo'yishi to'g'risida qayg'urganlar. Ular faqat yangi usuldagagi maktablar tashkil etish, ta'limni isloh qilish bilan cheklanmagan. Ular xalqni uyg'otishga, yuksaltirishga, yangicha fikrlashga o'rgatadigan, yangicha axloqiy va estetik me'yorlarni xalq ongiga singdirishga, eskicha qoloq qarashlardan, kamchiliklardan qutilishga yordam beradigan milliy matbuotga, teatrga, dramaturgiyaga, publitsistikaga, adabiyotning yangi janrlari - zamonaviy roman, qissa, barmoq vaznida yoziladigan she'riyatga asos soldilar. Ular mustamlakachilik sharoitida ta'limni tarbiyalovchi ta'limga aylantirishga urindilar. Behbudi, Fitrat, Munavvarqori, Abdulla Qodiriy, CHo'lpon va boshqa ko'plab atoqli jadidlar ijodi va faoliyati buning isbotidir. Abdulla Avloniying «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot...» so'zlaridan boshlanuvchi fikri jadidlarning ushbu masalaga bo'lgan munosabatining yorqin ifodasidir.

Tarbiya esa faqatgina yangi xislatlarni shakllantirib qolmasdan, qoloq illatlardan, kamchiliklardan xalos bo'lish maqsadini ham ko'zlamog'i lozim. Lekin millat tarbiyasi oson ish emas. Eng avvalo, millat tarbiyasi tushunchasi mazmunini va metodologiyasini aniqlab olish kerak. Aks holda demagogiya, safsatabozlik, nasihatbozlik, yoki odamlarning «miyasini yuvish», har qanday original va keskin ifodalangan fikrdan cho'chish, ichki senzorni va ijtimoiy qo'rquvni tiklash, boshqacha fikrlaydiganlarning ovozini bo'g'ishga intilish yana tirilganini sezmay qolamiz. Millat tarbiyasi bahonasida tasviriy san'atni siyosiy va ijtimoiy plakatlar darajasiga, badiiy adabiyotni targ'ibot va didaktik pandnomalar darajasiga tushirmaslik, ijodkorlarga falon mavzuda asar yaratishni tavsiya qilmaslik kerak. Shundoq ham tez-tez zamonamiz qahramoni obrazini yaratishga da'vatlar qulopqa chalinib turadi. Bu, aslida, sotsialistik realizmdan qolgan illatdir.

Millat tarbiyasi vatanparvarlikni mustahkamlashning, milliy g'oyani amalga oshirib, yuksak marralarni egallahning muhim sharti va vositasidir. Millat

rahnamlari, ziyolilari, yoshlari mamlakat ahvolini yuksak ideallar bilan taqqoslab idrok egalarigina, uning kelajagini ularga moslab yaratishga harakat qilsalargina, vatanparvarlik samara beradigan e'tiqod darajasiga ko'tariladi. Biz milliy ma'naviyatimizni yuksaltirmoqchi ekanmiz, e'tiqod masalalariga jiddiy e'tibor bermog'imiz, ta'lim-tarbiya jarayonida uning unsurlari va tarkibiy qismlari uyg'un shakllanishiga erishmog'imiz lozim. Yuqorida vatanparvarlikni to'g'ri tushunish va tarbiyalashning e'tiqod bilan bog'liq jihatlari to'g'risida umumiy tarzda fikr yuritildi. Burch, vijdon, halollik, ezgulik, go'zallik,adolat, teng huquqiylik va boshqa barcha muhim axloqiy, estetik, huquqiy, siyosiy tushunchalar, kategoriyalarni, umuman, ijtimoiy va ma'naviy yuksalishni e'tiqod bilan bog'liqlik tomonlarini tahlil qilish mumkin va joiz.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Demokratik e'tiqod o`zi nima?
2. Millat tarbiyasi?
3. Millatparast tushunchasi ?
4. E'tiqod tushunchasini tashkil etuvchi omillarning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati?
5. E'tiqod tuzilmasining boshqa unsurlari?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2018. - 480 b.
5. Qosimon B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011.
6. Yusupov E. Xadislarda dunyoviy va diniy g'oyalarning bog'liqligi. - «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 1994, 5-sont.

3-MAVZU: OMMAVIY MADANIYAT VA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI.

Reja:

- 1.** Ommaviy madaniyat: kelib chiqishi va shakllanishi.
- 2.** Ommaviy madaniyatning xususiyatlari.
- 3.** Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatiga ta'siri.
- 4.** Yuksak va ommaviy madaniyatlar diffuziyasi va interferensiyasi.

Ommaviy madaniyatiing ijtimoiy funksiyalari. Amerikalik olimlar zamonaviy ommaviy madaniyatning asosiy «oqllovchi»laridir (albatta, amerikaliklar orasida tanqid qiluvchilar ham bor). Ular hatto ommaviy madaniyat aslida amerikancha hodisadir, deyishadi (Z.Bjezinskiy). Yevropalik olimlar go'yoki ularga qo'shilgandek bo'ladi. Chunki AQSHda hech qachon aristokratlar madaniyati bo'lмаган, elitar madaniyat o'z ildizlariga ega emas, AQSH mustaqillikka erishgandan boshlab erkin raqobat va iste'molchilik tamoyillari asosida rivojlangan, deb hisoblashadi. Bu fikrlarda jon bor. Zikr etilganlarga yana shuni qo'shimcha qilish zarurki, Yevropadagi keskin sinfiy kurashlar hamda Birinchi va Ikkinci jahon urushlarining vayrongarchiliklari, ularga barham berishga katta vaqt va ulkan mablag'lar sarflangani, aholining bu davrda qashshoqlanib qolib, xarid qobiliyati pasayib ketgani iste'molchilikka asoslangan ommaviy jamlyat to'liq shakllanishini AQSHga qaraganda ancha ortga surdi. Aksincha, ommaviy ishlab chiqariladigan narxi arzon amerikancha ko'ngilochar madaniy mahsulotlarga talabni oshirdi. Bu davrda Yevropaliklar topgan mablag'ning asosiy qismini shahar va qishloqlarni, zavod va fabrikalarni tiklashga yo'naltirar, madaniyatga, adabiyot va san'at rivojlanishiga ajratiladigan mablaglar hajmi cheklangan edi. Gollivudd (AQSH kinostudiyalari aksariyati joylashgan shahar) esa yiliga bir necha yuz filmlar (keyinchalik mingdan ortiq)yaratildi.

Urushlardan keyin ruhan majruh va jisman toliqqan, ochyupun,baxtiqaro, yaqinlaridan ayrilgan odamlarga go'zal orzu-havaslarga to'la, xayoliy baxt-li turmushni ko'rsatuvchi, sevgi-muhabbatni kuylovchi asarlar zarur edi. Urush vayrongarchiliklari va asoratlarini bartaraf etish bilan ovora Yevropa bunday mahsulotlarni etarli miqdorda ishlab chiqara olmasdi. Amerika ommaviy madaniyati bechora Yevropaliklar qalbiga go'yoki «malham» bo'ldi, dinga o'xshab ruhiy kompensatorlik vazifasini bajardi, ularni ovutdi, xayolot dunyosiga g'arq ettirib, turmush tashvishlaridan chalg'itdi, qalbida umid uchqunlarini chaqnatdi. Asta-sekin aksariyat olimlar, tanqidchilar o'rtaida ham ommaviy madaniyatga munosabat ijobiy tomonga siljiy boshladi. O'tgan asrning 70-yillaridan ommaviy madaniyatni oqlash butun G'arbda, jumladan, Yevropada ham kuchaydi. Bu davrga kelib Yevropa o'zini allaqachon to'liq tiklab olgan (50-yillar o'rtalarida) va ommaviy jamiyatga to'liq o'tib bo'lgan edi.

Ammo Ikkinci jahon urushidan keyin XX asrning 50-yillaridan Yevropada ommaviy madaniyatini liberal gumanizm nuqtai nazaridan keskin tanqid qilish boshlandi (Fromm, Xorkxaymer, Adorno, Ben'jamin, Moran, Veblen, Rismen, Markuze va boshqalar). Bu Yevropa ilmiy an'analariga, aholisi psixologiyasiga mos edi. Chunki Yevropada bir yarim asr ilgari XVIII asr oxirlaridan burjua jamiyatini, u bilan bog'liq ijtimoiy hodisalarini, inson ekspluatatsiyasini tanqid qilish ilg'or ziyorilar orasida keng tarqalgan edi. XIX asr davomida badiiy adabiyotda va san'atda, ijtimoiy-siyosiy fanlarda kapitalistik jamiyat illatlari ayovsiz fosh etildi. Hatto XIX asr adabiyotining etakchi badiiy usuli tanqidiy realizm, deb ataladi.

Yevropaning aksariyat ijodkor ziyorilari ishchilar va xalq ommasining inqilobiy kurashiga xayrixoh edi. Ular ezbilik, insonparvarlik va adolat tuyg'ularidan kelib chiqib, ezilgan va jabrdiyda xalq tomonida turardi.

XIX asr ijodkorlari sotsialistik ta'limotlardan ancha-muncha xabardor edilar. Bu ta'limotlardan ayrim radikal (anarxistik, kommunistik va sotsial-demokratik)

xarakterdagilari ularni cho‘chitsada, utopik va mo‘tadil mazmundagilari ularda xayrixohlik uyg‘otgandi.

XX asr o‘rtalariga kelib tanqidiy ruh va munosabat, mafkuraviy plyuralizm, muqobililik va muxoliflik Yevropa ijtimoiy fikrining ajralmas bo‘lagiga aylangan edi. XX asr Yevropalik liberal gumanistlarining ko‘pchiligi, ayniqsa, birinchi avlodi yoshlik yillari marksizmning ma’lum darajada ta’sirida bo‘lib ulgurgan edi. Misol tariqasida Maks Veber kabi atoqli nemis sotsiologini, yoki Frankfurt maktabi vakillarini keltirish mumkin.

Liberal gumanistlar ommaviy madaniyatni aholi ongini boshqarish, shaxsni ma’naviy qaramlikda saqlash, odamlarni o‘zaro begonalashtirish, zulm o‘tkazish vositasi, deya baholadi. Ularni qo‘llab-quvvatlovchilar turli ilmiy yo‘nalishlarga oid olimlar orasida kam emas edi. Xozir ham bu fikrlarni qo‘llab-quvvatlovchi tanqidchilar oz emas. SHu o‘rinda ularning ayrim baholarini eslash maqsadga muvofiq: sarob baxt mafkurasi (Moran), shaxs harakatini tashqaridan boshqarish (Rismen), «bir o‘lchovli inson»ni shakllantirish (Markuze), erzatstuyg‘ularning (yasama, soxta tuyg‘ularning) maftunkor olami (Veblen), bir tusli kiyimdag‘i, birlashgan va bixillashtiruvchi, tez almashinadigan tuzilma (Kornxauzer), begonalashuvning odmi kompensatsiyasi (Fromm), «ommaviy» insonni standartlashtirish va konformlashtirish, ya’ni mavjud tuzumga nisbatan norozilik tuygusidan mahrum etish (Mills), klipmadaniyat (Toffler).

Ommaviy axborot vositalari inson ma’naviyatiga ta’siri. Hali internet tarmog‘i, zamonaviy DVD, «uyali» aloqa va ba’zi axborot texnologiyalari kashf etilmagan 60-yillarda fransuz sotsiologi A.Mol bunday deb yoz-gan edi: «Bugun oddiy ishchi aqlini «to‘ldirish»da uning metro afishasida o‘qigani, radiodan tinglagani, kino yoki televizorda ko‘rgani, ishga ketayotganda gazetada ko‘zi tushgan axborot yoki hamkasblari, qo‘ni-qo‘shnilaridan eshitgani ko‘proq rol o‘ynaydi; mashtabdan esa yarim-unut bo‘lgan tushunchalar qoladi, xolos»¹⁰. Endilikdachi? Kompyuter va internet zamonida internet yordamida aholi ongini boshqarish, «ma’qul bo‘lman» mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarish, hatto rangli inqiloblar

¹⁰ A. Molb. Sotsiodinamika kul’turi. - M.: 1973. 45-6.

va davlat to‘ntarishlari qilish imkoniyatlari paydo bo‘ldi. Buni 2011 yili qator arab davlatlarida yuz bergen voqealar tasdiqlaydi. O‘sanda Internet orqali g‘alayonchilarning harakatlari muvofiqlashtirilgan edi.¹¹ «Bizning davrimizda bilimlar asosan ta’lim tizimi orqali emas, balki OAV orqali shakllanadi», deganida A.Mol haq edi. Bunga qo‘srimcha qilib «ongi ham boshqariladi» deyish mumkin.

60-yillarning ikkinchi yarmi va 70-yillardan boshlab G‘arb Yoshlarining «ikkiyuzlamachi» burjua madaniyatiga qarshi noroziligin, o‘ziga xos isyonkorligini ifodalovchi submadaniyat yuzaga keldi. Unga G‘arb olimlari «kontrkul’tura» («qarshimadaniyat») degan nom berdi. Qarshimadaniyat AQSHda ko‘proq Vietnam urushiga, irqiy notenglikka, odamlarning o‘zaro begonalashuviga, byurokratizmga qarshi yo‘naltirilgan edi. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida esa u burjua axloqining, oila va nikoh me’yorlarining «ikkiyuzlamachiligi»ga, erkin jinsiy aloqalarning taqiqanishiga, molparastlik va hashamatli boy turmush tarziga hamda davlat siyosatidagi ikki xil standartlarga qarshi qaratildi. 1968-yilda yuz bergen talabalar g‘alayoni oqibatida Fransiya prezidenti de Gol istefoga chiqishga (1969) majbur bo‘ldi.

Yoshlar norozilik harakatining o‘z nazariyachilari, taqlid uchun namunaga aylangan «dohiy»lari bor edi. Biz yuqorida nomlarini tilga olgan Ch.Mills, T.Adorno, G.Markuze, Yu.Xabermas kabi faylasuf va sotsiologlar shunday nazariyachilar edi. Olimlarning fikricha, postindustrial jamiyat marksistik tushunchadagi sinfiy kurashlar, sinfiy inqiloblarni inkor qiladi. Endi jamiyatning asosiy inqilobiy kuchi proletariat emas, balki lyumpenlar, turli marginal qatlamlar, ayniqsa, oshlardir, degan goyalarni olg‘a suruvchi «yangi so‘llar» to‘grisidagi ta’limotni yaratishga urindilar.

Fransiyada chiqadigan «Tel-kel» jurnali va Yoshlarga mo‘ljallangan boshqa nashrlarning mualliflari ularga qo‘silib, haqiqatan, hozirgi sharoitda jamiyatni inqilobiy yangilovchi kuch bu Yoshlardir, endi an’anaviy tushunchadagi siyosiy inqiloblar davri o‘tdi, degan fikrni olg‘a surdi. Siyosiy inqiloblar o‘rnini barcha sohalarda, tilda, insonlararo munosabatda, badiiy tasvir va ifoda vositalarida, ko‘ngilxushlikda va hokazolarda ongli ravishda amalga oshiriladigan inqiloblar

¹¹ O‘sha asar, 45-6.

yasash egallashi kerak, mavjud me'yorlar va qoidalardan voz kechish lozim. Yoshlar o‘z g‘oyaviy rahnamolari sifatida siyosiy ekstremizm nazariyachisi fransuz R.Dubre va siyosiy zo‘ravonlikni birdan-bir maqsad, deb e’lon qilgan F.Fanonni tan oldi.

Odatdagidek, nazariyachilar olga surgan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-estetik g‘oyalar amaliyotchilar tomonidan yanada buzib talqin etildi, mavjud tuzumni va barcha an'anaviy qadriyatlarni to‘liq inkor etib, tugal nigelizmga va bema’nilikka aylandi. Ular insoniy, axloqiy, ayniqsa, seksual inqilob yasash, Yoshlarning turli xil kommunalarini yaratish, narkomaniyani yoyish «burjua dunyoqarashi, ongi»ni engishning, insonga haqiqiy erkinlik ato etishning asosiy yo‘lidir, deya Yoshlarni chalg‘itdi.

Fidel Kastroning yaqin safdoshi, Kuba inqilobining dohiylaridan biri, asli argentinalik Che Gevara «inqilobiy Yoshlar»ning ramziy idealiga aylandi. Yoshlar, talabalar g‘alayonlarining ishtirokchilari Che Gevara surati tushirilgan «futbolka»larni kiyib olib ko‘chalarda ommaviy tartibsizlikni boshladi. G‘alayonlar tingach esa norozilik boshqacha ko‘rinishlarda davom etdi. 60-yillar oxirida «xippi», 70-yillarda «panklar» harakati vujudga keldi; ushbu fenomen 80-yillar oxirida bir muddat yana jonlandi. Ular har qanday axloqiy me’yorlarni, hatto gigienik qoidalarni rad etib, go‘yoki «tabiiy» hayot kechira boshladilar. Oqibatda, qarshimadaniyat (kontrkultura) aksilmadaniyatga (antikulturaga) aylandi. Aksilmadaniyat unsurlari ommaviy madaniyatga ta’sir ko‘rsatdi, chunki shahvoniy sahnalarni va shu kabi insonning hayvoniy tabiatini ochiq ko‘rsatadigan kino, video va bosma mahsulotlar legallahib oldi va egalariga katta daromad keltira boshladi. «Seksual inqilob», oxir-oqibatda, guruhiy nikohga asoslangan «shvedcha oilalar» va bir jinsli nikohlarga asoslangan oilalar paydo bo‘lishiga, geyparadlar va shu kabi hodisalarga yo‘l ochdi.

Qarshimadaniyat va aksilmadaniyatning ijobiy mazmundagi madaniyatga, jumladan, ommaviy madaniyatga bevosita aloqasi yo‘q. Aslida ular G‘arb jamiyatining ma’naviy inqiroziga tajribasiz Yoshlarning g‘o‘rlarcha noadekvat noroziligi natijasidir. Uni madaniyatlar interferensiyasi, ya’ni bir-biriga so‘ndiruvchi ta’sir ko‘rsatish tendensiyasi sifatida baholash mumkin. Qarshimadaniyat va

aksilmadaniyat bugun tarix sahnasidan tushib ketdi. Boshqacha bo‘lishi mumkin emas edi. Ammo ularning ba’zi unsurlaridan boylik orttirish ilinjida bo‘lgan korchalonlar hamon foydalanmoqda. G‘arb mamlakatlari yirik shaharlarida seksshoplar, toplesbarlar, striptizklublar (shu jumladan ayollar uchun), geyklublar ancha ildiz otib ketdi. Pornoindustriya vujudga keldi. Ularning ommaviy madaniyatga bevosita aloqasi yo‘qligini yana bir bor eslatmoqchimiz. Ular ommaviy madaniyatni o‘ziga niqob qilib olganlar, xolos.

Ommaviy madaniyat to‘g’risida Yevropa olimlarining qarashlari. Bugun ommaviy madaniyatning globallashuv tendensiyasi kuchayib, butun dunyoda, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda «madaniy mustamlakachilik» funksiyasi ortib bormoqda. Amerikancha ommaviy madaniyatning xalqaro vazifasi sifatida buni Z.Bjezinskiy ham qayd etadi. Olimning fikricha, amerikancha ommaviy madaniyatni jozibador qiladigan omillar uning demokratizmi va ijtimoiy tenglikni ifodalashidir. Bu madaniyatni to‘xtatishning iloji yo‘q, u butun jahon bo‘ylab tarqalmoqda va amerikancha turmush tarzining, demokratik g‘oyalarning ustunligini go‘yoki «tasdiqlamoqda». 3.Bjezinskiy mulohazalaridan ko‘rinib turibdiki, ommaviy madaniyat G‘arb, birinchi navbatda, AQSH manfaatlarini ifodalaydi va o‘ziga xos «madaniy bosqinchilik»ni amalga oshiradi. Amalda shunday bo‘lmokda. Hatto Yevropa mam lakatlari olimlari va siyosatchilari bundan tashvishga tushib qoldi. Yevropa mamlakatlarida namoyish etilayotgan filmlarning uchdan ikki qismi Golivudda ishlab chiqarilgan. Ba’zi mamlakatlarda amerika filmlari 80-85 foiz ekran vaqtini egallab olgan.

Biroq ommaviy madaniyatga biryoqlama yondashmaslik darkor. Unda kamchiliklardan tashqari, ijobiy jihatlar bor. Hozirgi zamon sharoitida u bir qator ijtimoiy vazifalarni ado etadiki, bu uning madaniy hayotda etakchilik qilishini, asosiy rol o‘ynashini, universal ijtimoiy hodisaga aylanishini belgilaydi.A.Kostinailm-fandagi mavjud fikrlarni umumlashtirib, ommaviy madaniyatning quyidagi funksiyalarini alohida ajratib ko‘rsatadi:

- a) odamlarni jamiyat talablariga, turmush tarziga, mavjud voqelikka moslashtirish, ya’ni adaptatsion funksiya yaratish;

- b) illyuziyalar (xayoliy orzular) makoniniyaratish;
- c) himoyalash va rekreatsion (hordig‘ini chiqarish va o‘yin bilan band qilish) mexanizmini yaratish;
- d) iste’molchilik mafkurasini shakllantirish tizimini yaratish.

Ularning har birini alohida tahlil qilib o‘tirmaymiz, chunki bu ko‘p vaqtini va joyni egallaydi, shu bois alohida suhbatni talab qiladi. Biz ular haqda o‘rniga qarab, qisqacha fikr bildirish bilan cheklanamiz. Qolaversa, ommaviy madaniyatning adaptatsion va illyuziyalar (xayolot) olamini yaratib, kompensatorlik vazifasini bajarishi to‘grisida yuqorida qisman gapirildi. Uquvchining o‘zi ularni hayotiy tajribasi va shaxsiy kuzatishlaridan kelib chiqib yanada to‘ldirishi va rivojlatirishi mumkin.

Ommaviy madaniyatning ko‘plab boshqa, konkret funksiyalari ham bor. Ularning har biri to‘grisida ancha fikr yuritish, turli vaziyatlarda turlicha namoyon bo‘lishi, in-son va jamiyatga ta’sir ko‘rsatishini olib berish mumkin. Ba’zi hollarda jamiyatda qanday qilib sun’iy ravishda ommaviy psixozlar, har xil ksenofobiylar OAV va siyosiy texnologiyalar orqali vujudga keltirilishi haqida gapirish mumkin. Lekin biz yuqorida aytilganlar bilan cheklanib, faqat bir narsani qo‘srimcha qilmoqchimiz: za-monaviy axborot texnologiyalari shu darajada rivojlanib ketdiki, hatto xavfsizlik xizmatlari dunyo miqyosid nafaqat davlatlarni hatto aholini ham yoppasiga nazorat qilish, odamlarning xususiy hayoti va muloqotlarini kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. 2013- yil iyun oyida AQSH maxsus xizmati vakili Edvard Snouden butun dunyoni bu haqda ogohlantirib, AQSH maxsus xizmatlarini bunday ish bilan shug‘ullanayotganini fosh etganini eslash kifoya. Demak, zamonaviy ommaviy madaniyatning odamlar ongi bilan manipulyasiya qilishi, uni boshqarishi yangi texnik imkoniyatlar va vositalar bilan boyimoqda. Ma’lum bo‘lmoqdaki, kutish rejimidagi televizorlari orqali, ya’ni rozetkadan uzilmagan televizorlardan, xonadagi gapso‘zlarni eshitish va ko‘rib turish mumkin ekan.

Zamonaviy sivilizatsiyaning texnik qulayliklaridan voz kechib bo‘lmasanidek, u yaratgan ommaviy madaniyatning ko‘pchilik turlaridan va mahsulotlaridan voz kechib bo‘lmaydi, albatta. Biroq ushbu madaniyatning ba’zi ko‘rinishlari, qimor yoki narkotiklar kabi, insonning ma’naviy dunyosini emirishga

qodirligini, ayniqsa, yosh bolalar va o'smirlar psixologiyasiga juda tez ta'sir ko'rsatishini unutmasligimiz kerak. Bugun ko'cha-ko'yda qulog'iga «uyali» telefonning «shnur»ini takib olib, musiqa tinglab ketayotgan yoki jamoat transportida, turli rasmiy va norasmiy tadbirdarda smartfoni orqali internetda nimanidir ko'rayotgan, elektron o'yin o'ynayot-gan Yoshlarni har qadamda uchratish mumkin. Kompyuter o'yinlariga o'r ganib, uning bandisiga aylanib qolganlar bolalar o'rtasida anchagina topiladi. Chet ellarda hatto kompyuterga tobelik kasallik sifatida davolanmoqda. Bizda ham musiqa bandiligi, kompyuter bandiligi dardiga duchor bo'lgan Yoshlar soni yildan-yilga ko'paymoqda. Hatto dars payti ayrim o'quvchilar, ba'zi talabalar jimgina qulogiga «shnur» tiqib musiqa tinglayotganiga yoki «uyali» telefoni yordamida elektron o'yinlar bilan mashg'ulligiga guvoh bo'lasiz.

Yozma adabiyot, badiiy saviyasidan qat'i nazar, bir vaqtlar faqat elitar madaniyatga mansub hisoblangan. Bugun esa yozma adabiyotni ham, kinosan'atini ham yuksak va ommaviy madaniyatlarga birdek daxldor ijod turlari deyish mumkin. Har bir badiiy asarning inson ma'naviyatiga ta'siri uning yuksak yoki ommaviy madaniyatga mansubligi bilan belgilanadi.

Aksariyat zamonaviy detektiv, fantastik va sarguzasht janrlarga oid asarlar katta badiiy-estetik qimmatga ega emas. Ular o'quvchilarning «badiiy axborot»ga nisbatan ma'lum ehtiyojini qondirishga, dam oldirib, vaqtini xushlashga mo'ljallangan iste'mol tovarlaridir, xolos. Bu ayniqsa, aksariyat kino va telefilmlarga taalluqli. Vampirlar, har xil dahshatli maxluqlar (monstrlar), manyaklar, qotillar, adashib, ekstremal holatlarga tushib qolgan sayohatchilar taqdiri va kurashi, giyohvand moddalar etishtiruvchi guruhlar jinoyati va h.k.larni ko'rsatuvchi filmlar ommaviy madaniyatning tipik mahsulotlaridir. Ular inson didini, ma'naviy ehtiyojlarini o'ziga to'liq buysundirib olishi hech gap emas. Jangari filmlarni, yakkama-yakka kurashlar, ayovsiz mushtlashishlarni ekranda ko'rib ulg'aygan ayrim Yoshlar hatto televideniya olib ko'rsatayotgan boks bo'yicha jahon va qit'a birinchiligi musobaqalarini, professionallarning championlik jangini tomosha qilishdan zerikadi. CHunki real sport musobaqalarida, jangari filmlardagidek, fantastik zARBALAR, beshafqatlik, noinsoniy

og‘riqqa bardosh berish va boshqa mubolag‘aviy ko‘zbo‘yamachiliklar, g‘ayritabiiylik yo‘q.

Chet ellarda zamonaviy agressiv kompyuter o‘yinlar ta’sirida ruhiyati emirilgan ayrim o‘smirlar maktabda o‘z sinfdoshlari va o‘qituvchilariga avtomatik qu-rollardan o‘t ochib, qotillik qilganliklari to‘g‘risida ma’lumotlar bot-bot tarqalib turadi. Biroq ommaviy madaniyatni faqat jangari filmlar, rok muzika yoki kompyuter o‘yinlarigina tashkil etmaydi. U juda rang-barang va sertarmoq soha. Ko‘pchilikda ommaviy madaniyat agressivlikni emas, balki real hayotga befarqlikni, loqaydlikni, ma’naviy infantillikni tarbiyalaydi, ya’ni ulg‘ayganda ham ularda balog‘atga etmagan yosh bolaga xos ruhiy kamchiliklar saqlanib qolishiga, mas’uliyat va mustaqillik tuyg‘usi yetarlicha shakllanmasligiga sabab bo‘ladi. Bundaylarning hayotiy tutumi «Sen menga tegma, men senga tegmayman. Men bilan ishing bo‘lmasin. Menga shunday hayot yoqadi» kabi tamoyillardan tashkil topgan.

Ommaviy madaniyat ijtimoiy-ma’naviy loqaydlik qatorida milliy urf-odatlar, an’analar, milliy madaniyat, yanada kengroq qaralsa, milliy manfaatlarga nisbatan befarqlikni zimdan shakllantira boradi. Vatanparvarlik, faol fuqarolik, xalqchilik va milliy o‘zlik tuyg‘ulari kishida zaiflashib ketadi. U o‘zini, nari borsa, dunyo fuqarosi, butun insoniyat farzandi deb hisoblay boshlaydi, amalda ko‘pincha bunday o‘yfikrlar ham unga yot bo‘ladi.

U endi infantil, konformist, befarq va loqayd, shijoati, tashabbusi so‘ngan. Hayot oqimi qayoqqa boshlasa, shunga ergashadi. Ijtimoiy holatini o‘zgartirishga intilmaydi, oldiga arzigulik maqsadlarni qo‘ymaydi. SHunday qilib, ommaviy madaniyat insonni haqiqiy, real voqelikdan, hayotning real muammolaridan chalg‘itadi. Hayotini, turmushini sun’iylashtiradi, vertuallashtiradi. Bu shaxslararo munosabatlarga ham taalluqli. Begonalashish kuchayib, do‘slik, ulfatchilik, jonli muloqot odamlar o‘rtasida, birinchi galda Yoshlar o‘rtasida kamayib borayotir. Muloqot makoni endi internet. O‘zini, o‘zligini namoyon etish internetdagi har xil ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladi. Lekin,adolat yuzasidan qayd etish lozimki, ijtimoiy tarmoqlarni ham biryoqlama baholash nojoiz. Ijtimoiy tarmoqlar ba’zan odamlarning o‘z

qarashlarini bayon etish, muloqot doirasini kengaytirish borasida ancha ijobiy mazmun kasb etishi mumkin. Bu ulardan foydalanadigan kishining saviyasiga va ijtimoiy mo‘ljallariga bog‘liq.

Xullas, ommaviy madaniyat ko‘plab kishilar hayotida real voqelikni siqib chiqarib, uni virtual voqelik, virtual muloqot bilan almashtirmokda. Ommaviy madaniyatning inson hayoti va ma’naviyatiga ziddiyatli ta’sirini unutmasligimiz, uning salbiy jihatlarini imkon qadar minimallashtirish choralarini ko‘rmog‘imiz lozim. Yoshlarni kitob o‘qishga qayta o‘rgatmoq, mumtoz va zamonaviy yuksak san’at asarlariga qiziqtirmoq, estetik va axloqiy tarbiya saviyasini ko‘tarmoq kerak.

Bolalar adabiyotiga, umuman, bolalar uchun mo‘ljallangan musiqa, ashula, teatr, kino asarlari yaratishga e’tibor kuchaytirilishi, jamiyatda bunday asarlarni yaratuvchilar uchun puxta o‘ylangan rag‘batlantirish tizimi ishlab chiqilishi kerak. Zamonaviy ruxdagi milliy kino va teleseriallar yaratish, tariximizni, mumtoz san’atimiz va madaniyatimizni qayta anglab olishga yordam beradigan asarlar to‘g‘risida bosh qotirish lozim. Ikkinchidan, ertalabdan kechgacha, kundan kun, oydan oy faqat ijtimoiy mavzularga oid asarlar televidenya orqali namoyish qilinsa, odamlarning me’dasiga tegib qoladi, odamlar ularni qabul qilmay qo‘yadi. Sovet davrining bu boradagi saboqlarini unutmaslik kerak.

Odamlarga yengil-yelpihajviy asarlar ham, ko‘z yoshini oqizadigan melodramalar ham, sarguzasht va jangari filmlar ham, hatto dahshatli qo‘rqinchli trillerlar ham kerak. Bejiz xalq og‘zaki ijodi asarlarida jinlar, devlar, ajdaholar, yalmog‘izlar, alvastilar obrazlari, ulardan qahramonning qochib qutilishi, qarshi kurashi, g‘alabasi tasvirlanmaydi. Bunday asarlar odamlarga g‘ayritabiyy kuchlardan qo‘rquvni engishda, asablarini va irodasini chiniqtirishda yordam bergen. Hozir ham bunday asarlarga ehtiyoj bor. Endi uni folklor emas, ommaviy madaniyat qondiradi. Odamlar charchagan jismi va asablarini dam oldirishlari, tiklashlari kerak. yengil-yelpi asarlar kattalar uchun ma’lum darajada o‘yin o‘rnini bosadi. Dam berish va o‘yin bilan mashg‘ul etish ommaviy madaniyatning rekreatsion (tiklash) vazifasidir.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Ommaviy madaniyat: kelib chiqishi va shakllanishi?
2. Ommaviy madaniyatning xususiyatlari?
3. Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatiga ta'siri?
4. Yuksak va ommaviy madaniyatlar diffuziyasi va interferensiyasi?
5. Ommaviy madaniyatning inson hayoti va ma'naviyatiga ziddiyatlari?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2018. - 480 b.
5. Qosimon B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011.
6. Yusupov E. Xadislarda dunyoviy va diniy g'oyalarning bog'liqligi. - «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 1994, 5-son.

4-MAVZU: MA'NAVIYATNING RIVOJLANISH QONUNLARI.

Reja:

1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni.
2. Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni.
3. Ma'naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni.

Inson tabiatini (mohiyati) haqida gap ketganda, uning ongli, ijtimoiy mavjudotligi barobarida moddiy va ma'naviy ehtiyojlari uzlusiz o'sadigan mavjudot ekanligi ta'kidlanadi.

Insonning birlamchi moddiy ehtiyojlarining qondirilishi unda ruhoni, ma'naviy ehtiyojlarni uyg'otadi. Qorni to'q, xavf-xatardan xoli inson sho'xlik qilgisi, qo'shiq aytgisi, raqsga tushgisi, xursandchilik qilgisi, biror narsa yasagisi, o'ylab topgisi, surat chizgisi keladi. O'z navbatida mazkur ehtiyojlarning qondirilishi, ularning yanada sifatliroq, yanada mukammalroq, yanada mazmunliroq bo'lishiga nisbatan yangi ehtiyoj tug'diradi. Inson ehtiyojlari o'sishi ijtimoiy taraqqiyot qonunidir, ma'naviy ehtiyojlar o'sishi esa ma'naviyat rivojlanishi qonunidir. Ammo insonning barcha ehtiyojlari, jumladan, fiziologik va moddiylari ham o'zlarining ma'naviy jihatlariga ega. Yuqorida ta'kidlanganidek, insonda bir ehtiyojning qondirilishi undan yuksakroq bo'lган yangi ehtiyojlarni tugdiradi. Yangi o'simlik yoki hayvonni ilk uchratganda, inson u haqida kuzatuv asosida hosil qilgan bilimi bilan qanoatlanib qolmagan. Bu o'simlik yoki jonivor zararli emasmi, undan foydalansa bo'ladimi, degan savolga javob izlagan. Ijobiy javob topsa, endi uni qanday madaniylashtirish (o'simlikni), xonakilashtirish (hayvonni), ko'paytirish, qanday parvarishlash va boshqa savollarga javob izlagan. Yangi ehtiyojlar paydo bo'lishi inson bilimlari, dunyoqarashi rivojlanishiga, tajribasi o'sishiga xizmat qilgan.

Inson ehtiyojlarining yuksalishi, ijtimoiy taraqqiyot qonuni sifatida, birinchidan, uning ongli, aqli mavjudotligi, ertangi kunni ko'ra bilishi, zaruratni anglay olishi, ya'ni ma'naviyatga egaligi bilan bog'liq. Ikkinchidan, uning kam kuch, kam energiya sarflab, ko'proq samara olishga, hayotini yengillatishga intilishi natijasidir. Uchinchidan, o'zligi, o'z qobiliyatini yuzaga chiqarishga urinishi oqibatidir. O'zligini yuzaga chiqarishga intilish ham ma'naviy mavjudot sifatida faqat insonga xos, hayvonotda bunday intilish yo'q. Erishganiga nisbatan balandroq marrani, yaxshiroq natijani ko'zlash, mukammalroq, yaxshiroq, go'zalroq buyumni yoki san'at asarini yaratish-ga intilish, yangi texnik asbob-uskunalarini, kompyuterlarni, mashinalar, mexanizmlar va texnologiyalarni ixtiro

etishga harakat, turmushini erkin va farovon qilishga urinish insonning asl insoniy xususiyatidir, ob'ektiv ravishda tug'iladigan ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlaridir. Ana shu ehtiyojlar yuksalsa, jamiyat rivojlanadi, aks holda, jamiyatda turg'unlik yuz beradi. Turg'unlik asrlar mobaynida davom etishi mumkin. Insonning moddiy ehtiyojlari qanday o'sishi ham uning aqli, zaruratni anglay olishi, o'zligini namoyon etishga harakat qilishi bilan, ya'ni uning ma'naviy ongi bilan bogliq.

Hatto boylik orttirish, molparastlik hirsi ma'naviyatdagi noqislik bo'lsada, aslida u ibridoiy odamlarning ertangi kunda ov o'ngidan kelmasa yoki qurg'oqchilik tufayli mo'ljaldagi hosil olinmay qolsa, ochlikdan azob chekmaslik uchun ehtiyot zaxira to'plash kerak, degan ishonchiga borib taqaladi. U, avvalo, insoniyat ongosti qatlamidagi arxetipdir, jamoaviy ongsizlik unsuridir. Biroq u faqat jamoaviy ongsizlik, ibridoiy arxetip ko'rinishigina emas. U ijtimoiy tabaqalashgan jamiyatdagi ba'zi bir axloqiy, ma'naviy va ziddiyatli sinfiy-tabaqaviy qoida va me'yorlarga ham aloqador. Iqtisodiy-moliyaviy imkoniyat, boylik insonning jamiyatdagi obro'-e'tiborini, mavqeini belgilagan, aloqalarini kengaytirgan va o'zligini, o'z irodasini, xohish-istiklarini yuzaga chiqarish imkoniyatlarini ko'paytirgan. Xulosa qilish mumkinki, insonning barcha ijtimoiy ehtiyojlar asosida uning ongi, ma'naviyati turadi, bundan fiziologik (biologik) ehtiyojlar qisman mustasno. Ammo ularga ham ma'naviyat ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Masalan, ovqatlanish, nasl qoldirish va ko'plab fiziologik ehtiyojlar qondirilishi muayyan tartib-qoida, odob-axloq doirasida, ba'zilari intim sharoitda amalga oshiriladi.

Ilm-fanda ehtiyojlar masalasi doimo bahsli bo'lib kelgan. Materializm taraqqiyotda moddiy ehtiyojlar o'sishini birinchi o'ringa qo'ysa, idealistlar ma'naviy-mafkuraviy ehtiyojlarga ustunlik bergen. Aslida bunday yondashuv ushbu masalada bir yoqlamalikka o'xshaydi. Agar inson faqat biologik mavjudot bo'lganida, shubhasiz, moddiy ehtiyojlarning o'sishi belgilovchi ahamiyat kasb etar edi. Ammo inson biologik tabiatidan tashqari, o'zining ijtimoiy-ma'naviy tabiatiga ega. Aynan «ikkinch» tabiatin insonni hayvonot olamidan ajratib oldi. Masalaga tor ontologik, materiya birlamchimi yoki ideya (g`oya) degan nuqtai nazardan emas, balki kengroq funktsional nuqtai nazardan yondashilsa, masalaga javob ancha oydinlashadi.

Hech qanday axloqiy, diniy-ruhoniy tartib-qoidalar, me'yorlar vujudga kelmagan paytlarda odamsimon mahluqlar to'dasining turmush tarzi va xulqi maymunlarnikidan kam farq qilgan. Dastlabki ongli cheklovlar, taqiqlar va majburiyatlar (ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi, keyin aka-ukalar va opa-singillar o'rtasidagi jinsiy aloqalarning taqiqlanishi, topilgan yegulikni yoki ovlangan hayvon go'shtini birgalikda iste'mol qilish, yoshlarga mehnat va ov qurollari yasashni, amalda qo'llashni o'rgatish va shu kabilar) odamsimon mahluqlarni odamga, ular to'dasini urug'-jamoaga aylantirdi. Ushbu misollar esa moddiy ehtiyojlarga emas, ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar paydo bo'lishi va o'si-shiga oiddir. Ular moddiy, hatto fiziologik ehtiyojlar qondirilishigada tuzatish kiritdi, ularni ijtimoiylashtirdi. Demak, insonning biologik emas, ijtimoiy mavjudot sifatidagi mohiyatini ma'naviy ehtiyojlar vujudga keltirgan.

Albatta, iqtisodiy taraqqiyot qonunlari ob'ektiv xarakterga ega, ma'naviyatga bo'y sunmaydi. Tadbirkor, zavod egasi, birinchi navbatda, nafsi, hirsi kuchli bo'lGANI yoki odamlar haqida g'amxo'rlik qilgani, mehnatsevarligi uchun emas, bozor talablariga mos xo'jalik yuritgani uchun boyiydi. Ammo uning bozor talablarini aniq bilishi yoki his qila olishi, raqobatda aql-zakovat va irodasini to'g'ri faol qo'llashi, texnologiyasini muntazam takomillashtirib borishi, ishchi-xizmatchilari va davlat soliq idoralari, banklar bilan munosabatini to'g'ri yo'lga qo'yishi, faolligi hamda shaxsiy mehnatsevarligi uning ongiga, bilimlariga bevosita daxldordir. Qallob, yolg'onchi, jamiyatning, odamlarning ishonchini yo'qotgan, qonunlarga, axloq talablariga rioya qilmaydigan, yalqov, dangasa kishi hayotda katta muvaffaqiyat va obro' qozona olmaydi.

Inson hech vaqt o'z mavjudlik holati - ekzistentsiyasi bilan qoniqmaydi (gap alohida shaxsning maishiy ahvoli, mansabi va sh.k. haqida emas, insoniyatning tarixiy jarayondagi ahvoli haqida ketmoqqa), doimo uni va o'zini takomillashtirishga harakat qiladi. Hayvonda takomillashish mo'ljali yo'q. Zero, u o'z mavjudlik holatini anglay olmaydi. Ijtimoiy taraqqiyot negizida esa mavjud holat bilan qoniqmaslik yotadi. Vujudga kelgan qiyinchiliklarni yengish, yangi kuch, g'ayrat to'plab, rivojlanish zaminini tayyorlash uchun insonga iroda - ongli tanlash,

butun kuch-g'ayratini maqsadga erishish uchun safarbar etish, chidam, sabr toqat kerak. Sabru toqatni o'z ijtimoiy holatidan qoniqish bilan chalkashtirmaslik kerak. Sabru toqat rivojlanish jarayonining diskret va vaqtinchalik shakli, mukammallikka intilish, ehtiyojlar yuksalishi esa uning doimiy holatidir.

Barcha sog'lom ijtimoiy ehtiyojlar, jumladan, sog'lom moddiy va hattoki, sog'lom fiziologik ehtiyojlar rivojlanmas ekan, oqibatda ma'naviy ehtiyojlar ham yuksalmaydi. Nosog'lom moddiy va fiziologik ehtiyojlar insonni turli kasallikkarga, masalan, ochofatlik kasaliga, shahvoniy zo'ravonlikka, o'ta ziqnalikka mubtalo etadi.

Ba'zan ular maniakal ko'rinish olib, haqiqiy ruhiy xastalik darajasiga ko'tariladi. Insonning ezgulikka, erkinlikka, adolatga, haqiqatga, mehr-muhabbatga, go'zallikka, kamolotga intilishi, o'z qobiliyatlarini voqe qilishga, ijod qilishga urinishlari uning sog'lom ma'-naviy ehtiyojlaridir. O'z ijtimoiy holati, erishgan darajasi bilan qoniqmaslik, yangi sog'lom ehtiyojlarning tug'ilishi ma'naviy rivojlanishning omilidir. O'z holati va erishgan darajasi bilan qoniqish yangi, yanada yuksakroq ehtiyojlarni vujudga keltirmaydi, ma'naviyatda turg'unlikni keltirib chiqaradi.

Haqiqiy ma'naviyat sog'lom ehtiyojlar zamirida vujudga keladi. Ma'naviyat insonda soglon ehtiyojlarning, jumladan, sog'lom moddiy ehtiyojlarning' shakllanishidan, o'z shaxsi bilan ixtilofga bordirmasdan, asl insoniy mavjudligini ta'minlashga xizmat qiluvchi aqliy va hissiy muhitdan, falsafiy, axloqiy, ilmiy, diniy, badiiy va boshqa madaniy qadriyatlardan hamda shaxsning ijodiy faolligidan tashkil topadi. Ma'naviy ehtiyojlarni sotsiumning turli birliklariga oid individual ehtiyojlarga, jamoaviy (oilaviy, guruhiy, korporativ), sinfiy-tabaqaviy, mahalliy-mintaqaviy, umummilliy ehtiyojlarga bo'lish mumkin.

Shaxs ma'naviyati yuksalishi uchun, uning individual ehtiyojlarini sotsiumning boshqa yuqori birliklari ehtiyojlariga qurbon qilmay, ular bilan uyg'unlashtirish lozim. Oila ma'naviyati, bir tomonidan, uning har bir a'zosining, ikkinchi tomonidan, oilaning yaxlit birlik sifatidagi tegishli ehtiyojlar o'sishi va qondirilishiga bog'liq. Oila ehtiyojlar uning a'zolari va butun jamiyat ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Oila manfaatlarini uning alohida a'zosi, aytaylik, oila boshlig'i yoki oilaning

tantiq erkatoy farzandining injqliklariga qurbon qilib bo'lmanidek, umumjamiyat manfaatlariiga ham qurbon qilib bo'lmaydi. Oilaning yangi avlodi - bilimliroq, dunyoqarashi, muloqot va axborot maydoni kengroq, hayotiy mo'ljallari, maqsadlari yuksakroq, o'z qobiliyatlarini yuzaga chiqarish imkoniyatlari kattaroq bo'lishi lozim. Shunda oila nafaqat moddiy-iqtisodiy, shuningdek, ma'naviy jihatdan yuksaladi.

Manfaatlarni uyg'unlashtirish milliy-ma'naviy ehtiyojlar o'sishigada taalluqli. Milliy ehtiyojlar, manfaatlар alohida mintaqalar, viloyatlar, hududlar, korporativ guruhlar (moliyaviy-oligarx guruhlar, harbiy-sanoat kompleksi, transmilliy kompaniyalar va sh.k.), etnik va diniy konfessiyalar foydasini ko'zlab, cheklanmasligi lozim. Millatning o'zligini, o'zining umumiyligi manfaatlarni anglash darajasi o'smas ekan, milliy jiipslik mustahkamlanmaydi, mahalliychilik, guruhbozlik, hatto ayirmachilik illatlari saqlanib qolaveradi, milliy g'urur kemptik bo'ladi. Ilm-fan, adabiyot va san'at, milliy til va madaniyat yaxshi rivojlanmaydi. Bunday xalq asta-sekin bo'linib, parokandalikka uchrab, oqibatda boshqa halqlar tarkibiga singib ketadi.

Milliy taraqqiyot ehtiyojlari boshqa xalqlar bilan aloqa qilishni, ularning yutuqlaridan ijodiy foydalanishni, o'z yutuqlarini dunyoga yoyishni taqozo etadi. Jahan hamjamiatiga barcha sohada teng huquqli integratsiya bo'lish ehtiyojlari har qanday mahdudlikni, milliy manmanlikni, milliy nomukammallikni, nigelizm va kosmopolitizmni birday inkor qiladi.

Ehtiyojlar yuksalishi va ma'naviyat rivojlanishi o'zaro chambarchas bog'liq. Ehtiyojlar yuksalsa, ma'naviyat rivojlanadi, rivojlangan ma'naviyat esa yuksak ehtiyojlarni taqozo etadi. Rivojlangan ma'naviyat bu qondirilgan sog`lom ehtiyojlarning yuzaga chiqishidir va ayni paytda nisbatan yuksakroq yangi ehtiyojlarning tug'ilishidir. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ma'naviyat va ehtiyojlar o'sishi o'rtasidagi, o'z navbatida, ma'naviy ehtiyojlar o'sishi va ma'naviyat yuksalishi o'rtasidagi aloqalar ikkinchi darajali, yuzaki, tasodify va muvaqqat emas, balki eng muhim, mohiyatli, zaruriy, takrorlanuvchan va doimiy aloqalardir. Shu sababdan bu aloqalar ma'naviyat yuksalishi qonunidir. Lekin ehtiyojlarning o'zi

bevosita ma'naviyat tarkibiga kirmaydi, balki uning rivojlanish sababi va oqibatini, shart-sharoitini, harakatlantiruvchi kuchini tashkil qiladi. Ehtiyojlarning yuksalishi inson tabiatiga, asl mavjudligiga (ekzistentsiyasiga) mos. Ushbu ma'noda insonni «ehtiyojlari yuksaladigan mavjudot» deyish o'rnlidir.

Ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlarni mazmuniga, vazifalariga, ahamiyatiga, muayyan ijtimoiy ong shakliga mansubligiga qarab ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Umumma'naviy ehtiyojlar, ya'ni ma'naviyat yaxlit tizim, bus-butunlik sifatida taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

2. Ma'naviyatning nisbatan alohida mustaqil tarkibiy qismlari sifatida ijtimoiy ong shakllari taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar.

Birinchi guruhga mansub ehtiyojlar quyidagilardan iborat:

- a) inson o'z tabiatini (mohiyatini) takomillashtirish ehtiyojlar;
- b) insonning o'z ijtimoiy yaratuvchilik imkoniyatlarini (salohiyatini) o'stirish ehtiyojlar;
- v) insonning shaxs sifatida o'z qobiliyatlarini, imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ehtiyojlar;
- g) insonning o'z erkinlik darajasini orttirib borish ehtiyojlar.

Ularning har biri ko'plab talablar, me'yorlar, mezonlar, ko'rsatkichlarni qamrab oladi. Masalan, insonning o'z tabiatini (insoniy mohiyatini) takomillashtirish ehtiyojlarini oladigan bo'lsak, u, avvalo, insonning aqli, ongli bioijtimoiy mavjudot ekanligidan kelib chiqadi. Demak, umumma'naviy ehtiyojlar, birinchi navbatda, insonning aqli, tafakkuri, bilimlari, tuyg'ulari, ijtimoiy faolligi va aloqalari boyishiga bog'liq. Inson biologik tabiatiga ko'ra sog'lom bo'lishi (jamiyat miqyosida bu sogliqni saqlash tizimi va tibbiyot fanlari rivojlanishini taqozo etadi) lozim. Ijtimoiy tabiatiga ko'ra, jamoaviylik tuyg'usi mustahkam, ijtimoiy aloqalari va muloqot maydoni muttasil kengayib borishi, jamiyatdagi mayjud tartib-qoidalarni, me'yorlarni yaxshi bilishi, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtira oladigan bo'lishi kerak.

Inson - o'z oldiga ongli maqsad qo'yib, mehnat qiladigan, tabiatni, jamiyatni va o'z-o'zini qayta yaratadigan mavjudot. Inson yaratuvchilik faoliyatini

takomillashtirish uchun muttasil amaliy va nazariy bilimlarini, mehnat va ijod ko'nikmalarini, hayotiy tajribasini o'stirib borishi talab etiladi. Bular jamiyatda ta'lim-tarbiya tizimi vujudga kelishini va jamiyat bilan birga rivojlanib borishini taqozo etgan. Ota-onasiga yoshlikdan mehnat qilishni, yashash qoidalarini, aka-ukalari, qo'ni-qo'shnilarini, tengdoshlari, do'stlari, tanish-bilishlari bilan ahil bo'lishni, bir-birini qo'llab-quvvatlashni, oilada, mahallada, jamoatchilik joylarida intizomni saqlashni, xushmuomalalikni, urf-odat, an'analar uchun mas'ul bo'lishni, ularga itoat etishni o'rgatadi. Bolada jamoaviylik tuyg'ulari, mas'uliyat, muloqot, boshqalar bilan birga yashash va mehnat qilish me'yorlari asta-sekin qaror topadi. Bu uning ijtimoiylashuvidir.

Mehnat qilishni va yaratuvchilikni, biror kasb-hunarni dastlab bola oilada, urug'-jamoadan, mahallada, nisbatan rivojlangan jamiyatlarda esa maxsus tashkil etilgan o'qish, kasb o'rgatish muassasalarida o'rganadi. Tarbiyaning barcha yo'nalishlari, shu jumladan, jismoniy va mehnat tarbiyasi ma'naviyatga daxldordir. Tarbiya ta'lim qatorida jamiyat umumma'naviy ehtiyojlarini yuzaga chiqarishda hal qiluvchi institutdir. Inson o'z ijodiy-yaratuvchilik salohiyatini o'stirishi, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun yaxshi ta'lim-tarbiya olishi, chuqur bilimlarga, kasb mahoratiga, mehnat, ijod ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bundan tashqari, o'z ishini, faoliyatini tanqidiy tahlil etib, kamchiliklardan qutilishga harakat qilishi lozim. Bular esa insonning o'z-o'zini tarbiyalash, bilimlari va malakasini oshirish (o'qish) ehtiyojaridir. Demak, ta'lim-tarbiyaga ehtiyoj nafaqat oila, jamiyat tomonidan tarbiyalanadi, shuningdek, u insonning shaxsiy ongli faoliyati mahsulidir. U insonning ichki, o'z-o'zini takomillashtirish va qayta yaratish omiliga aylanadi.

Jamiyat tashkil qilgan ta'lim-tarbiya tizimida inson asosan ob'ektdir. O'z-o'zini tarbiyalash tizimida esa inson bir vaqtida tarbiya ob'ekti va sub'ekti hisoblanadi. Mehnatsevarlik, faollik, izlanish, mahoratga, o'z sohasida komillikka intilib, o'z ustida ishslash insonning shaxs sifatida o'zligini namoyon etishning, o'z salohiyatini, qobiliyatini yuzaga chiqarishning zarur shartlaridir. Shartlar orasida yana biri bor-bu insonning erkinlik darajasidir. Erkinlik yetishmaydigan inson na hayotda, na ijodda o'z imkoniyatlarini to'la yuzaga chiqara oladi. Insonda erkinlik ehtiyojlarining

o'sib borishi jamiyat taraqqiyoti bilan, ijtimoiy qadriyatlar tizimining insonparvarligi, tafakkur erkinligi, tolerantlik qaror topishi, ma'naviy muhit mustahkamlanishi bilan bog'liq.

Ikkinchi guruhga ijtimoiy ongning alohidalashgan shakllariga oid ehtiyojlar tizimi kiradi:

- a) e`tiqodiy, ya'ni ilmiy-falsafiy va diniy ehtiyojlar - narsa va hodisalarning, jamiyat va insonning, abadiyat va fonyilikning mohiyatini anglashga intilish, hayotning ma'nisini, yashashdan maqsadni bilih;
- b) axloqiy ehtiyojlar - ezbilikka, insonparvarlikka, vatanparvarlikka intilish, vijdon talablariga mos yashash; baxtli turmush kechirish (gedonizm);
- v) estetik ehtiyojlar - go'zallikka intilish, hayotni, tabiat va jamiyatni go'zallashtirish («go'zallik qonunlari bo'yicha» qayta yaratish), go'zallikdan zavq-shavq tuyish, huzur-xalovat olish (evdemonizm), nozik didli, nozik ta'bli inson bo'lish, ijod qilish;
- g) huquqiy ehtiyojlar: adolatni qaror toptirish, insonni, jamiyatni har xil adolatsizlik, zo'ravonlik va ekstremistik tajovuzlardan himoya qilish, insonhuquqlarini, qonun ustuvorligi va barchaga birdayligini har tomonlama ta'minlash;
- d) siyosiy ehtiyojlar - huquqiy-demokratik davlat, ochiq fuqarolik jamiyati qurish, demokratiya va ijtimoiy adolatga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish va uzlusiz takomillashtirib borish, davlat va fuqaro, jamiyat va shaxs manfaatlarini uyg'unlashtiradigan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmni ishlab chiqish va doimiy ravishda takomillashtirib borish;
- e) boshqa ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar. Ular oilani mustahkamlash, urfatlar, marosim, an'analarni takomillashtirish, ta'lim va sogliqni saqlash, madaniyat va sportni rivojlantirish, axborot olish, hordiq chiqarish, bo'sh vaqt ni mazmunli o'tkazish va ko'plab shu kabilardan iborat.

Ehtiyojlar tug'ilishi (paydo bo'lishi), o'sishi, qondirilishi, yanada yuksakroq ehtiyojlarning vujudga kelishi, bu jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar, ehtiyojlar yuksalishi bilan bog'liq boshqa ko'plab masalalar alohida, mustaqil

va bat afsil tadqiq etishni taqozo etadi. Biz ehtiyojlar to'grisida mavzumiz talab qiladigan umumiy e'tiroflar va mulohazalar bilan cheklanamiz.

Xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi ma'naviyat yuksalishi qonunlaridan biridir. Ehtiyojlar yuksalmasa, inson hayvonot olamidan, jamiyat tabiatdan ajralib chiqa olmas edi. Jamiyatning gurkirab rivojlanishi bevosita yoki bilvosita sog'lom ehtiyojlar yuksalishiga, turg'unlikka tushib qolishi, inqirozga uchrashi, xato g'oyalar tomon og'ib ketishi (siyosiy va diniy ekstremizm ta'sirida), o'smay qolishi nosog'lom ehtiyojlar ustunlik qilib ketishiga bog'liq. Ehtiyojlar yuksalishi va jamiyat rivojlanishi dialektik birlikni tashkil etadi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni?
2. Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni?
3. Ma'naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni?
4. ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar?
5. Umumma'naviy ehtiyojlar, ya'ni ma'naviyat yaxlit tizim, bus-butunlik sifatida taqozo etadigan va vujudga keltiradigan ehtiyojlar?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2018. - 480 b.
5. Qosimon B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011.

6. Yusupov E. Xadislarda dunyoviy va diniy g‘oyalarning bog‘liqligi. - «O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 1994, 5-son.

5-MAVZU: MA’NAVIYAT KATEGORIYALARI

REJA:

- 1.** O‘zlikni anglash ma’naviyatning asosiy kategoriyasi sifatida.
- 2.** Ma’naviyatning tolerantlik kategoriyasi.
- 3.** Qadriyat tushunchasi.
- 4.** Ma’naviyatshunoslik fani kategoriyalari va asosiy tushunchalarining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tushunchalari bilan uzviy bog‘liqligi.

Ma’naviyatshunoslik alohida mustaqil fan sifatida o’zining asosiy tushunchalariga, kategoriyalariga, tamoyillariga, qonunlari va mezonlariga ega. Ular orasida boshqa turdosh fanlardan kirib kelganlari bor. Masalan, falsafadan, etika, estetika, yurisprudentsiya, dinshunoslik va boshqa fanlardan olingan ong, tafakkur, borliq, qadriyat, axloq, nafosat, imon, haqiqat,adolat, tenghuquqlilik va sh.k. tushunchalarsiz ma’naviyatshunoslikni fan sifatida tizimlashtirib bo’lmaydi. Ayniqsa, falsafa fani tushunchalari, kategoriyalari, usullari, bilish nazariyasi ma’naviyatshunoslik shakllanishi uchun zaruriy ilmiy asos va qurilmadir. Zero, ma’naviyatshunoslik fani etika, estetika, kulturologiya, dinshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, mantiq ilmlari singari falsafiy fanlar tizimiga mansubdir. Shu sababdan u, birinchi galda, boshqa falsafiy fanlarning tushunchalaridan, kategoriyalaridan foydalanadi, ular yordamida o’z ilmiy apparatini shakllantiradi. Lekin boshqa fanlardan qabul qilingan tushunchalarni o’z predmetidan kelib chiqib talqin qiladi. Ayni paytda uning faqat o’ziga xos bo’lgan asosiy tushunchalari va kategoriyalari bor.

Ma’naviyatshunoslik fani birinchi galda «ma’naviyat», «ma’naviy ong», «ma’naviy madaniyat», «ma’naviy muhit», «ma’naviy qadriyatlar», «ma’naviy ehtiyojlar», «shaxs ma’naviyati», «jamiat ma’naviyati», «ma’naviy yuksalish», «ma’naviy erkinlik», «tafakkur erkinligi», «milliy g’oya», «tolerantlik»,

«bag'rikenglik». «o'zlikni anglash», «ma'naviy asoslar» va ularning muqobil ko'rinishlarini ifodalovchi «ma'naviyatsizlik» va h.k. tushunchalardan foydalanadi. Avvalgi mavzularda ma'naviyat, ma'naviy ong, ma'naviy madaniyat, e'tiqod, iroda, ma'naviy muhit kabi kategoriyalar va tushunchalar to'grisida ancha mulohazalar yuritildi. Ularning mazmun-mohiyati va voqelik shakllarini ochib berishga harakat qilindi. Ma'naviyatning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi falsafa, din, axloq, nafosat, huquq, siyosat bilan bog'liq tegishli fanlar kategoriyalari ustida esa maxsus to'xtalib o'tirmaymiz. Faqat avval aytilmagan ba'zi kategoriyalar va tushunchalar haqida umumiy fikrlarni bildirib o'tamiz. Ularning mazmuni esa boshqa mavzu-larni o'rganish jarayonida to'laroq ochiladi.

Ma'naviyatning asosiy kategoriyalaridan biri - o'zlikni anglashdir. Uning boshqacha sinonimi identlik (ayniyat) deyiladi. O'zlikni anglash - insonning xos, mohiyatli belgisi. Shaxs o'zining individual identligini, ijtimoiy - guruhiy, korporativ, tabaqaviy - sinfiy va milliy identligini turli darajada anglashi mumkin: qisman, nisbatan to'laroq, ziddiyatli, ikkilanishlar bilan, o'z imkoniyatlariga ishonmasdan yoki o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholab (xudbinlik, manmanlik) va nihoyat, adekvat (o'z salohiyati va qobiliyatiga mos). Shunday qilib, o'zlikni, o'z identligini anglash, turli darajada va mazmunan har xil kechadi. «Identlik», o'zlikni anglashni ifodalaydigan tushuncha o'laroq, fanda keng qo'llaniladi.

Identlik, avvalo, insonning olamdag'i o'z o'rnini, tabiatdagi eng ulug' va yagona aqlii, yaratuvchi jonzot ekani-ni bilishdir. Inson nega dunyoga keldi, uning yashashdan maqsad-muddaosi nimada, hayotining ma'nisi ne? O'zlikni anglash ushbu savollarga javob izlash va topishdir. Inson o'zligini anglashi jarayonida tabiatdan, hayvonot olamidan ajralib chiqdi, ma'naviy mavjudotga aylana boshladi. O'zlikni anglash yangi bilimlarga, yuqori ko'rinishlarda esa haqiqatga, oliy idealga intilishdir. Shu sababdan dinda «o'zini anglagan Rabbini (Ollohn) ham anglaydi», degan tasdiq mavjud. Tabiatning insondan tashqari biror jonzodi o'zligini anglay olmaydi, chunki uning ongi, shuuri yo'q. O'zini tabiatdan ajrata olmaydi, o'z oldiga reja - maqsad qo'yib, o'z borlig'ini, yashash sharoitini takomillashtirolmaydi. U faqat mavjud ekotizimda muayyan pog'onani egallaydi, uning muhim zaruriy bo'g'inini

tashkil qiladi, xolos. Hayvonotning mavjud ekotizimdag'i o'rni, vazifalari, hayoti tabiat tomonidan avvaldan belgilangan. Inson esa aqli va mehnati orqali o'z tabiiy yashash shart-sharoitini ham, ijtimoiy muhitini ham o'zgartirish qobiliyatiga ega. Buning uchun u, avvalo, o'z oldiga maqsad qo'yadi, unga yetishish uchun bilimini va mehnat ko'nikmasini o'stiradi. Ishlab chiqarish qurorollari yaratadi, ularni takomillashtiradi, tabiat jismlarining xossalarni o'rganadi va yangi-yangi mahsulotlar yetishtirib, muhitini, yashash sharoitini yaxshilaydi. Ongi, bilimlari o'sgani sayin oldiga qo'ygan maqsadlari ham o'sa boshlaydi, yuksaladi. Demak, o'zlikni anglash yangi bilimlarga, yangi mehnat ko'nikmalariga yoki umumiy tsilib aytilsa, yaratuvchilikka intilish va irodasini namoyon etib, uni kuchaytirishdir.

Ontologik jihatdan maqsad va intilish yo'q joyda o'zligini anglash, binobarin, ma'naviyat ham yo'q. Inson kundalik hayotiy maqsadlariga erishib, nisbatan to'q va xavfsiz hayotini ta'minlab, bilimi va yaratuvchiligini rivojlantirish jarayonida yuksak haqiqat haqida o'ylay boshlaydi, uni hayotining oliv maqsadiga - idealiga aylantiradi. Dastlab bu yuksak haqiqatni tabiatdan ustun turuvchi g'ayritabiyy kuchlarda, ruhlarda va h.k. da ko'radi. Ularga etiqod qiladi. E'tiqod o'zlikni anglashning muhim shakllaridan biridir.

Inson ijtimoiy mavjudot o'larotso'zligini anglashda, birinchi galda, o'zini ma'lum tarixiy, etnik, lisoniy, madaniy, e'tiqodiy, siyosiy birlikning a'zosi sifatida anglaydi. O'zini ular bilan kelib chiqishiga ko'ra umumiy bir, to'la o'xshash, mos - ident, deb hisoblaydi. Rivojlanmagan jamiyatlarda bu borada katta va murakkab muammolar deyarli uchramaydi. Urug'-jamoada, qabilada qon-qardoshlik asosidagi etnik, lisoniy, madaniy-e'tiqodiy birlik o'zaro mos keladi. Ular o'z identligini (ayniyatini) avvalo quyidagi omillar - etnik (genetik), til, umumiy asotirlar, urf-odatlar, umumiy sig'inish predmetlari va marosimlari asosida aniqlaydilar..

Biroq dunyo dirlari paydo bo'lganidan keyin masala biroz qiyinlashdi. Chunki etnik ong (qon-qardoshlik ayniyati) va diniy ong o'rtasida farq vujudga keldi: «Biz turkiylar musulmonmiz, ular esa musulmon bo'lsada, eroniylardir yoki arablardir» qabilida. E'tiqodiy mazhablar paydo bo'lishi diniy ayniyatni ham chigallashtirdi. «Ular shia, biz sunniumiz», degan o'zlikni angashning diniy

shakllari paydo bo'ldi. Bir xalq turli tarixiy sabablarga ko'ra, ikki, hatto uch dinga e'tiqod qilib qolgan. Masalan, bengallarning bir qismi musulmon (Bangladesh), ikkinchi qismi hinduizmga e'tiqod qiladi (G'arbiy Bengaliya). Albatta, turli diniy e'tiqod ularning mentalitetiga, madaniyatiga, urf-odatlariga, o'zaro aloqalariga, milliy identligiga ziddiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy jamiyatda milliy identlik masalasi ancha o'zgardi. Endi diniy, hatto etnik identlik ba'zi hollarda birlamchi, asosiy belgilardan hisoblanmaydi. Masalan, turli xalqlarning o'zaro aloqalari rivojlanishi, yirik shaharlarda, rivojlangan mamlakatlarda aholi tarkibining etnik xilma-xillik kasb etishi, aralash nikohlar, ular farzandlarining etnik mansubligi masalasi, odamlarning erkin harakatlanishi va yashashi va sh.k. lar keng tarqalgan bizning zamonda identlik ko'proq qaysi tildan va madaniyatdan foydalanishga qarab yoki fuqaroning o'z istagiga ko'ra yoxud qaysi davlat fuqarosiligiga qarab belgilanmoqda. Uzini rossiyalikman yoki amerikalikman deydigan, rus yozuvchisiman yoki amerikalik rejissyorman deydigan, ammo etnik jihatdan nemis, lotin, amerikalik, ukrain, belorus, yahudiy, armani, chuvash, mardvin yoki boshqa xalqqa mansub kishilar ko'p. Bunday kishilar har doim, barcha zamonlarda bo'lgan. AQSH, Kanada, Braziliya, umuman Lotin Amerikasi, Yevropa mamlakatlarida milliy identlik fuqarolik bilan bir xil tushuniladi.

Fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandalari orasida etnik turkiylar salmoqli o'rinni egallaydi: Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Bedil, Mirzo G'olib va boshqalar. Atoqli shoир O'ljas Sulaymonovni qozoq shoiri deyish kerakmi yo rus shoiri? Tiliga ko'ra (rus tilida ijod qiladi), u rus she'riyati vakili, ammo milliy o'zligini anglashiga, milliy identlik tuyg'usiga, adabiyot uchun yana bir muhim omil - obrazlar tizimiga ko'ra, asl qozoq milliy shoiridir. Oydinlashmoqdaki, milliy identlik masalasi bugungi kunda ancha murakkab, ammo rivojlangan G'arb mamlakatlarida dolzarbligini yo'qotgan masaladir. Milliy identlik etnik identlikdan kengroq tushuncha. Milliy identlik, avvalo, o'zini qaysi xalqning vakili deya hisoblashi, qaysi xalq bilan uning taqdiri birligini, ajralmasligini his qilishidadir.

Tarixan turli sabablar bilan bizning tuproqqa ke-lib qolgan, guj yashaydigan arablar bor. Ular o'zbek jamiyatiga to'la integratsiyalashgan. Orasidan olimlar, yozuvchi-shoirlar, san'atkorlar, davlat arboblari yetishib chiqqan. Ularning etnik arabligi ongida qisman saqlanib qolgan. Lekin til, madaniyat, urf-odatlar va boshqa ijtimoiy qadriyatlar, siyosiy va fuqarolik ongi bo'yicha ular o'zbeklar bilan ident. Ulardan birortasi «Men arab shoiriman, arab olimiman yoki arab davlati arbobiman» demaydi. Ushbu ma'noda ular milliy identlik jihatidan o'zbek, ammo ongida etnik identlik masalasida farq qisman mavjud.

Identlikning, milliylikdan tashqari, ijtimoiy-guruhiy shakllari bor. Ular o'tmishda asosan kasbiy-korporativ ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Bugun ommaviy madaniyat ta'sirida qiziqishlari, futbol komandalari, estrada yulduzlariga ishqibozligi, biror buyumni iste'mol qilishiga qarab identlikning submadaniy shakllari vujudga kelmokda. Masalan, baykerlar (mototsiklchilar) uyushmasi, futbol komandalarining fanatlar klubini va hokazo.

O'zlikni anglash, albatta, millatning tarixiy xotirasi, nasl-nasabi, ajdodlarining buyuk ishlarini, yutuqlarini bilishni, ular bilan faxrlanishni, milliy g'ururni ham o'z ichiga oladi. Ammo o'zlikni anglash nafaqat o'tmish yutuqlarini, shuningdek, yo'qotishlarini, mag'lubiyatlarini, ularning sabablarini ham bilishni, tarixdan xulosalar chiqarib, kelgusida ularni takrorlamaslikka intilishni ham bildiradi. Bundan tashqari, o'zlikni anglash millatning bugungi ahvolini, imkoniyatlarini, shu jumladan, kamchiliklarini to'g'ri tahlil qila olishni, oldiga yuksak, ammo real maqsadlar qo'ya olishni, ularga erishish uchun milliy irodani safarbar eta olishni bildiradi. Milliy identlik - bu milliy manfaatlarni to'g'ri anglashdir, bu milliy jipslik, ahillikdir, mahalliychilik, guruhiy-korporativ xudbinlikdan ustun tura olishdir. O'zlikni anglash kelajak rejalarini, millat istiqboli haqida qayg'urishdir. Individual darajada o'zlikni anglash, o'z shaxsiy manfaatlarini oila, jamoa, davlat va butun jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga intilishdir. Shunday qilib, o'zlikni anglash insonni hayvonot olamidan ajratuvchi, o'z oldiga maqsad qo'yib, ba'zan ulug'vor maqsad qo'yib, yaratuvchilik va ijod bilan shug'ullanuvchi, aql-zakovati, irodasini maqsadga

erishishga safarbar eta oluvchi, o'z ijtimoiy muhitini muttasil takomillashtiruvchi mavjudotligini ifodalovchi muhim ma'naviy kategoriyadir.

Ma'naviyat kategoriyalari orasida «tolerantlik» (bag`rikenglik) alohida ajralib turadi. Tolerantlik ma'naviyatning bus-butunlik, yaxlit tizim sifatidagi kategoriyasidir, chunki uning barcha qismlariga taalluqli. Axloqda har bir kishi axloqiy tolerantlikka muhtoj odamlar uning samimiyligini, beg'arazligini, halolligini, niyati va bildirgan fikrlari to'g'riliгини tushunishlarini istaydi. Ortiqcha shubhakorlik, ishonmaslik odamlarni bir-biridan sovutadi, uzoqlashtiradi. Odamlar siyosatda, siyosiy qarashlarda esa siyosiy tolerantlikka, siyosiy pluralizmga, ko'ppartiyaviylikka ehtiyoj sezadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, tolerantlik odamlarni jipslashtiradi, o'zaro ishonchini mustahkamlab, ma'naviy muhitni yaxshilaydi. Bu esa jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tolerantlik inson huquqlarini yuzaga chiqarishning muhim shartlaridan biridir. Aks holda odamlarni jinsiga, tiliga, millatiga, diniga, ijtimoiy kelib chiqishi va ahvoliga qarab bir-biridan ajratish, kimlarnidir kamsitish, cheklash, xo'rslash kabi illatlar yashab qolaveradi.

Jamiyat demokratik va erkin rivojlanishi, odamlar o'z fikrlarini erkin bildirishlari va muammolarning to'g'ri yechimini topish maqsadida bahs yuritishlari, muqobil takliflarni, dasturlarni muhokama etib, yaxshilarini tanlab olishlari uchun siyosiy pluralizm va siyosiy bag'rikenglik nihoyatda muhim. Ko'pmillatli mamlakatlar uchun o'zga tillarga, urf-odatlarga, madaniyatga, e'tiqodga bag'rikeng bo'lish katta ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik tufayli ko'pmillatli mamlakatlarda etnik identlik umummilliylidentlik tarkibidagi pog'onaga aylanadi, unga qarshi turmaydi. Aks holda etnik identlik xalqning o'zini yagona millat deya his qilishiga imkon bermaydi.

Adabiyot va san'atda hatto bir mamlakatning umumiyl milliy adabiyoti va san'ati doirasida ham turli ijodiy usullar, badiiy uslublar, badiiy g'oyalar va vositalar boyishi, rivojlanishi, rang-baranglik va samaradorlik kasb etishi uchun g'oyaviy-estetik bag'rikenglik zarur. Agar u inkor etilsa, izlanishlar to'xtaydi, andozabozlik, sxematizm (sotsialistik realizm kabi) yoki an'anaviylik, eski yutuqlarni ideallashtirish, yangiliklarni qabul qilmaslik, jonli

hayotdan uzilib qolish, badiiy-uslubiy konservatizm va turg'unlik qaror topadi. Tolerantlik – Ijodiy rivojlanish omilidir.

Har xil dinga e'tiqod qiluvchi, ko'pmillatli mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, umummilliyl jipslikni saqlash, jamiyatni rivojlantirish uchun milliy, siyosiy, diniy va madaniy tolerantlik kerak. Ularsiz ichki barqaror taraqqiyot u yokda tursin, tinchlik-osoyishtalik ham bo'lmaydi. O'zaro nizolar kuchayadi, oqibatda, mamlakat parchalanib ketishi mumkin. Ilm-fanda ham tolerantlik katta ahamiyat kasb etadi. U yetishmagan joyda turli ilmiy maktablar o'rtasida nosog'lom kurash avj oladi yoki mavjud tan olingan g'oyalardan farq qiladigan yangi ilmiy goyalarni, tadqiqot usullarini olg'a surgan boshqa olimlar, ayniqsa, yoshlar tan olinmaydi, ularning g'oyalari, usullari yo'lida turli sun'iy to'siqlar paydo bo'ladi. Bu adabiyot va san'atga ham taalluqli.

O'tmishdan va zamonaviy tarixdan tolerantlik yetishmasligi qanday muammolarga, ayrim hollarda fojealarga olib kelganiga, jamiyat rivojlanishini salbiy o'zanga burib yuborganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Inkvizitsiya Jordano Brunoni (olim), Yan Gusni (diniy olim-islohotchi) gulkanda yondirib yubordi. Mansur Halloj, Suxravardiy, Nasimi, Mashrab qatl etildi. XVI-XVIII asrlarda islom mamlakatlarida mistikaga asoslangan diniy fanatizm yanada kuchaydi. Oqibatda, nafaqat dunyoviy ilm-fan, shuningdek, diniy ilm-fan ham asta-sekin chuqur inqirozga uchradi. Har qanday fanatizm - mutaassiblik muayyan bir g'oyaga, bir mafkuraga ko'r-ko'rona yopishib olish, boshqa fikrlarni, qarashlarni qat'iy rad etish, ya'ni tolerantlikning yo'qligidir. Tolerantlik yo'q yoki yetishmaydigan joyda yangi ilg'or goya tug'ilmaydi, tug'ilsada, yashab qololmaydi, inkor etiladi. Natijada, na ilm-fan, na adabiyot va san'at, na din, na urf-odatlar, na turmush madaniyati rivojlanadi. Jamiyat turg'unlikka mahkum bo'ladi. Tolerantlik inson va jamiyat taraqqiyotining muhim ma'naviy sharti ekanligi shundan.

Zamonaviy ekstremistik oqimlarning barcha ko'rinishlari asosida, diniymi, siyosiymi - qat'i nazar, avvalo, tolerantlik yetishmasligi turibdi. Amaliyotda bu fojealarga olib kelmoqda: xalqaro terrorizmni, diniy va siyosiy to'qnashuvlarni, regional va fuqarolar urushlarini, neofashistik va shovinistik harakatlarni keltirib

chiqarmoqda. Shu sababdan tolerantlikka konkret-tarixiy yondashmoq lozim. Buzg'unchi g'oyalar targ'ibotiga, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, neofashizm, irqchilik, shovinism g'oyalariga nisbatan tolerantlik qilib bo'lmaydi.

Tolerantlik qadriyatlar shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishining zaruriy shartidir. Har qanday g'oya, fikr, me'yor dastlab kimningdir ongida paydo bo'ladi. Bu goya, fikrni (qoida, tartib va x.k.ni) kim bilandir o'rtoqlashadi. Muhokama qiladi. Uning fikrini eshitib, g'oyasini, taklifini miyasida yana pishitadi. Boshqalar bilan o'rtoqlashadi. Odamlarga ma'qul kelgandan keyin g'oya, fikr, qoida, tartib astasekin hayotga tatbiq etiladi, kadriyatga aylanadi. Agar g'oyani muhokama qilgan kishining birinchi va keyingi suhbatdoshlarida tolerantlik bo'limganda, g'oya rivojlanmay, tarqalmay kolib ketardi. G'oyani sayqallash, chuqurlashtirish, rivojlantirish bir kishining emas, bir necha kishining, turli guruhlarning, tarixan har xil avlodlarning ijodiy izlanishlari, mulohazalari oqibati bo'lishi mumkin. Qadriyat darajasiga ko'tarilgan barcha g'oyalar, me'yorlar aslida ham shunday rivojlanadi. Qadriyat darajasiga ko'tarilishi uchun bir necha avlod hayotiy tajribasidan, vaqt sinovidan o'tadi, ular ta'sirida takomillashadi. Oydinlashmoqdaki, tolerantlik qadriyatlar tizimi, umuman, ma'naviyat shakllanishi va rivojlanishining zaruriy sharti va omildir.

Tolerantlik ijtimoiy ongning har bir sohasida o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi. Masalan, siyosiy tolerantlik va huquqiy tolerantlik bir-biridan farq qiladi. Siyosiy tolerantlik mafkuraviy plyuralizm va ko'ppartiyaviylikka asoslanib, turli talqinlarni nazarda tutsa, hukuqiy plyuralizm bir holatning muqobil huquqiy talqinlarini inkor qiladi. Qonun hamma tomonidan bir xil tushunilishi va talqin qilinishi lozim. Huquqiy bag'rikenglik qonunlar liberallahib, tarbiyaviy ahamiyatining oshib borishida barchaning qonuniy manfaatlari birday himoya qilinishida, noqonuniy imtiyozlarga yo'l qo'yilmasligida namoyon bo'ladi.

Tolerantlik, yuqorida ta'kidlanganidek, ma'naviyat rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir. Chunki u ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashi qatorida, odamlarning, turli partiyalarning, dinlarning, madaniyatlarning bir-biriga qiziqishini uyg'otadi. Natijada, ularning bir-biridan o'rganishlari, o'zaro boyishlari, rivojlanishi

tezlashishi uchun imkoniyat ko'payadi. Tolerantlik millatlarning, milliy madaniyatlarning o'zaro aloqa kilishi, bir-biridan o'rganib, o'zaro boyishining birinchi shartidir. O`zga millatga, tilga, dinga toqat qilolmaydigan kishi (xalq) boshqa xalq vakillari bilan aloqa qilmaslikka, milliy mahdudlikka intiladi. Boshqalar yutuqlarini, begona xalqni bo'lgani uchungina, inkor qiladi. Ularning ahamiyatini, foydaliligini tahlil qilib o'tirmaydi. Tolerantlik ruhida tarbiyalangan kishi (xalq) esa hatto dushmani erishgan yutuqlarni yoki arziydigan g'oyalarni o'rganadi. Shunday qilib, tolerantlik yuksak ma'naviyatni ifodalovchi mezon sifatida ham namoyon bo'ladi. Tolerant inson muloqot doirasini kengaytirishga, bilimlarini muttasil boyitishga, yangiliklarga intilishga moyildir. U guruhbozlik, mahalliychilik, maxdudlik, urug'-aymoqchilik, millatchilik, irqchilikdan ustun tura oladi. Tolerantlik tufayli insonda ezgulik, gumanizm, vijdonlilik, saxovat, mehr-oqibat, o'zgalarga hamdardlik fazilatlari rivojlanadi. Tolerantlik konkret-tarixiy ma'naviy hodisadir. U yovuzlikni, zulmni, zo'ravonlikni inkor qiladi.

Madaniyatda ma'naviyat predmetlashadi, yuzaga chiqadi, amalga oshadi. Ma'naviy madaniyatga biz odob-axloqni, urf-odatlar va an'analarni, ilm-fanni, adabiyot va san'atni, diniy madaniyatni, siyosiy va huquqiy madaniyat kabilarni kiritamiz. Shu sababdan, yuqorida ta'kidlanganidek, filosofiya, axloqshunoslik, etnologiya, nafosat, dinshunoslik, ruhiyat, pedagogika, fanshunoslik kabi ilmlarning asosiy tushunchalari, kategoriyalari, konunlaridan ham ma'naviyatshunoslik fani o'z ilmiy apparatini shakllantiradi. Masalan, ezgulik va yovuzlik, insonparvarlik va vatanparvarlik, vijdon va burch, ulug'vorlik va tubanlik, go'zallik va xunuklik,adolat kategoriyalari, insonni vosita emas, maqsad deb bilish, o'zingga ravo ko'rmaganni o'zgalarga ham ravo ko'rmaslik kabi axloqiy qonunlar, jamiyatni demokratlashtirish, erkinlashtirish kabi me'yorlar va tamoyillarsiz ma'naviyatshunoslik fani ilmiy apparatini tasavvur etish qiyin. Yoki iroda tushunchasini olaylik. U, ilmiy an'analarga ko'ra, axloqshunoslik (etika) va psixologiya fanlari doirasida o'rganilgan. Ayni paytda iroda ma'naviyatning voqe bo'lish, yuzaga chiqish omili. U insonning erkin

tanlashi, mas'uliyati, ruhiy-intellektual (ma'naviy) safarbarlik imkoniyati sifatida ma'naviyatshunoslik kategoriyasiga ham aylanadi.

Ma'naviyatning muhim kategoriyalardan biri qadriyat tushunchasidir. Aslida «qadriyat» falsafaning alohida sohasi - aksiologyaning fundamental, tizim yaratuvchi kategoriyasidir. Ayni paytda aksiologiya nafaqat falsafaning nisbatan alohida sohasi, shuningdek, ilmiy yondashuv usuli va yana ma'naviy ongning predmetlashgan shakli, voqeligi hamdir. Shu sababdan u ma'naviyat bilan uzviy bog'liq, qadriyat esa bir vaqtning o'zida ma'naviyat kategoriyasidir. Qadriyatlar konkret-tarixiy xarakterga ega. Ular qotib qolgan, o'zgarmas tushunchalar emas, millat bilan birga rivojlanadi, o'zgaradi, mazmunan boyiydi, shaklan xilma-xillik kasb etadi. Ba'zi g'oyalar, me'yorlar o'z davrida xalq hayotida sezilarli ahamiyat kasb etib, uning ijtimoiy mo'ljallariga kuchli ta'sir ko'rsatsada, keyinchalik ularning ahamiyati biroz pasayishi, hatto butunlay yo'qolishi mumkin. Shunda ular qadriyat maqomidan mahrum bo'ladi. Masalan, o'tmishda o'rtaosiyoliklarda (nafaqat ularda) kelin uchun qalin to'lash urfi bo'lgan. Qalin aslida qabila-urug'chilik davrida qizni boqib o'stirib, voyaga yetkazish uchun ketgan xarajatlar uchun qizning oilasiga, urug'-jamoasiga o'ziga xos tovon (kompensatsiya) sifatida berilgan. Bugun bu odat tarixan o'z umrini o'tab bo'lgan, iste'moldan chiqqan urflar qatoridan joy oldi. Biz jamiyat ma'naviy hayotining barcha sohalariga - axloqqa, huquqqa, madaniyatga va h.k.ga oid o'tmishda kadriyat hisoblangan, bugun iste'moldan chiqib ketgan yoki mazmuni tubdan o'zgargan ko'plab me'yorlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin. Lekin haqiqiy asl qadriyatlar hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydi, ajdodlardan avlodlarga o'tib kelaveradi. Avlodlar o'rtasidagi ma'naviy bog'lanish, davomiylik, vorisiylilik ular orqali ta'minlanadi.

Qadriyatlar, yuqoridaqilardan oydin bo'lmoqdaki, jamiyat hayotining sohalari va ijtimoiy ongning shakllariga muvofiq tasniflanishi mumkin. Ularni, eng avvalo, moddiy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lish lozim. Moddiy qadriyatlar bu muayyan xalqning yashayotgan hududi, yerosti va yerusti boyliklari - tabiat, ona tuprogi, dalalari, ekinzorlari, bog'lari, cho'llari, o'rmonlari, tog'lari, daryolari, jilg'alari, buloqlari, har xil konlari, qazilma boyliklari, tabiiy zaxiralari. Moddiy qadriyatlarga

tabiatdan tashqari jamiyat, insonning o'zi yaratgan, uning yashashi uchun o'ta zarur bo'lган uylar, yo'llar, bog'lar, qishloq va shaharlar, zavod va fabrikalar, mehnat qurollari, asbob-uskunalar, dastgohlar, mashina va mexanizmlar, iste'mol uchun yaratilgan moddiy buyumlar, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mollari kiradi. Lekin ilm-fanda har qanday buyum qadriyat hisoblanmasligi, moddiy-iqtisodiy qadriyatlarni ishlab chiqarilgan har qanday mahsulot darajasiga tushirishi mumkin emasligi to'g'risida qarashlar qaror topgan. Moddiy-iqtisodiy qadriyatlar insonning kundalik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan oddiy mahsulotlar emas, balki uning ijtimoiy lashuv darajasini o'stiradigan, aql-zakovati, texnologik bilimlari, salomatligi, erkinligi yuksalishini taqozo etadigan, turli tabiiy-iqtisodiy qaramligini kamaytiruvchi vositalar, ixtiolar, qurilmalar va h.k.dan tashkil topadi. Masalan, alohida olingan har qanday bank jamiyat uchun moddiy-iqtisodiy qadriyat hisoblanmasligi mumkin, ammo bank tizimi va u ko'rsatadigan xizmatlar tizimi zamонавиј iqtisodiy va ijtimoiy hayot uchun o'ta muhimdir. Shu sababdan bank tizimi moddiy-iqtisodiy qadriyat hisoblanadi. Biz bu masalaga kitobning metodologiya qismida yana qaytamiz. Ma'naviy qadriyatlar - bu millatning tili, urf-odatlari, madaniy merosi, og'zaki ijodi, adabiyoti, san'ati, ilm-fani, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash tizimi, davlat va jamiyatni boshqarishda erishgan yutuqlari, yaratgan va amal qiladigan axloqiy, huquqiy, badiiy-estetik va boshqa ijtimoiy ideallari, mo'ljallaridir. Ular millatning ma'naviy qiyofasini, milliy o'ziga hosligi va takrorlamasligini, milliy mentaliteti, tafakkurini belgilaydi.

Asl qadriyatlarda milliylik va umuminsoniylik mujassamlanadi. Yana shuni qo'shimcha qilish lozimki, haqiqiy milliylik millatchilikdan, shovinizmdan farq qiladi. Uz millatini sevgan, vatanparvar kishi boshqa millat vakili ham o'z yurtini, ona tilini, urf-odatlari, milliy adbiyoti va san'atini sevishga haqqi borligini zinhor inkor etmaydi. Asl milliylik, agar u haqiqatan teran mazmunli va yuksak shakllarda ifoda etilsa, umuminsoniy ahamiyat kasb etadi, nafaqat o'z xalqiga, shuningdek, boshqa xalqlarga ham foydali bo'ladi. Biror bir milliy qiyofaga ega bo'lмаган, kelib chiqishiga ko'ra hech bir xalq hayoti, faoliyati bilan bog'lanмаган umuminsoniy qadriyatning o'zi yo'q. Masalan, mavhum, hech bir xalqqa tegishli bo'lмаган

umuminsoniy adabiyot yoki san'at yo'q. Jahon adabiyoti milliy adabiyotlar daholarning eng sara asarlaridan tashkil topadi. Aynan adabiyot va san'atda milliylik umuminsoniylikning mavjudlik shakli ekani yorqin ko'rindi. Siyosiy, demokratik qadriyatlar mazmunan va shaklan bevosita milliy belgilarga ega emas. Ammo ular ham aslida, kelib chiqishiga ko'ra, qaysi bir xalqning, qaysi bir olim yoki jamoat, davlat arbobining ijodi va faoliyati bilan bog'liq.

Hokimiyatning bugungi tushunchadagi legitimligi (qonuniyligi) va o'z legitimligini yo'qotishi masalalarini biz Jan Jak Russo, fransuz ensiklopedistlari, siyosiy arboblari asarlari va nutqlarida uchratamiz. Buyuk fransuz inqilobi ushbu masalani kun tartibiga qo'yib, Burbonlar hokimiyatini ag'darib tashlashni, qirolni va a'yonlarini sudga berishni huquqiy jihatdan asosladi va amalga oshirdi (to'g'risi, juda keskin hukm chiqarib, qatl qildi). Hokimiyatning uch tarmog'i - qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatlarini bir-biridan ajratish haqidagi g'oyalar buyuk fransuz ma'rifatparvari, faylasuf va adib Sh.Monteskye tomonidan XVIII asr birinchi yarmida olg'a surilgan, keyinchalik fransuz va ingлиз olimlari tomonidan rivojlantirilgan.

Davlat qonunlari uning Konstitutsiyasiga (asosiy qonuniga) zid kelmasligi, agar zid kelsa, uni bekor qilish yoki unga tuzatish kiritish lozimligi g'oyasini ilk bor AQSH davlat kotibi Adams XIX asr boshida olga surib, prezidentlikka saylangach, amalga oshirgan edi. Ko'rinish turibdiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar g'oyibdan kelib qolmaydi. Ular muayyan xalqning tarixiy taraqqiyoti, faoliyati mahsulidir. Ularning insonparvarlik, ezgulik bilan yo'g'rilganlari, taraqqiyotga, yuksalishga xizmat qiladiganlari uni kashf etgan xalq, mintaqaga doirasidan chiqib butun dunyoga tarqaladi, xalqaro siyosiy, huquqiy me'yorlarga aylanadi. Lekin bu milliylik va umuminsoniylik deyarli bir tushuncha ekan, degani emas. Ularning o'zaro aloqalari ancha murakkab va ziddiyatli, dialektik xarakterga ega. Ba'zan ularning bir-biriga aylanishiga- milliylik umuminsoniylikka, umuminsoniylik milliylikka aylanishiga guvoh bo'lamiz. Yuqorida milliylikni umuminsoniylikka o'tishi-ga oid misollar keltirdik. Ayni paytda umuminsoniy qadriyatlarning muayyan xalq tomonidan o'zlashtirilishi, o'z ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy hayotida qo'llashi,

masalan, mustaqil O`zbekistonda hokimiyat uch tarmog'ining bir-biridan ajratilishi, san'at va adabiyotida roman, drama, opera, simfoniya, haykaltaroshlik, rangtasvirning ba'zi janrlarining qabul qilinishi va rivojlanishi, yuksak texnologiyalarning ishlab chiqarishda qo'llanilishi va ko'plab boshqa misollar umuminsoniy qadriyatlarning milliy qadriyatlarga aylanishidir. Umuminsoniylik va milliylik munosabatlari va nisbati, dialektikasi, shunday qilib, ayniyat, farq, ziddiyat, qarama-qarshilik ko'rinishlarida yuzaga chiqishi mumkin. Roman va opera - umuminsoniy janrlar. Lekin o'zbek romani ingliz va fransuz romanidan, o'zbek operasi italyan va boshqa xalqlar operasidan farq qiladi. Axloq-odob qoidalari umuminsoniy, ammo ba'zi axloq qoidalari milliy mentalitet, diniy e'tiqod ta'sirida Sharq va G'arb xalqlarida bir-biridan ancha farq qiladiki, ular o'rtasida ziddiyat, xatto qarama-qarshilik mavjud. O'zbeklar, tojiklar ota-onasiga yoki kattalarga «siz» deb murojaat etadi. Ayrim xalqlar «sen» deb. Ammo bu ularning odobsizligini bildirmaydi.

Ma'naviyatshunoslik fani jamiyatdagi qaror topgan muhitni va uning tendensiyalarini o'rganish uchun ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, hayrixohlik, tolerantlik (bag'rikenglik), mehr-oqibat, millatlararo totuvlik, o'zaro yordam, milliy jipslik, o'zlikni anglash, milliy identlik yoki ularning muqobillarini anglatuvchi ijtimoiy beqarorlik, mutaassiblik, mahalliychilik, guruhbozlik, millatchilik, ayirmachilik va boshqa tushunchalardan foydalanadi. Ulardan tashqari, ma'naviy ong va ma'naviy madaniyatni, irodani o'rganishdagi kabi, yana ijtimoiy filosofiya, siyosatshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, huquqshunoslik, xatto iqtisodiyot nazariyasi fanlari tushunchalaridan foydalanadi. Zero,ma'navii muhitni to'la tushunish, tahlil qilish uchun ijtimoiyadolat, demokratiya, inson huquqlari va erkinliklari, turmush darajasi va farovonligi, ijtimoiy ta'minot va himoya kabi ko'plab fanlar tushunchalariga murojaat etish lozim.

Shunday qilib, ma'naviyatshunoslik fani kategoriyalari va asosiy tushunchalari ilmiy bilish tizimida o'zining alohida o'miga ega bo'lishi qatorida boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tushunchalari bilan uzviy bog'liq, ular bilan yagona ontologik, gnoseologik, metodologik va mantiqiy bus-butunlikni tashkil qiladi.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. O'zlikni anglash ma'naviyatning asosiy kategoriyasi sifatida?
2. Ma'naviyatning tolerantlik kategoriyasi?
3. Qadriyat tushunchasi?
4. Ma'naviyatshunoslik fani kategoriyalari va asosiy tushunchalari?
5. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tushunchalari?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2018. - 480 b.
5. Qosimon B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011.
6. Yusupov E. Xadislarda dunyoviy va diniy g'oyalarning bog'liqligi. - «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 1994, 5-son.

6-MAVZU: MUSTAQILLIK DAVRI MA'NAVIYATI

Reja:

1. Mustaqillik va ma'naviyat. Mustaqillik mas'uliyati.
2. Mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi hamda madaniy meros, diniy an'ana va qadriyatlarimizning tiklanishi.
3. Milliy-ma'naviy yangilanish, yuksalish – taraqqiyot omili.

Tayanch so'zlar:

Ma'naviy tiklanish, konsepsiysi, "O'zbek modeli", mentalitet, sarmoya, ulug'vorlik, ibrat, milliy g'oya, tarixiy xotira, siyosat, ma'naviy yuksalish, bardavomlik, ma'rifat, taraqqiyot, madaniyat, tafakkur, asorat, millat, tamoyil, e'tiqod, buyuk kelajak, islohat, tadrijiy, og'zaki ijod, manqurt, milliy tabiat, o'zlikni anglash.

Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin tarixan qisqa vaqt ichida

iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu yutuqlarga Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurish Konsepsiysi nazariy asos bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Bu konsepsiya millatimizning o‘ziga xos urf-odatlari, an’analari, qadriyatlar va mentaliteti hamda mamlakatimiz taraqqiyot darajalarini qat’iy hisobga olish bilan “O‘zbek modeli”ni o‘zida aks ettirgan.

O‘zbekiston sobiq sho‘rolar totalitarizmi sharoitida yashab kelganligi bois, uni tugatib, demokratik jamiyat qurish tomon qadam qo‘yish juda murakkab masala edi. Chunki, totalitarizm nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotga, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy hayotga, insonlarning dunyoqarashiga o‘zining ta’sirini o‘tkazgan edi. Shuning uchun ham demokratik jamiyat qurishning “o‘zbek modeli”da jamiyatni tubdan o‘zgartirishga xizmat qiluvchi asosiy tayanch manba sifatida yangi ma’naviyat va dunyoqarashni shakllantirish belgilandi.

Birinchi Prezidentimizmiz 1992 yildayoq, “Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak, deganlar haq bo‘lmasalar kerak. Ma’naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir”¹, - deb ta’kidlagan edi.

Ana shu ko‘rsatmaga muvofiq ma’naviyatni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda unga tayanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Xususan Birinchi Prezidentimizmizning 1994 yil 23 aprelda Respublikamizda “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tuzish to‘g‘risida”, 1996 yil 9 sentabrda esa “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”, 1999 yil 3 sentabrdagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonlari va 1998 yil 24 iyuldagagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, maxsus qarori qabul qilindi. Bu hujjatlarga binoan Respublika Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi 1997 yildan boshlab barcha oliy

¹ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқолол ва тараққиёт йўли. -Т.: “Ўзбекистон”, 1992. –Б.72- 73.

o‘quv yurtlarida “Ma’naviyat va ma’rifat asoslari” maxsus kursini o‘qitish to‘g‘risidagi qaror qabul qildi va uning dastlabki o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

O‘tgan davr ichida ma’lum bir tajribalar to‘plandi, kursda foydalanish bo‘yicha bir qator ilmiy va ommabop maqolalar hamda risolalar chop etildi. Chunki, xalqimizning, jamiyatning ma’naviyatini ko‘tarish va rivojlantirish bugun ham, ertaga ham muhim vazifa sifatida qolishi muqarrardir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma’ruzasida O‘zbekistonning XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berar ekan, “Ikkinchi ustuvor yo‘nalish-jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat”¹²ligini ta’kidlab o‘tdi.

Mustaqilligimizni mustahkamlashda bugungi kunda xususan yoshlarning ruhan baquvvat bo‘lishiga, o‘z Vatani va xalqi manfaatlarining fidoiylari bo‘lib yetishlarida va yot mafkuralarga qarshi kurashlarida muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari” konsepsiyasiga yozgan so‘z boshlarida: “Oldimizga qo‘yan olajanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda”¹³ Haqiqatan ham ma’naviyat qanchalik yuksak bo‘lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg‘ulari yuksak darajaga ko‘tariladi, o‘zaro munosabatlarda samimiylilik, birdamlik, mehr-oqibat, e’tiqod, imon, ma’suliyat va boshqa bir qator ijobiliy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o‘rin olib boraveradi.

¹²Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. –Т.: “Ўзбекистон”, 2000. -Б. 23.

¹³ Миллий истиқлол гояси: асосий тушунча ва тамоиллар. –Т.: “Ўзбекистон”, 2000 .-Б. 5.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, informatsion inqilob, glaballashuv jarayonlari, jahon maydonlarini ta’sir o’tkazish maqsadida bo‘lib olishga intilish tobora kuch olayotgan sharoitda Birinchi Prezidentimizmiz aytganidek: “Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma’naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intelektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talabalarga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yanmiz”¹⁴

Ana shu o‘ta muhim vazifalarni hal qilishimiz uchun mustaqillik ma’naviyatini shakllantirish va milliy istiqlol g‘oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir. Bu o‘z navbatida biz qo‘lga kiritgan istiqlolning ma’no va mazmuni, milliy o‘zligimizni to‘la anglashimizga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularimizni mustahkamlashimizga, Vatan va millat istiqboli uchun har birimizning ma’sulligimizni tushunib yetishimizga o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatadi.

Xuddi mana shularni ijobiy hal qilishimiz uchun Birinchi Prezidentimizmiz ma’naviyatimizni yangilash borasida oldimizga qo‘yan vazifalarni muvafaqqiyatlari hal etishga imkon beradi. Zero, ular ta’kidlaganidek, “Jamiyatni ma’naviy yangilashdan bosh maqsad- yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy xamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘p-ko‘p muhim masalalardan iborat”¹⁵. Bu ulkan vazifalarni ma’naviyatimizni milliy istiqlol g‘oyalari bilan boyitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi.

Shu ma’noda ham ma’naviyatni talaba-yoshlarimizga o‘rgatishga ehtiyoj o‘sib bormoqda va bu borada oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ayniqsa, mukammal o‘quv qo‘llanmalarni va ular asosida darsliklarni yaratish ana shunday dolzarb masalalardan hisoblanadi.

¹⁴Каримов И.А. Асосий вазифамиз – ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдур. – Т.: Ўзбекистон, 2010.-Б. 74-75.

¹⁵ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончdir. –Т.: “Ўзбекистон”, 2000. –Б. 23-24.

Bu vazifaning murakkabligi shundaki, “Ma’naviyat asoslari” mustaqilligimizning mevasi sifatida paydo bo‘ldi. Mustaqilligimizgacha, bu tushuncha mustaqil ravishda o‘zining aniq tasnifiga ega bo‘lmagan, aynan unga bag‘ishlangan ilmiy asarlar ham yaratilmagan. Bu kurs mamlakatimizning tubdan yangilash va mustaqil taraqqiyotimizga xizmat qiluvchi ma’naviyatni shakllantirishning ehtiyoji sifatida paydo bo‘ldi.

Shuni hisobga olib mualliflar jamoasi o‘quv darsligini yozishda o‘zlarini tomonidan tayyorlanib, 2002 yilda e’lon qilingan “Ma’naviyat asoslari” qo‘llanmasini qayta ishlab, uni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asaridagi konseptual g‘oyalar bilan boyitib hamda unga “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” konsepsiyasini singdirgan holda so‘nggi yillarda olimlar, adabiyotshunoslar va ma’naviyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar tomonidan chop etilgan kitoblar va maqolalardan material sifatida keng foydalandilar. “Ma’naviyat asoslari” o‘quv darsligi sifatida birinchi bor yozilayotganligi sababli mualliflar, uning kamchiliklardan holi emasligini e’tirof etadilar va ular haqida bildirilgan har qanday tanqidiy fikrlarni va takliflarni bajonidil qabul qiladilar, kelajakda ulardan foydalanadilar hamda o‘z fikrlarini bildirgan barcha kitobxonlarga oldindan minnatdorchilik izhor etadilar.

Ma’naviyat sobiq sho‘rolar hukumronligi sharoitida mustaqil mavzu yoki masala sifatida o‘rganilmasdan kelinayotgan edi. Unga madaniyat bilan bir xil ma’noni anglatuvchi, mustaqil yo‘nalishga ega bo‘lmagan tushuncha sifatida qarab kelingan. Hatto, ayrim adabiyotlarda har ikkala tushunchani bir xil mazmunni anglatuvchi so‘z ma’nosida qo‘llanilib kelingan. Bunday «etiborsizlik» natijasida barcha lug‘atlarda ham «ma’naviyat» tushunchasiga aniq va mustaqil ta’rif uchramaydi. Buning asosiy sababi, sho‘rolarning jamiyat a’zolari ongi va qalbini insoniyat aql zakovati bilan yaratilgan ma’naviy boyliklardan bebahra qilish, ularni tuzumning manfaatlariga xizmat qiluvchi g‘oya va mafkuralar bilan qurollantirishga qaratilgan g‘ayri ilmiy, g‘ayri insoniy siyosati bo‘lgan edi. Bunday siyosatdan maqsad, jamiyat a’zolarini, ayniqsa yoshlarni ana shu g‘oya va

mafkulalar vositasida mazkur tuzumga itoatkor, uning jirkanch manfaatlarini hech ikkilanmasdan bajaradigan va dunyoqarashi mo‘telik ruhiyati bilan to‘ldirilgan shaxslarni tarbiyalashdan iborat edi.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy dunyosini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqoza etadi. Xuddi ana shu vazifa «ma’naviyat»ni mustaqil fan sifatida o‘rganishni ham kun tartibiga qo‘ydi.

Mustaqillik ma’naviyatining tayanch qoidalari 1992 yildayoq Birinchi Prezidentimizmizning kitoblarida aniq va ravshan ifodalab berilgan edi. Ma’naviyat haqida har qancha gapirish, yozish mumkin. Ammo ma’naviyat falsafa emas, dunyonи har qancha izohlab, qonun-qoidasini aniqlab, tushuntirib bergeningiz bilan siz aqli, bilimdon, mantiqiy fikrlovchi odam sifatida qadrlanishingiz mumkin, ammo bular sizni ma’naviy barkamol ekanligingizdan dalolat bermaydi. Yana Siz o‘ta iste’dodli bo‘lishingiz, Vatan haqida, mustaqillik haqida ajoyib qasidalar bitishingiz mumkin. Albatta, iste’dod ham ma’naviyat nishonasi, ammo ta’rifu tavsiflar bilan Vatan ravnaqi ta’min etilmaydi, mustaqillik mustahkamlanmaydi. Mustaqillik ma’naviyatning bosh mezoni, asos poydevori mas’uliyat tuyg‘usidir.

Necha ming yillik tarix davomida ne-ne xoqonlar-u xonlar, amirlar-u shohlar o‘tdi. Ularning birlari millat dovrug‘ini dunyoga tarqatgan bo‘lsalar, boshqalari yurtni abgor qilganligi ham sir emas. Oxirgi yuz yil davomida yurtimizning yetakchi o‘g‘lonlari foje taqdirga ro‘baro‘ keldilar. Amir Olimxonning siyosatidan norizo bo‘lgan Fayzullaxo‘ja xalqim deya qon yutdi, ammo orzusi ushalmadi. Usmon Yusupov umrini O‘zbekiston xalqi uchun tikdi, ammo xalq asoratda qolaverdi. Sharof Rashidov xalq og‘irini yengil qilaman deb ko‘p urindi, ammo oxiri borib xalqni ham, uning o‘zini ham yomon otliq qilish boshlandi. Qaramlik kasofatidan edi bu fojialar. Yangi davrda o‘zbek xalqining baxti Islom Karimov nomi bilan bog‘landi.

Biz Birinchi Prezidentimizning mustaqil milliy siyosat, Ota yurt mavqeini olam uzra yuksaklarga ko‘tarish, mamlakatda barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlash, demokratik huquqiy davlat tizimini shakllantirish, ijtimoiy kafolatlarni mukammallashtirish yo‘lidagi va boshqa qator xizmatlariga alohida to‘xtalmaymiz. Zotan, bularning har biri alohida mavzu.

Sobiq SSSRning xomashyo bazasi bo‘lmish markaz manfaatlariga qat’iy bo‘ysunuvchi yagona tizim zanjiriga qo‘loyog‘i, har bir hujayrasi bilan chambarchas bog‘lab tashlangan respublikaning asli nochor iqtisodiy ishlab chiqarish binosi, SSSR parchalangach, butkul xarobaga aylangan edi. Islom Karimov bozor iqtisodiga o‘tish yo‘lidagi islohotlarni shunday murakkab sharoitda, shunday nosoz poydevorga tayanib amalga oshira boshladi. Bugungi kunda O‘zbekistonning ahvoli Mustaqil davlatlar hamdo‘stligida barqarorligi va ijobjiy siljishlari bilan ajralib turibdi. Ammo biz iqtisodiy masalalarga ham batafsил to‘xtalmoqchi emasmiz.

Bugungi kunda aytish mumkinki, O‘zbekiston jahon miqyosida o‘ziga xos barqaror siyosiy mavqe kasb etib turibdi. Jahonning eng ilg‘or davlatchilik an’analarini o‘zbekning milliy tabiat bilan, o‘z qadim udumlari bilan uyg‘unlashtira olgan Konstitutsiyamiz-mustaqil mamlakatning asosiy qonuni — har bir sohada batafsил ishlab chiqilayotgan qonun va kodekslar bilan amalda qo‘llanib, mustahkamlanib bormoqda. Bozor iqtisodiga o‘tish, mamlakatning ichki iqtisodiy tizimini uyg‘unlashtirish, ilg‘or texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tadbiq etish borasida o‘tgan yillar ichida ulug‘ ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ijtimoiy uyg‘unlik, barqaror osoyishtalik, xalq birdamligi fikrlar, qarashlar xilmaxilligi bilan bahamjihat rivojlanmoqda. Turli siyosiy partiyalar o‘z mustaqil yo‘nalishlarini shakllantirib, siyosiy muhorabaning madaniyatli usullarini, demokratik tamoyillarini o‘zlashtirib bormoqdalar. "Vatan manfaatini, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo‘yadigan, qalbida o‘ti va erk tuyg‘usi bor, g‘ayrat-shijoatli ayniqla, bugungi kun millat ehtiyoji va jahon talablariga javob bera oladigan yosh va qobiliyatli avlod asta-sekin maydonga kirmoqda. 16"Xullas, yutuqlar bisyor. Eng muhimmi, xalq, millat o‘zligini anglab bormoqda.

¹⁶Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура. 1-жилд.-Т.: Ўзбекистон, 1996.-Б.245.

Ammo, bari-bir, xotirjamlikka o‘rin yo‘q. Chunki muammolar hanuz yetarli. Jumladan, kishilarimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy tarbiyasi borasida qiyinchiliklar ko‘ngildagidek bartaraf etildi, deyish qiyin. Insonlar ongining eski aqidalar asoratidan poklanishi oson savdo emas ekan. Ayniqsa, yurtning yetakchilari bo‘lishi lozim bo‘lgan ziyolilarimiz ruhiga singib ketgan ko‘nikmalarni yengib o‘tish mashaqqati har qadamda sezilib qolyapti. Agar katta-kichik rahbarlar ham odatan ayni shu ziyolilar toifasi ichidan yetishib chiqishini inobatga olsak, vaziyatning jiddiyligi yanada oydinlashadi. Ularning har biri jamiyatda o‘zi egallab turgan mavqe va maqomini butun mas’uliyati bilan, ko‘lami va zalvori bilan his etyaptimi, o‘tmish va kelajak oldida, xalq va Allah oldida o‘zining har bir qadami uchun javob berishga hozirmi? O‘ziga ishonib topshirilgan vazifani eplab, ko‘ngildagidek uddalay olishga qudrati, bilim va iqtidori, iroda va saboti yetadimi? Nega jamoani boshqarish iqtidori, amalga oshirgan ezgu ishlari tufayli xalq e’tiborini qozongan, yaxshi nom orttirgan odamlar ba’zan kattaroq lavozimlarga munosib topilsa, ikki-uch yil o‘tmay tabiatida o‘zgarish paydo bo‘lib qolyapti?

Iqtisodiy va siyosiy islohotlar xalq ongiga teran yetib borishi, amalda jadal o‘zgarishlar hosil qilishi uchun insonlar ongida tub o‘zgarishlar yuz berishi zarur. Biz totalitar davlat mulkiga asoslangan iqtisodni rad etib, mulkchilik shakllarining turlitumanligiga asoslangan erkin bozor iqtisodiga o‘tmoqdamiz. Siyosatda yakka partiya, yagona mafkura zo‘ravonligiga barham berib, ko‘p partiyaviylik, fikr va qarashlar xilmaliligiga yo‘l ochmoqdamiz. Lekin insonlar tafakkurini eski andazalar, tor qoliplar tugal tark etishi qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Tafakkurimiz, qarashlarimizdagi yangi tamoyillar hanuz ancha yuzada, ongimizning sirtqi qatlamlarida qolib ketmoqda, ba’zan yangi qadriyatlarni ham eski o‘lchovlar bilan baholashga urinmoqdamiz. Insonlar ongida tub o‘zgarishlar yuz bermas ekan, O‘zbekistonning buyuk kelajagini qurish orzusi shirin xayolligicha qola beradi. Ma’naviyat va mafkuraga alohida e’tibor qaratilishining bosh sababi ham shunda.

Ma’naviyat tushunchasiga Islom Karimovning ta’rifi

Ma’naviyat tushunchasi, uning mohiyati haqida turli adabiyotlarda bildirilayotgan fikrlar haqida oldingi mavzuda to‘xtalib, ularning metodologik asosi sifatida Islom Karimov tomonidan berilgan ta’rifni ko‘rsatib o‘tgan edik. Uni

ma’naviyat tushunchasiga berilayotgan ta’riflar, uning jamiyat va shaxs kamolatga o‘rnini ko‘rsatib berishda metodologik asos bo‘lishining ikki sababi bor:

Birinchidan, Birinchi Prezidentimizmiz mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin nafaqat mamlakatimizda, shuningdek butun MDH mamlakatlari rahbarlari orasida birinchilardan bo‘lib, «Ma’naviyat» tushunchasini ilmiy iste’molga kiritdi va uning jamiyat va inson kamolotidagi o‘rnini ilmiy asosladi hamda uni amaliyotga tadbiq etib kelmoqda.

Ikkinchidan, u mamlakatda olib boriladigan islohotlarni ma’naviy sohada olib boradigan islohotlar bilan uzviy ravishda olib borish zarurligini ilmiy asosladi va unga o‘zi rahbarlik qilib kelmoqda. Birinchi Prezidentimizmiz ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi rolini ayrim davlatlar rahbarlari va olimlaridan oldin ko‘ra bildi. Bu endi taraqqiyot yo‘liga kirayotgan mamlakat uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bularning hammasini jamlaganda aytish mumkinki, Birinchi Prezidentimizmiz tomonidan «Ma’naviyat»ga berilgan ta’rif to‘la qonli ilmiy - falsafiy ta’rif bo‘lib, uning barcha qirralarini o‘zida qamrab olgan.

U «Ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon - e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.»¹⁷ - deb ta’kidlaydi. Mazkur ta’rif o‘zining mazmuni va mohiyati bilan «Ma’naviyat» ning barcha qirralarini o‘ziga qamrab olgan. Unda insonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi barcha komponentlar o‘z ifodasini topgan va uning inson barkamolligini ta’minlaydigan katta kuch ekanligi belgilab berilgan.

Islom Karimov «Ma’naviyat»ga ta’rif berishda, uning jamiyat taraqqiyotiga o‘tkazadigan ta’sirini ham hisobga oladi va uni rivojlantirish zaruriyatini o‘z asarlarida har doim ta’kidlab kelmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ma’naviyatni shaxs, millat davlat va jamiyatning qudratli kuchi sifatida hamda shaklan va mazmunan uyg‘un holatda o‘rganish faqat mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingina

¹⁷ Каримов И. А. “Юксак маънавият – енгилмас куч”. –Т.: Ўзбекистон, 2008.-Б. 19.

boshlandi. Ma’naviyatni bu shaklda o‘rganish esa hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, mustaqillik sharoitidagi milliy tafakkur taraqqiyotimizda yangi yo‘nalishdir. Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishi va uning konseptual g‘oyalarini nazariy jihatdan ishlab chiqish Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov nomi bilan bog‘liqdir. Uning asarlari, risolalari, ma’ruzalarida ma’naviyat tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Bu ma’naviyatni mustaqil omil sifatida o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki har qanday ilgari surilayotgan g‘oyalarning mohiyati ochib berilmas ekan, uning jamiyat taraqqiyotida millat va shaxs kamolotidagi rolini belgilash mumkin bo‘lmaydi

Birinchi Prezidentimizmiz milliy taraqqiyotimizning dasturi darajasiga aylangan birinchi asari «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» dayoq ma’naviyatning inson hayotidagi ahamiyatini ochib berib shunday yozgan edi: «Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog‘ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha – necha azoblar va qiyinchilik bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi».¹⁸

Mamlakatda o‘tkazilayotgan islohotlar va uning vazifalarini belgilab berishda Birinchi Prezidentimizmiz yana ma’naviyatni rivojlantirish masalasiga qaytib shunday yozadi: «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar- o‘z yo‘liga.Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta’minotini ham amallab turish mumkin, ammo ma’naviy islohotlar – qullik, mu’telik iskanjasidan ozod bo‘lish, qaddini baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q, bu dunyoda».¹⁹

Ya’ni, bu yerda Birinchi Prezidentimizmiz o‘tkazilayotgan islohotlarning asosiy tomonini milliy-ma’naviy tiklanish tashkil qilishini ta’kidlamoqda. Ularning bu g‘oyalariga muvofiq qullik, mu’telik iskanjasidan ozod bo‘lgan, o‘zining kimligini anglagan, millatining o‘zligini tarannum etgan insongina mamlakatni taraqqiyotga o‘z xissasini qo‘shishi mumkin.

¹⁸ Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т.: Ўзбекистон, 1993.-Б.78.

¹⁹ Ўша асар. -Б.1-202.

Birinchi Prezidentimizmiz ma’naviyat tushunchasi mazmunini olib berar ekan: «Er, oila, ota-on, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni – qo‘snilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik-ma’naviyatning ma’nosi ana shunday keng»²⁰ - deb ta’kidlaydi.

Ma’naviyat o‘z-o‘zidan shakllanadigan narsa emas, u avvalo har bir insonning ichki ma’naviy salohiyatini shakllantirish yo‘lida barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish, Vatan va millat manfaatlari yo‘lida halol, fidoyilik bilan mehnat qilish jarayonida shakllanadi. Shu ma’noda ham Birinchi Prezidentimizmiz «Ma’naviyat-taqdirning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak»²¹ ligini ta’kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, Birinchi Prezidentimizmiz ma’naviyatni «tayyor» holatda qaramaydi. Uni shakllantirish va rivojlantirish, millatning chinakkam mulkiga, taraqqiyot omiliga aylantirish uchun fidoyilik ko‘rsatish zarurligini ta’kidlamoqda.

Birinchi Prezidentimizmiz asarlarini qunt bilan o‘rganib borar ekanmiz, ularda oldingi asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar keyingilarida ijodiy rivojlantirilganligi, mazmunan va mohiyatan boyitilganligini ko‘ramiz. Eng asosiysi shundaki, ana shu boyitish jarayonida jamiyat va millatimiz taraqqiyotida sodir bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda yuzaga kelgan yangi muammolarni hal etishning nazariy asoslari o‘z ifodasini topgan. Shu munosabat bilan ma’naviyatning jamiyatni rivojlanishidagi roli haqida Birinchi Prezidentimizmiz tomonidan keltirilgan quyidagi fikrlarning mohiyatini tushunib olib, uni bevosita har birimiz o‘zimizning kundalik vazifamizga aylantirishimiz millatimiz va mamlakatimiz taraqqiyotini ta’minalash uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir. «Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi,

²⁰ Ўша асар.-Б. 78.

²¹ Ўша асар.-Б. 79.

an'analarimizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lif rivoji bilan uzviy bog'liqdir».²²

Haqiqatan ham ma'naviy qashshoqlik bilan hech qachon millat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga erisha olmaydi. Ma'naviyat har qanday taraqqiyot uchun manba bo'lib hizmat qiladi. Chunki ma'naviyat qancha yuksak bo'lsa, qilinadigan ishlarning samaradorligi va unumi ham shu darajada yuksak bo'ladi.

Ma'naviyat orqali inson va millat qilinayotgan ishlarning mazmuni va mohiyatini aniq tushunib yetadi, o'z mehnatini quvonch hamda taraqqiyot omiliga aylantirishga erishadi.

Shu ma'noda ham Birinchi Prezidentimizmiz ma'naviyatni isloh qilishni birinchi darajali vazifa sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

Birinchi Prezidentimizmiz ma'naviyatning mohiyatini ochib berish bilan bir vaqtda bu sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlarning strategik yo'nalishlarini ham belgilab beradi. Shu jumladan, u «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida quydagilarni ta'kidlaydi: «...avvalambor yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar qilib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish, ularning, men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishidir».²³

Mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan keyingi o'tgan davr ichida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov asarlari va ma'ruzalarida «Ma'naviyat»ning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotida va inson kamolotida tutgan o'rni haqidagi g'oyalari yana ham rivojlantirilib kelindi. Birinchi Prezidentimizmiz «Ma'naviyat»ga jamiyat barcha sohalarda sodir bo'ladigan o'zgarishlarning manbai sifatida qarab keladi. Shuning bilan birga ma'naviyatni mamlakatimiz va yoshlarimizga qarshi qaratilgan turli xurujlar hamda yovuz kuchlardan himoya

²² Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Т.: Ўзбекистон, 1993. -Б.18.

²³ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкура – халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. –Т.: Ўзбекистон, 2000, -Б. 12-13.

qilishda qudratli kuch ekanligiga e’tiborni qaratadi. U «Bunday balo – qazolarga» qarshi kurashda, farzandlarimizning ma’naviy dunyosini himoya qilishda nimalarga tayanishimiz zarur? Avvalo to‘g‘ri tarbiya, sog‘lom turmush g‘oyasi, faqatgina qattiq iroda va iymon-e’tiqod hisobidan bunga erishish mumkin»,²⁴ deb ta’kidlaydi. Bunday vazifani amalga oshirishning asosiy imkoniyati yoshlarimiz ongi va qalbiga ma’naviyatimizning bitmas – tuganmas boyliklarni yetkazish hisoblanadi.

«Ma’naviyat» tushunchasiga tarif berishda, uning jamiyat va inson kamolotida o‘rnini belgilab berishda Birinchi Prezidentimiz ana shu konseptual g‘oyalarni izchillik bilan rivojlantirib kelmoqda.

Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasи

Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiya mamlakatimiz va xalqimiz yorug‘ kelajak taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma’naviy tiklanishi ustuvor o‘rinni egalladi. Bu albatta bejiz emas. Chunki ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o‘z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zamin bo‘lib xizmat qiladi. Buni chuqur his qilgan va o‘z qalbidan o‘tkazgan Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurishni milliy-ma’naviy tiklanish bilan uyg‘un holatda bo‘lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. U o‘zining hajmi jihatdan kichik bo‘lsa ham, ammo mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatdan mukammal, fundamental dastur bo‘lgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida mustaqillikdan keyin O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy sohasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi.

²⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон мустақил тараққиёт йўлида. –Т.: Ўзбекистон, 1994.-Б. 29.

Umuman bu asar O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmga asoslangan dasturi hisoblanadi. Chunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g‘oyalar o‘tgan davrda o‘zining amaliy isbotini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Islom Karimov ushbu asarida mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy – ahloqiy negizlarini belgilab berar ekan, «O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o‘z yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi»- deb ko‘rsatadi va quydagilarni belgilab beradi.

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik.²⁵

Asarda ana shu negizlarning mohiyati ham ochib berilgan. Jumladan, Islom Karimov shunday yozadi: «Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

Xalqimiz adolat, tinchlik, ahl-qo‘snnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab – asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir».²⁶

Ko‘rinib turibdiki, Birinchi Prezidentimizmiz o‘z asarida ma’naviyatimizni rivojlantirish vazifalarini belgilab bergan.

Muallif xalqimizning ma’naviy ildizlari chuqr ekanligini alohida ta’kidlaydi, ularni qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitish zarurligini strategik vazifa sifatida belgilaydi. Bu masalaga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, Birinchi keyingi asarlarida ham ma’naviy merosimizni qayta tiklash g‘oyasini ijodiy rivojlantiradi va uning millatimiz ma’naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo‘nalish bo‘lishini asoslab beradi.

²⁵Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Т.: Ўзбекистон, 1993.-Б.74.

²⁶ Ўша жойда.

Islom Karimov xalqimizning buyuk fazilatlari haqida to‘xtalib insonparvarlikning o‘zbeklarga xos qirralarini ko‘rsatib berishga e’tiborni qaratadi. Jumladan, «Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shafqatsizlik va zo‘ravonlik uning tabiatiga yotdir».

Xuddi mana shu fazilatlarimizning mohiyatini yoshlarga yetkazish tarbiyaviy ishimizning diqqat markazida bo‘lishi zarur. Chunki milliy ma’naviyatimizning asosiy manbalari ana shunga borib taqaladi. Bugungi yoshlarimiz buning mohiyatiga yetib borishlari zarurdir.

Asarda ma’naviyatning xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Birinchi Prezidentimizmiz shunday yozadi: «Xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiya va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib yetish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan yetilgan».²⁷

Ma’naviyatning milliy taraqqiyotidagi o‘rni va uni o‘zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan: «Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi».²⁸

Birinchi Prezidentimizmiz tomonidan ilgari surilgan ana shu konseptual g‘oyalar bugungi kunda milliy ma’naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa sifatida belgilanishga xizmat qilib kelmoqda.

Islom Karimov o‘z asarida mamlakatimizda milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa ekanligiga e’tiborni qaratib quydagি konseptual g‘oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak deydiganlar haq bo‘lmasa kerak. Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt- saodat bo‘lmaydi»

²⁷ Ўша асар .-Б.78.

²⁸ Ўша жойда.

Birinchi Prezidentimizmiz tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g‘oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki: birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho‘rolar davrida ma’naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy – ma’rifiy inqirozining sabablarini ham ko‘rsatib beradi. Ikkinchidan, ma’naviyatni rivojlantirmsandan, shaxsning ma’naviy – ruhiyatini o‘zgartirmasdan turib jamiyatda ko‘zlagan maqsadni amalgalashish mumkin emasligini ilmiy asoslab berdi.

Birinchi Prezidentimizmizning yana bir muhim konseptual g‘oyasi ma’naviyat shaxs barkamolligining eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o‘z-o‘zini anglatuvchi va o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir.

Islom Karimovning milliy-ma’naviy tiklanishga bag‘ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma’naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o‘rinni egallaydi. Haqiqatan ham o‘z Vatanini sevmagan, uning har qarich yeri uchun mas’ulligini his etmagan har bir inson ma’naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

Shu o‘rinda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi. U ham bo‘lsa «Milliy taraqqiyot» va «Milliy tiklanish» tushunchalarining mohiyati, mazmuni va mezoni masalalaridir. Aslida ular bir-birini inkor qiluvchi tushunchalar emas. Aksincha, merosi, tarixiy xotirasi va zaminlari mustahkam millatlar uchun bu tushunchalarning o‘zaro uyg‘un holatigina milliy taraqqiyotini ta’minlaydi. Lekin falsafiy kategoriya (tushuncha) sifatida va o‘lchamlari (mezonlari) jihatdan ular bir birlaridan farq qiladilar.

Milliy taraqqiyot – evalyutsion xarakterga ega, u quyidan yuqoriga tomon ko‘tarilishidan iborat bo‘lgan jarayonidir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzlusiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tarixining ma’lum bir bosqichida ma’lum ob’ektiv va su’bekтив sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

Yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, milliy tiklanish u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo‘ravonlik yo‘li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros urf-odatlar, an'analar, qadriyatlardan mahrum –etilgan, tarixiy hotirasi toptalgan, milliy o‘zligini anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib esa o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida milliy rivojlanishi borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlanishga yo‘naltirishga qaratilgan umummiliy faoliyat hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimizning asarlaridagi milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasining mazmunini zo‘ravonlik yillarda toptalgan merosimizni o‘zlashtirish, urf-odatlarimizni, an'analarimizni rivojlantirish, qadriyatlarimizni mustahkamlash borasida boy berilgan imkoniyatlardan bugungi taraqqiyotimizga yo‘naltirish, o‘zimizning milliy zaminlarimiz imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni umummiliy dunyoqarashimizning ajralmas qismiga aylantirish borasida har birimizning tinmay fidoyilik ko‘rsatishimiz zarurligi ko‘rsatib berilgan.

Haqiqatan, ham millat qachonki milliy zaminlarga tayansagina taraqqiyotga erishishi mumkin. U hech qachon o‘zgalarning ma’naviy yordami bilan millat darajasiga ko‘tarila olmaydi hamda ma’naviy rivojlanishga erisha olmaydi.

Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimiz dastlabki yozgan asardagi milliy-ma’naviy tiklanish vazifasini amalga oshirishga bag‘ishlangan konsepsiyalarini o‘zining boshqa asarlarida ijodiy rivojlantirgan, yangi mazmun bilan boyitgan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish ehtiyojlariga mos ravishda uning yangi yo‘nalishlarini belgilab bergen.

Xususan, ular «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz», «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q»,

«Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin», «O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz («Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga javoblar)», «Alloh qalbimizda, yuragimizda («Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar)», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz», «Milliy mafkura – keljak poydevori», «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman («Fidokor»gazetasi muxbiri savollariga javoblar)», “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” kabi asarlari, nutqlari va muxbirlar savollariga javoblarida o‘z ifodasini topgan.

Birinchi Prezidentimizmizning yuqoridagi asarlarida ilgari surilgan konseptual g‘oyalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash;
- mustaqillik sharoitida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;
- ta’lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni tarbiyalash, sog‘lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;
- milliy – ma’naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini tiklash va bugungi kunda ma’naviyat, ma’rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o‘zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma’naviyati tizimi rivojiga hissa qo‘shish;
- yoshlar ma’naviyatini milliy istiqlol g‘oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;
- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy-ma’naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o‘tmish, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilhom manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimizmiz «Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona-yurtimizda tug‘ilib kamolga etgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi»,²⁹- deb ta’kidlaydi. Uning «O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish hayotdan judo bo‘lish demakdir»³⁰ - degan g‘oyalarida har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish zarurligi milliy-ma’naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib yetishga qaratilgandir.

Islom Karimov milliy mafkuraning milliy-ma’naviy tiklanish va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati va rolini ilmiy asoslashga katta e’tibor qaratib, milliy mafkura-millatni birlashtiradi, mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotadi.

Milliy mafkura vositasida el-yurt birlashadi o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi va ularni ado etishga qodir bo‘ladi»³¹ - deb ta’kidlaydi. Birinchi Prezidentimizmiz o‘z navbatida milliy g‘oyaning vazifalarini aniq belgilab beradi: «milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur»³²ligini belgilab beradi. Mamlakatimiz bugungi kunda totalitar tuzum hukumronligidan ozod bo‘lib

²⁹ Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008.-Б. 30.

³⁰ Каримов И. А .Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Т: Шарқ, 1998.-Б. 5-10.

³¹ Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. -Т: Ўзбекистон, 1998.-Б. 4, 2, 15.

³² Ўша асар. –Б.15.

demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish, yana boz ustiga zo‘ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma’rifatli, inson manfatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o‘tish oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi. O‘z umrini uzaytirish uchun jon jahdi bilan qarshilik ko‘rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma’lum vaqtini, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoyilik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma’naviy e’tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyshtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat tafakkurini shakllantirish muhum vazifa darajasiga ko‘tariladi.

Mamlakatimizda ana shu yuksak muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Ularni muvaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilari bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishimiz zarur. Shuning uchun ham Birinchi Prezidentimizmiz og‘ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganligiga qaramasdan kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tadbiq etish masalasini asosiy vazifa sifatida belgilab berdi hamda uni izchillik bilan amalga oshirishga rahbarlik qilmoqda. Umazkur dasturning ahamiyati haqida to‘xtalib: «Lo‘nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab yetmoqdamiz»,³³-deb ta’kidlaydi.

Birinchi Prezidentimizmizning milliy – ma’naviy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g‘oyasi sog‘lom avlodni, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish zaruriyatini ilmiy asoslanganlidir. Uning sog‘lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo‘lishi,

³³ Баркамол авлод орзуси. –Т.: Шарқ, 1999.-Б. 9.

yuksak bilim, ma’naviyat, tafakkur va fidoyi vatanparvar bo‘lishi kabi talablarga javob beradigan avlod nazarda tutiladi. Shuning uchun ham «farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi»³⁴ – degan g‘oyani ilgari suradi.

Milliy-ma’naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksak darajaga ko‘tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqr o‘zlashtirishlari katta omil ekanligi Birinchi Prezidentimizmiz tomonidan ilmiy asoslangan.

Haqiqatdan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari ko‘rsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qo‘shadigan hissalari shunchalik samarali bo‘ladi, ma’naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.

Birinchi Prezidentimizmiz ishlab chiqqan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy ma’naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy o‘rinni egallaydi. Jumladan, u «Fidokor» gazetasi muxbiri bergen savollariga bergen javoblarida dunyo xalqlari ma’naviy mulkiga aylangan faylasuflarning asarlari haligacha o‘zbek tilida yoshlarimizga yetib bormaganligini qattiq tanqid qilib shunday ta’kidlaydi: «Dunyo tan olgan ko‘p ulug‘ faylasuflarning asarlari hanuzgacha o‘zbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyorilar, xususan, yoshlarimiz ularning g‘oyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Sokrat va Platon, Nitsshe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan o‘zbek tilida chop etish nahotki mumkin bo‘lmasa?». ³⁵

³⁴ И.А. Каримовнинг Конституция кунига багишиланган тантанали маросимдаги нутқи: //Халқ сўзи, 1999 йил 8 декабрь.

³⁵Каримов И.А Миллий истиклол мафкураси- халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончdir. –Т.: “Ўзбекистон”, 2000. –Б.27.

Ko‘rinib turibdiki, Birinchi Prezidentimizmiz milliy-ma’naviy rivojlanishimizni jahon xalqlarining ilg‘or ma’naviyat tafakkuri taraqqiyoti bilan uyg‘un ravishda rivojlantirish vazifasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Bu bejis emas albatta. Chunki, o‘z qobig‘idan chiqolmagan, jahon xalqlari erishgan yutuqlaridan foydalanishga intilmagan millat taraqqiy qila olmaydi. Bundan tashqari milliy taraqqiyot uchun yana bir qonuniyat ham borki, jahonda erishilgan yutuqlardan va tajribalaridan foydalanishga harakat qilmagan millatning o‘zi ham umumjahon sivilizatsiyasiga o‘zining hissasini ham qo‘sha olmaydi.

Shu ma’noda ham Birinchi Prezidentimizmiz milliy – ma’naviy taraqqiyotimizning muhim omili sifatida jahon xalqlarining ma’naviy taraqqiyotda erishgan yutuqlaridan keng foydalanishimiz, ularni keng o‘zlashtirishimiz zarurligini ilmiy asoslab bergan. U «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga yozgan so‘z boshisida «Men milliy istiqlol g‘oyasi bugungi tez sur’atlar bilan o‘zgarayotgan tahlikali dunyoda o‘zligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadriyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boyliklarini asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi o‘sib kelayotgan avlodga yetkazishga xizmat qilmog‘i zarur, deb bilaman»³⁶ - degan vazifani qo‘ydi.

Birinchi Prezidentimizmiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasining amaliy ahamiyati shundaki, u butun milliy va jahon ma’naviyati taraqqiyotlari ehtiyojlarini o‘zida to‘la ifoda ettirgan.

Masalan, 1937 yilda Uzoq Sharq janubidan asosan Qozog’iston, qisman O’zbekistongaham, jami 9 ming xitoy, 1940 yilda G’arbiy Ukraina va Belo – russiyadan shuki respublikaga jami 61 ming‘olyak, 1944 yilda Qrim ASSR dan faqat O’zbekistonning o’ziga 182 ming qrimtatarlari, 42 ming grek, bolgar, arman va boshqa millat vakillari, Gruziyadan esa asosan O’zbekiston, shuningdek,

³⁶ Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. -Т: Ўзбекистон, 2000. –Б.7.

Qozog'iston va Qirg'izistonga jami 92 ming mesxeti turklari ommaviy de'ortatsiya qilinganini qayd etadi³⁷.

Mavzu bo'yicha nazorat savollari:

1. O'zlikni anglash ma'naviyatning asosiy kategoriyasi sifatida?
2. Ma'naviyatning tolerantlik kategoriyasi?
3. Qadriyat tushunchasi?
4. Ma'naviyatshunoslik fani kategoriyalari va asosiy tushunchalari?
5. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tushunchalari?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018.
2. Mirziyoev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2010.
4. Erkaev A. Ma'naviyatshunoslik. 1-kitob. Ma'naviyat ontologiyasi va fenomenologiyasi. – T.: Ma'naviyat, 2018. - 480 b.
5. Qosimon B. Uyg'ongan millat ma'rifati. – T.: Ma'naviyat, 2011.
6. Yusupov E. Xadislarda dunyoviy va diniy g'oyalarning bog'liqligi. - «O'zbekistonda ijtimoiy fanlar» jurnali, 1994, 5-son.

7-MAVZU: MILLIY MA'NAVIYAT RIVOJLANISH KONSEPSIYASI:

NAZARIYA VA AMALIYOT.

1. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasining yaratilishi.
2. Ma'naviyat va milliy g'oya.

³⁷Павел Палян. Не по своей воле. История и география принудительных миграций в СССР. М.: «Мемориал», 2001. — С. 245-248.

3. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasini xam nazariy, xam amaliy jihatdan boyitishning yangi bosqichi.

1. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasining yaratilishi. Har qanday islohot, jumladan, ma'naviyat sohasidagi islohotlar ham ilmiy-konseptual, nazariy va metodologik yondashuvlar, tahlil va umumlashtirishlar qatorida katta mablag' talab etadi. Chunki eski madaniyat, mafkura bilan bog'liq muassasalarning bir qismidan voz kechiladi, qolganlari qaytadan, yangi mafkuraviy va huquqiy asoslarda qayta tashkil qilinadi. Eng asosiysi - yangi voqelikka, yangi maqsadlarga, ideallarga, mafkuraga mos yangi muassasalar tizimi yaratiladi. Kadrlar tayyorlash tizimi ham mazmunan va tashkiliy jihatdan qayta ko'rib chiqiladi, qayta tashkil etiladi. Bular milliardlab so'm mablag'ni talab qiladi.

Adabiyot, san'at, tarix, falsafa, madaniyat tarixiga oid asarlar madaniy merosning avval xalqdan yashirilgan qismini tiklash, xalqqa yangi oliy maqsad va ideallarni, milliy g'oya va mafkurani etkazadigan nashrlarni, radio va teledasturlarni yaratish, chop etish, efirga uzatish yana milliardlab so'm mablag' ajratilishini talab etadi. Agar etarlicha mablag' ajratilmasa, e'lon qilingan oliy maqsadlar, g'oyalar qog'ozda qolib ketadi, amalgal oshmaydi. Natijada, g'oyaning obro'yiga putur etadi, odamlar uni quruq shior, safsatabozlik sifatida qabul qila boshlaydi va davlatning bu boradagi siyosatiga ishonmay qo'yadi. SHu sababdan ma'naviyat rivojlanishi konsepsiyasining iqtisodiy jihatdan ta'minlanishi muhim masala edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida mablag' etishmas, iqtisodiy ahvol ancha og'ir edi. Ammo ijtimoiy soha-ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport o'z holiga tashlab qo'yilmadi. Ma'naviyat yuksalishining iqtisodiy jihat qanchalik muhim bo'lmasin, konsepsiyanı yaratishda sezilarli rol o'ynamaydi. Konsepsiya xalqning mentalitetini, asriy orzu-havaslarini, oliy ideallari va maqsadlarini hisobga olib shakllantirilishi lozim, u ma'naviyatimiz yuksalishi uchun ilmiy-intellektual asos, metodologik yo'riqnomasi, yo'lchi yulduz bo'lishi kerak.

Binobarin, konsepsiyaning tizim yaratuvchi bosh g'oyasi - milliy g'oya va milliy mafkurani ifodalashi zarur.

Ma'naviyatni rivojlantirish konsepsiyasi tub islohotlar nazariyasi doirasida milliy tiklanish va yosh avlodni mustaqillik g'oyalariga sodiqlik ruhida tarbiyalash zaruriyati va amaliyoti bilan chambarchasligida yaratildi. Chunki jamiyatning haqiqiy boyligi insondir, pirovard maqsadi esa munosib, farovon turmush kechiradigan komil insondir. Tarbiya borasida bu - sog'lom avlodni tarbiyalash zarurligini anglatadi. Shu sababdan sog'lom avlod uchun kurash, jismonan sog'lom, ma'nan etuk avlodni tarbiyalash islohotlar nazariyasining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekistonning birinchi ordeni ham «Sog'lom avlod uchun» deb ataldi.

Mamlakat, millat kelajagi sog'lom avlodga, barkamol avlodga bog'liq. Keyinchalik mamlakatimizda ko'proq barkamol avlod tushunchasi qo'llanila boshladi. Chunki Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga va ma'naviy-ma'rifiy masalalarga bag'ishlangan chiqishlarida, asarlarida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov barkamol avlod tushunchasini asosiy tayanch tushuncha sifatida qo'llagan edi. Barkamol avlod tushunchasi ilmiy-ma'rifiy, madaniy merosimizda qabul qilingan «komil inson» tushunchasiga yaqin, uni alohida shaxsga nisbatan qo'llanish shakli edi. Yosh avlod tarbiyasiga ustuvor e'tibor berish, birinchidan, islohotlar nazariyasidan, ikkinchidan esa mamlakatning, millatning ertangi kelajagi to'g'risida qayg'urishdan kelib chiqadi. Ushbu nazariya asoslari yaratilishiga bag'ishlangan dastlabki asarlardan biri «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» risolasidayoq e'tirof etiladi: O'zbekistonni yangilash va rivojlantirish- ning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi.

Milliy maktabimizdagi ta'lim-tarbiya nafaqat o'sha to'rt negizga tayanadi, shuningdek, ular yosh avlodning e'tiqodiga va amaliy intilishlariga aylanishi lozim. Asarda bu tushunchalarning hamda ma'naviyat tushunchasining mazmuni talqin qilinadi, xalqning ma'naviy ruhini mustaqkamlash, milliy madaniyatning o'ziga xosligi, ta'lim, ilm-fandagi milliy an'analarni tiklash va zamon talablarida

rivojlantirish islohotlar uchun, mustaqil taraqqiyot va kelajak uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi olib beriladi.

Kommunistik mafkuraning uzoq yillar davomida shakllangan andozalari, aqidaviy g'oyalari, shiorlari, «dohiyalar» asarlari va kompartiya hujjatlari, ko'rsatmalari kabi «ilk manbalari» bor edi. Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining esa xalqimiz madaniy merosidagi va ma'naviyatidagi, zamonaviy hayotidagi manbalari, asosiy tushunchalari va tamoyillari aniqlanishi, bir so'z bilan aytganda, ilmiy metodologik, didaktik asoslari va konsepsiysi yaratilishi kerak edi. Davra suhbatlarida, ilmiy munozaralarda, ko'plab chop etilayotgan maqolalarda jo'yali fikrlar, qiziq mulohazalar bilan bir qatorda, ba'zi bir o'ta jo'n yoki ilmiy jihatdan asossiz, balandparvoz gaplar ham ancha-muncha aytildi. Ayrim qiziqqon olimlar hatto milliy g'oya va mafkuraga rasmiy davlat maqomi berish kerak, degan fikrlarni bildira boshladilar. Ba'zi birlari bizning tarixiy va madaniy ildizlarimiz chuqur, ma'naviyat sohasida G'arbdan o'rGANISHNING zarurati yo'q, G'arb mamlakatlari ma'naviyati inqirozni boshdan kechirmoqda, unda degumanizatsiya jarayoni boshlanganiga ancha bo'lgan, biz ma'naviyat sohasida faqat o'z kuchimizga tayanishimiz kerak, qabilidagi milliy mahdudlikka moyil mulohazalar yuritdilar.

Sovet mafkurasidan, sotsializmning ba'zi bir salbiy merosidan, soxta qadriyatlaridan qutilish, tozalanish bahonasida, ayrim haqiqiy qadriyatlar yo'qotila boshladi, rus tilini va madaniyatini inkor qilish kuchaydi. Hatto Rossiyaning o'zida bunday siyosiy va madaniy-ekstremistik qarashlar ancha tarqaldi. Masalan, butun dunyo tan olgan buyuk yozuvchi Maksim Gorkiyga Moskvada qo'yilgan haykal demontaj qilindi. Haykal faqat 2017 yil avgustda o'z joyiga qaytarildi. Ayrim davlatlarda siyosiy va madaniy ekstremizm oqibatida o'ta o'ng radikal kuchlar, xususan, neofashistlar paydo bo'lishiga olib keldi.

O'ngga yoki so'lga, radikalizmga yoki konservativizmga, milliy maxdudlikka og'ib ketmaslik, milliy tiklanishning fikrlar va qarashlar xilma-xilligiga asoslangan barqaror ijtimoiy-madaniy taraqqiyot yo'liga tushib olishi uchun ma'naviyatni rivojlantirish yo'llarini puxta belgilab olysh kerak edi. O'zbekistonda ham

dunyoviy va diniy radikalizm shaklidagi siyosiy va madaniy ekstremizmni qo'llab-quvvatlovchilar bor edi.

2. Ma'naviyat va milliy g'oya. Ma'naviyatni rivojlantirish konsepsiysi ustidagi izlanishlar, tahlillar muntazam davom ettirildi. Chunki masala hayotiy muhim ahamiyatga ega, islohotlar taqdiri, yangilanayotgan jamiyat va inson kelajagi bilan bog'liq edi. Ma'naviyat va milliy g'oya masalasi islohotlar nazariyasining tarkibiy gumanitar qismini, islohotlarning ilmiy-intellektual negizini tashkil qiladi. Qabul qilingan Konstitutsiyaning hech bir mafkura davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi to'g'risidagi moddasi ham siyosiy mazmunga, rasmiy maqomga ega bo'lmasdan, butun jamiyatni, uning barcha ijtimoiy qatlamlarini, tabaqalarini, turli etnik guruhlarini birlashtira oladigan g'oya va mafkurani yaratishni talab qilardi. Chunki birlashtiruvchi g'oyasiz, ijtimoiy mo'ljal ko'rsatuvchi, yuksak maqsadlarni tushuntirib beruvchi mafkurasiz jamiyatda parokandalik yuz berishi, ba'zi guruhlar xato yo'ldan ketib qolishi mumkin edi. Buni o't mish tarix ham, o'zimizda va sobiq ittifoqdosh respubliklarning ba'zi birlarida sodir bo'layotgan voqealar ham tasdiqlab turardi.

Yangi mafkuraning vazifasi esa - yangicha, erkin fikrlaydigan, mustaqil insonni tarbiyalash edi. Ma'naviy tiklanish, milliy o'zlikni anglash, o't mish tariximizni, tarixiy xotiramizni, ajdodlarimiz, diniy va dunyoviy allomalarimizning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini anglab olish, islom dini va madaniyati qadriyatlarini tiklash yuzasidan mustaqillikning ilk kunlaridanoq o'ta muhim va ulkan odimlar qo'yildi, ko'plab chora-tadbirlar, dasturlar amalga oshirildi. Jumladan, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Mirzo Ulug'bek, Bobur, Alisher Navoiy, Ahmad Farg'oniy, Mahmud Zamahshariy, Imom Buxoriy, Moturidiy, Marg'inoniy, Xo'ja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Vali kabi buyuk ajdodlarimiz yubileyлari o'tka- zildi. Ularning va yana boshqa nomlari tilga olinmagan buyuk allomalarimizning ko'plab asarlari chop etildi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Shahrisabz, Qarshi, Marg'ilon, Toshkent shaharlarining, «Avesto», Ma'mun Akademiyasi, «Algomish» dostonining

yubileyлari nishonlandi. Mazkur shaharlar, ma'naviy obidalar tarixi Vatanimiz tarixining bir uzviy bo'lagi sifatida ilmiy bayon qilindi. Madaniy dasturlar «qayta tiklanayotgan merosga farqlab yondashishga, eng muhim, umuminsoniy qadriyatlarni boyitadigan hamda jamiyatimizni demokratiyalash va yangilash talablariga javob beradigan, axloq jihatdan ahamiyatli an'analarni, urf-odatlarni tanlab olish zaruratiga asoslangan edi». Chunki vaziyatning murakkabligini, milliy tiklanish masalasining o'ta nozik va ziddiyatli ekanini nazarda tutish, madaniy mahdudlik va madaniy ekstremizmga, millatchilik va manmanlikka og'yb ketmaslik, ayni paytda milliy g'ururni tiklash talab etilardi.

Ma'naviyat va milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasini yaratishda birinchi Prezidentimizning birinchi chaqiriq Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolning asosiy tamoyillari» dasturiy ma'ruzasi muhim bosqich bo'ldi. Ma'ruzada endigi asosiy vazifa odamlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, o'ziga ishonchini orttirish ekani e'tirof etiladi. U insonning hakikiy erkinligini tafakkur erkinligi bilan bog'ladi. Bu sovet davrida ijtimoiy ong ijtimoiy borliq tomonidan belgilanadi, iqtisodiy bazisning o'zgarishi muqarrar ravishda mafkuraviy ustqurmani, odamlar dunyoqarashini o'zgartiradi, deb, ongni oddiy in'ikos darajasiga tushirib, uning faolligini o'ta nisbiy baholab, inson erkinligini faqat va faqat ijtimoiy tuzum belgilaydi, degan aqidani aksioma sifatida qabul qilishga odatlanib qolgan kishilar uchun mutlaqo yangilik edi. «Tafakkur ozod bo'lmasa, ong va shuur tazyiqdan, qullikdan qutilmasa, inson to'la ozod bo'la olmaydi», deb baralla aytildi.

Ana shunday sa'y-harakatlarning navbatdagi ifodasi bir guruh tarixchi olimlar bilan 1998 yil bahoridagi uchrashuv bo'ldi. Uchrashuvda bayon etilgan fikr-mulohazalarning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» degan sarlavhada chop etilishi milliy g'oya va mafkura masalalarini o'rganish va muhokama etishni yangi bosqichga ko'tardi, yangi g'oyalar bilan boyitdi.

Ma'naviyat va milliy g'oya, mafkura borasidagi toboro chuqurlashib borayotgan fikr va taxdillarning tadrijiy yangi bosqichi davlatimiz birinchi rahbarining «Turkiston» gazetasi muxbiri savollariga javoblari bo'ldi. «Uz

kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz» sarlavhasi ostida chop etilgan mazkur javoblarda shu paytgacha biz ko'proq eski tuzumni tanqid qilib keldik, «endi inkor qilish kayfiyatidan bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish payti keldi», deyiladi. Bu shunchaki obrazli so'zlar emas, balki jamiyat oldiga, jumladan, OAV, ma'naviy-ma'rifiy soha oldiga qo'yilgan ijtimoiy vazifa, ijtimoiy mo'ljal va ilmiy tadqiqotchilar, olimlar uchun ilmiy-metodologik ko'rsatma edi.

Milliy g'oya yuridik jihatdan ham, falsafiy jihatdan ham, tarixiy-etnologik jihatdan ham juda nozik va chigal, murakkab masala. Avvalo, milliy g'oya va mafkurani O'zbekiston Konstitusiyasining 12-moddasi va boshqa me'yorlari bilan, umuman demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish lozim edi. Ijtimoiy fanlar vakillari, adiblar va jurnalistlar oldiga ushbu vazifa qo'yildi. Izlanishlar va tadqiqotlarga yangi yo'nalish berildi. Masalaga yondashuv tobora har tomonlamalik, kompleks xarakter kasb etib bordi.

3. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasini xam nazariy, xam amaliy jihatdan boyitishning yangi bosqichi. Milliy g'oya va mafkura borasida olib borilgan izlanishlar, jahon ilmiy-falsafiy ta'limotlari, nazariyalari tarixini, zamonaviy qarashlarni tahlil etish, mamlakatimizda mustaqillik yillari to'plangan tajribani, MDH va xorij mamlakatlaridagi ahvolni o'rganib umumlashtirish natijalari milliy istiqlol mafkurasi konsepsiysi yaratilishiga olib keldi. Unda milliy g'oya, milliy mafkura ma'no-mohiyati hamda milliy g'oya nima uchun, kimlarga kerakligi to'g'risida fikrlar ifodalandi.

Oradan bir qancha vaqt o'tib, «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga berilgan javoblarda milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasining asosiy tushunchalarini, tamoyillarini, maqsad va vazifalarini mustaqillikning mustahkamlanishi, islohotlar strategiyasi, jamiyatimiz yangilanishi, inson yuksalishi masalalari bilan bog'lab yanada kengroq va teranroq ochib berildi. Ushbu maslalaning kun tartibiga qo'yilishi sabablari haqida gapirib, endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'ladigan kurashlar ko'p narsani hal qilishini ta'kidladi. CHunki ilgari kuchli davlatlar zaif mamlakatlarni ochiqdan-ochiq bosib olib, hukmronligini o'tkazgan bo'lsa, «hozirgi vaqtda

qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishish uchun avvalo zabit etmoqchi, o'z ta'sir doirasiga olmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishga intiladi».

Ma'naviyat, milliy g'oya va mafkura konsepsiyasining ilmiy va amaliy jihatdan yangi sifat bosqichiga ko'tarilishi Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch» asari bilan bogliq. Asar 2008 yilda nashr qilindi. Unda muallif juda ulkan ilmiy nazariy materiallarni, o'z izlanishlarini, mulohazalarini hamda mustaqillik yillari mamlakatimizda to'plagan tajribani umumlashtirdi.

Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasini ham nazariy, ham amaliy jihatdan boyitishning yangi bosqichi 2017 yildan boshlandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni, Prezident Shavkat Mirziyoevning ushbu soha tarmoqlari, yo'nalishlarini rivojlantirishga, tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishga qaratilgan farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunlariga kiritilgan o'zgarishlar, Hukumat qarorlari katta ahamiyat kasb etadi. Ular ma'naviyat sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish, ularga davr talablaridan kelib chiqib zarur va jiddiy o'zgarishlar kiritishning huquqiy asoslarini belgiladi. Milliy ma'naviyatimiz rivojlanishi nazariy va amaliy konsepsiysi, ayniqsa, Prezidentimizning 2017 yil 15 iyun kunidagi «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi» mavzusi- ga bag'ishlangan anjumandagi «Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik», 30 iyun kuni O'zbekiston «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi «Jismoniy va ma'naviy etuk yoshlar - ezgu maqsadlarimizga etishda tayanchimiz va suyanchimizdir», 2017 yil 3 avgustda O'zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi «Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir» mavzusidagi ma'ruzalarida yanada boyitildi va hayot bilan mustahkamroq bog'landi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. 2017–2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 03.02.2021.
8. Prezident SHavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo’yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 22.02.2021.
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida. (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning OLiY Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/>
11. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “ O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” gi PF-5847-son Farmoni.

12. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi. 2019 yil 31 dekabr. O’zbekiston Respublikasi VM Qarori №1059, Toshkent sh.
13. Quronov, Sh.Turayev va boshq. Millit tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. O’quv qo’llanma, “Muharrir” nashriyoti. 2017 y. 18 b.t.
14. A.Erkayev. Ma’naviyatshunoslik. Ma’naviyat nashriyoti. Toshkent. 2018.
15. R. Ruziyeva, N. Bobonazarova Ma’naviyat asosiari. T., “O’zR Fanlar
16. Akademiyasi Asosiy kutubxonasi”, 2019.
17. A.Qodirov, M.Quronov va boshq. Fazilatli avlod: 7-18 yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. “Muharrir” nashriyoti. 2019 y. 16 b.t.
18. Avloniy. “Tanlangan asarlar” 1 jild. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
19. Fitrat. “Tanlangan asarlar” 1 jild. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
20. M. Bexbudiy. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
21. M. Xodiev Botu. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
22. Ibrat. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
23. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. -T.: Akademiya. 2008.
24. A.Utamuradov va boshqalar. Shaxc ma’naviy kamolotini shakllantirish. Toshkent. “Universitet”, 2011.
25. Najmidinova Q. U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o’rni. - T.: “Adolat”, 2016. 224 b.
26. Kenjaboev A., Kenjaboev J. Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbliji. Zamonaiy ta’lim, 2015 yil, 4-som. 61-64 betlar.

Axborot manbilari:

1. WWW.tdpu.uz
2. WWW.pedagog.uz
3. WWW.Ziyonet.uz
4. WWW.edu.uz
5. tdpu-INTERNET.Ped

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI


OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Milliy g'oya va huquq ta'limi kafedrasи

**“Ma’naviyatshunoslik”
fanidan**

Seminar mashg’ulotlar ishlanmasи



NAMANGAN

Mazkur seminar mashg'ulotlar ishlanmasi bakalavriat bosqichidagi barcha yo'nalishlar uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalarga "Ma'naviyatshunoslik" fanidan tizimli bilimlar berish, jumladan fan jamiyatimiz taraqqiyoti negizi tamoyillarini ifoda etadi va dastlabki bilimlar, ko'nikma va malakalar berishni belgilab beradi.

Tuzuvchi: dotsent v.b. A. Abdullayev

Taqrizchi: f.f.n. dots. O. V. Mamatov

O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdi o'rni

Ming yilliklarning almashinushi ijtimoiy munosabatlarning yangi "axborotlashgan jamiyat" deb atalmish bosqichiga to'g'ri keladi. Texnogen sivilizatsiyaning yanada rivojlanishi texnokratik tafakkurning shakllanishiga, bu esa ma'naviy madaniyatning yangi ko'rinishiga olib keldi. Ma'naviyat, madaniyat, axloq, fan va axborot ijtimoiy hayotning eng muhim sohalaridan biriga aylandi. Shu bois, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O'zbekistonda inson ma'naviy kamoloti, yangi avlod tafakkurida gumanistik g'oyalarni shakllantirish, ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytirish bиринчи darajali masalaga aylandi. Darhaqiqat, bugungi kunda ma'naviyat jamiyatning strategik resursiga aylanmoqda. Bu esa uni takomillashtirish yo'llari va imkoniyatlarini izlashni taqozo qiladi. Ma'naviyat va u bilan bog'liq masalalar bugungi kunda ham ilmiy-nazariy ham amaliy jihatdan dolzarb bo'lib, uning ijtimoiy ahamiyatini ta'lim tizimida o'rganish muhim.

O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga ma'naviyatning mazmun-mohiyati, ma'naviyatshunoslik fanining shakllanish jarayonlari, xalqimizning tarixan boy ma'naviy merosi, ma'naviy-ma'rifiy takomil bosqichlari, milliy ma'naviyatimizning umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unligi, uning o ziga xos betakror xususiyatlari, inson va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish yo'llari haqida tushunchalar berish, ularning bu boradagi bilimlarini yanada boyitish.

Fanning vazifalari:

- talabalarda mustaqil dunyoqarashni shakllantirish;
- uzoq o'tmishdan boshlab shakllanib hozirgi kungacha taraqqiy etib kelayotgan milliy ma'naviyatimiz an'analari va ularning tadrijiy-tarixiy jarayonlarini o'rgatish orqali talabalardagi milliy ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash tuyg'ularini mustahkamlash;
- fanga oid mavzularni amaliyot bilan bog'liq holda o'qitilishini tashkil qilish orqali ma'naviy dunyosi boy, har tomonlama yetuk, komil insonlarni tarbiyalashdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Har bir talaba ushbu fan orqali:

- ma'naviyatshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari;
- mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va buning sabablari;
- milliy ma'naviyat nazariyasining shakllanishida davlat rahbarining roli;
- milliy g'oya, mafkura va ma'naviyatning uzviyligi **to'g'risida bilimga ega bo'lishi**;
- inson-jamiyat-ma'naviyat uzviyligi;
- ommaviy madaniyat va zamонавиев axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- ma'naviyatning rivojlanish qonunlari;
- ma'naviyat kategoriyalari;
- mustaqillik davri ma'naviyati;
- milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiysi: nazariya va amaliyot;

- mustaqil O'zbekistonda yosh avlod ma'naviy tarbiyasining dolzarb muammolari;
- ma'naviy tarbiyani yo'lga qo'yishda ziyoli mas'uliyati haqida ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- o'quvchilarga inson hayotida ma'naviyatning o'rni va ahamiyatini tushuntira olish;
- mustaqil O'zbekistonda ma'naviyat masalalarining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi va buning sabablarini tahlil eta olish;
- o'quvchi yoshlarga milliy ma'naviyatimizning rivojlanish bosqichlari haqida bilim berish;
- yosh avlodni umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalay olish;
- ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar mohiyatini anglab yetish;
- o'quvchilarda bosh ma'naviy qadriyatlarimizga sodiqlik tuyg'usini shakllantira olish;
- yosh avlodni ma'naviy jasorat ruhida tarbiyalash ***ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Mazkur fan 8-semestrda o'qitilishga mo'ljallangan bo'lib, o'quv rejada rejalashtirilgan Dinshunoslik, Ijtimoiy falsafa, G'oyalar falsafasi, Qadriyatlar falsafasi, O'zbek tili, Globallahuv asoslari, Geosiyosat asoslari, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish metodikasi kabi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy-ilmiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari bilan o'zaro bog'liq, uslubiy jihatidan uzviy ravishda va ketma-ketlik asosida o'qitiladi.

Fanning ta'lindagi o'rni

"Ma'naviyatshunoslik" fani talabalarda jamiyatda ma'naviyatga bo'lgan ehtiyoj, ma'naviyatning mohiyati, ma'naviyat va milliy g'oya munosabatlari, shaxs, ijtimoiy guruuhlar ma'naviyati, barkamol avlodning ma'naviy qiyofasi to'g'risidagi malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlariда ma'naviy-ma'naviy ishlarning samaradorligini yuksaltirishga oid bilimlar berishda asos bo'ladi. Fanni o'zlashtirish orqali bo'lg'usi mutaxassis keng qamrovli falsafiy bilimlaridan pedagogik, ilmiy va jamoatchilik faoliyatida foydalanishi, ijtimoiy jarayonlarga xolisona baho berishi mumkin.

Shuningdek mazkur fan dasturidan ma'naviy-ma'rifiy bo'limlar, tashkilotlar o'z faoliyatini yo'lga qo'yishda hamda modernizatsiyalash jarayonlarida foydalanishlari mumkin.

Fanni o'qitishda zamонавија axborot va pedagogik texnologiyalar

Mazkur kurs zamонавија-ma'naviy barkamol, har jihatdan sog'lom avlodni, komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlanishga har jihatdan yaqindan yordam bermog'i lozim. Kursni o'qitishda yangicha fikrlaydigan, yanigicha tafakkur tarziga ega bo'lgan, milliy g'oya va mafkuraning asosiy tamoyillarini o'zida mujassam etgan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishga yordam berish nazarda tutiladi. Mana shu vazifalarni bajarishda bilimni talabalar ongiga

singdirish, ularning amaliy faoliyatiga aylantirishda o‘qituvchi qanday pedagogik texnologiyalardan ijodiy foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin, darslarga ko‘rgazmalilikka - turli albom, plakatlar, badiiy asarlardan namunalar o‘qishga alohida ahamiyat-berish ham yaxshi natija beradi.

Ushbu fanni o‘qitishda pedagogik texnologiyaning Blits so‘rov, tarmoqlar, FSMU Debat, kabi usullaridan, pedagogik trening, pedagogik kvalimetriya-(o‘quvchini EHM vositasida testdan o‘tkazish) reyting asosida baholash kabi ta’limning yangi vositalaridan (tasviriy o‘quv matni, axborot tashuvchilar) hamda modul texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Metodik qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurollar, ma’ruzalar va ta’limning interfaol metodlaridan foydalanish darsning qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari talabalarning egallagan bilim va ko‘nikmalarini xolisona baholash uchun test usuli, talabaning bilim va ko‘nikmalarini egallah jarayonini nazorat etish usullaridan unumli foydalaniladi.

“Ma’naviyatshunoslik” fanidan mashg’ulotlarning mavzular va soatlar bo‘yicha taqsimlanishi

VIII semestrda 60 soat, 14 soat ma’ruza, 16 soat seminar mashg’uloti va 30 soat mustaqil ta’limga ajratilgan.

Semestr	Yuklam a	Auditoriya mashg’ulotlari turi bo‘yicha o‘quv yuklamasi taqsimoti(soat)					Mustaqil ta’lim
		Jami	Ma’ruza	Seminar Mashg’ulot	Laboratoriya mashg’uloti		
VIII	60	30	14	16	-	30	
Jami:	60	30	14	16	-	30	

Seminar mashg’ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg’ulotlarida talabalar “Ma’naviyatshunoslik” fanning asosiy xususiyatlariga taalluqli masalalarni o’zlashtirishlari lozim.

1-Mavzu: Ma’naviyatshunoslik fani predmeti. Ma’naviyatning jamiyat hayotidagi o’rni.

Reja:

1. Ma’naviyat tushunchasi: moxiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo’lish shakllari.
2. Ma’naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri.
3. Ma’naviyat va jamiyat hayoti.

Qo’llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.*

2-Mavzu: Inson-jamiyat-ma'naviyat uzviyligi.

Reja:

1. Ma'naviyat va inson tabiat.
2. Ma'naviyat va insonning hissiy hamda aqliy dunyosi.
3. Tafakkurning tarixiy shakllari va ma'naviyat.
4. E'tiqod va ma'naviyat.
5. Iroda ma'naviyatning mavjudlik shakli sifatida.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

3-Mavzu: Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Reja:

1. Ommaviy madaniyat: kelib chiqishi va shakllanishi.
2. Ommaviy madaniyatning xususiyatlari.
3. Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatiga ta'siri.
4. Yuksak va ommaviy madaniyatlar diffuziyasi va interferensiyasi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

4-Mavzu: Ma'naviyatning rivojlanish qonunlari

Reja:

1. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni.
2. Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni.
3. Ma'naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

5-Mavzu: Ma'naviyat kategoriyalari

Reja:

1. O'zlikni anglash ma'naviyatning asosiy kategoriyasi sifatida.
2. Ma'naviyatning tolerantlik kategoriyasi.
3. Qadriyat tushunchasi.
4. Ma'naviyatshunoslik fani kategoriyalari va asosiy tushunchalarining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tushunchalari bilan uzviy bog'liqligi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

6-Mavzu: Mustaqillik davri ma'naviyati

Reja:

1. Mustaqillik va ma'naviyat.
2. Mustaqillik mas'uliyati.
3. Mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi hamda madaniy meros, diniy an'ana va qadriyatlarimizning tiklanishi.

4. Milliy-ma'naviy yangilanish, yuksalish – taraqqiyot omili.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif*.

7-Mavzu: Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiysi: nazariya va amaliyot.

1. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasining yaratilishi.
2. Ma'naviyat va milliy g'oya.
3. Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasini xam nazariy, xam amaliy jihatdan boyitishning yangi bosqichi.

Qo'llaniladigan ta'lif texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lif*.

Seminar mashg'ulotlarida tavsiya etiladigan mavzular

Nº	Seminar mashg'uloti mavzulari	soat
1	Ma'naviyatshunoslik fani predmeti. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni.	2
2	Inson-jamiyat-ma'naviyat uzbekligi.	2
3	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	2
4	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	2
5	Ma'naviyatning rivojlanish qonunlari.	2
6	Ma'naviyat kategoriyalari.	2
7	Mustaqillik davri ma'naviyati.	2
8	Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiysi: nazariya va amaliyot.	2
Jami:		16

4.Seminar mashg'ulotlari uchun o'quv-uslubiy xarita

Nº	M a v z u m a z m u n i	Soat	Ko'rgazma li	Talabaning mustaqil ishi	Nazorat turi	Izoh
1	2	3	5	6	7	8

VIII-semestr

1	Ma'naviyatshunoslik fani predmeti. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni.	2	Darslik adabiyotlar	Konspekt	J.N.	
2	Inson-jamiyat-ma'naviyat uzbekligi.	2	Darslik adabiyotlar	Konspekt	J.N.	
3	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	2	Darslik adabiyotlar	Konspekt	J.N.	
4	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	2	Darslik adabiyotlar	Konspekt	J.N.	
5	Ma'naviyatning rivojlanish qonunlari.	2	Darslik adabiyotlar	Konspekt	J.N.	
6	Ma'naviyat kategoriyalari.	2	Darslik	Konspekt	J.N.	

			adabiyotlar			
7	Mustaqillik davri ma'naviyati.	2	Darslik adabiyotlar	Konspekt	J.N.	
8	Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiysi: nazariya va amaliyot.	2	Darslik adabiyotlar	Konspekt	J.N.	
	Jami:	16				

Mustaqil ta'lif mustaqil ishlar

Ta'lif jarayonida innovatsion texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullarini qo'llash talaba tomondan mustaqil tanlanadi. Talabalarning mustaqil ta'lifini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzlusiz va uzviy ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzu:ni puxta uzlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik kurishi kerak.

Mustaqil ta'lif quyidagi shakllarda tashkil etiladi:

- mavzularni normativ-xuquqiy hujjatlar va o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- mavzu:lar bo'yicha referat tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- ilmiy maqola va tezislarni tayyorlash;
- fanning dolzarb muammolarini qamrab oluvchi loyihalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning yechimini topish;
- o'rganilayotgan mavzu: bo'yicha asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiya yozish va boshqalar.

Izoh: Mustaqil ish mavzu:lari fanning bo'limlari bo'yicha ishchi dasturi shakllantirilayotganda mashg'ulotlari uchun ajratilgan soatlar hajmiga mos holda foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalar mustaqil ta'lifining mazmuni va hajmi

№	Mustaqil ta'lif mavzu:lari	Berilgan topshiriqlar	Xajmi soatda	Bajarish muddati
VIII-semestr				
1	Ma'naviyat tushunchasi: moxiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllai.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
2	Ma'naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
3	Ma'naviyat va jamiyat hayoti.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	

4	Ma'naviyat va inson tabiati.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
5	E'tiqod va ma'naviyat.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
6	Ommaviy madaniyat: kelib chiqishi va shakllanishi.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
7	Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatiga ta'siri.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
8	Yuksak va ommaviy madaniyatlar diffuziyasi va interferensiyasi.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
9	Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib borishi qonuni.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
10	Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
11	Ma'naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlар rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
12	O'zlikni anglash ma'naviyatning asosiy kategoriyasi sifatida.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
13	Ma'naviyatning tolerantlik kategoriyasi. Qadriyat tushunchasi.	Adabiyotlardan konsept qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	2	
14	Mustaqillik va ma'naviyat.	Adabiyotlardan	2	

		konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish		
15	Mustaqillik sharoitida ma’naviyat masalalarining dolzarblashuvi hamda madaniy meros, diniy an’ana va qadriyatlarimizning tiklanishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
16	Mustaqillik mas’uliyati	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
17	Milliy-ma’naviy yangilanish, yuksalish – taraqqiyot omili.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
18	Milliy ma’naviyat rivojlanish konsepsiyasining yaratilishi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
19	Ma’naviyat va milliy g’oya.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
20	Milliy ma’naviyat rivojlanish konsepsiyasini xam nazariy, xam amaliy jihatdan boyitishning yangi bosqichi.	Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish	1	
Jami			30	

Dasturning informatsion uslubiy ta’minoti

Mazkur fanni o’qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash nazarda tutilgan:

- zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o’tkaziladi;
- amaliy mashg’ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, “ish o’yini” va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- amaliy mashg’ulotlarida kichik guruhlar musobaqlari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo’llash nazarda tutiladi.

7. Seminar mashg'ulotlari uchun taqvim reja.

№	Mavzular	Soat	O'tish muddati	O'tildi
1	2	3	4	5
VIII-semestr				
1	Ma'naviyatshunoslik fani predmeti. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni.	2		
2	Inson-jamiyat-ma'naviyat uzviyligi.	2		
3	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	2		
4	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	2		
5	Ma'naviyatning rivojlanish qonunlari.	2		
6	Ma'naviyat kategoriyalari.	2		
7	Mustaqillik davri ma'naviyati.	2		
8	Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiysi: nazariya va amaliyot.	2		
	Jami:	16		

1. Darslarda yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish

"Ma'naviyatshunoslik" fanidan seminar mashg'ulotlar		
№	Mavzular nomi	Pedagogik
1	Ma'naviyatshunoslik fani predmeti. Ma'naviyatning jamiyat hayotidagi o'rni.	Aqliy hujum
2	Inson-jamiyat-ma'naviyat uzviyligi.	Debat
3	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	Aqliy hujum
4	Ommaviy madaniyat va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.	Debat
5	Ma'naviyatning rivojlanish qonunlari.	Aqliy hujum
6	Ma'naviyat kategoriyalari.	Aqliy hujum
7	Mustaqillik davri ma'naviyati.	Debat
8	Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiysi: nazariya va amaliyot.	Aqliy hujum
9	Milliy tarbiyani shakllantirshda vorisiylik va qadriyatlar uyg'unligi	Debat

**9. Ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalar asosida o'tiladigan darslar
“Aqliy xujum” metodi asosida o'tiladi. Bu metod o'qituvchi tomonidan
qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:**

1. Talabalarning boshlanqich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan boglash maqsad qilib qo'yilganda - yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.
3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda - mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.
“Aqliy xujum” metodining tarkibiy tuzilmasi



1. Talabalarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo'yicha o'z javoblarini (fikr, mulohaza) bildirishlarini so'raladi;
2. Talabalar savol bo'yicha o'z fikr-muloqazalarini bildirishadi;
3. Talabalarning fikr-g'oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qogozlarga yoki doskaga) to'planadi;
4. Fikr va g'oyalari ma'lum belgilar bo'yicha gururlanadi;
5. Yuqorida qo'yilgan savolga aniq va To'g'ri javob tanlab olinadi.
"Aqliy xujum" metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:
 - a) Bildirilgan fikr va g'oyalari muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
 - b) Bildirilgan har Qanday fikr va g'oyalari, ular hatto To'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
 - v) Bildirilgan fikr va g'oyalarni to'ldirish va yanada kengaytirish mumkin.

Ma'naviyatshunoslik fanidan talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi

Ushbu talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9 avgustdag'i 19-2018-soni "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyrug'i hamda shu

buyruqqa asosan ishlab chiqilgan, Namangan davlat universitetining 2018 yil 10-oktyabrdagi 3-sonli Kengashida muhokama qilingan va ma'qullangan Namangan davlat universitetida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi bo'yicha YO'RIQNOMA asosida ishlab chiqildi.

Fan o'qituvchisi tomonidan birinchi mashg'ulotda Yo'riqnomalar talablari hamda nazorat turlari, soni, shakli va talabalar bilimini baholash mezonlari bilan tanishtiriladi.

Nazorat turlari:

Talabalar bilimini nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat semestr davomida ishchi fan dasturining tegishli bo'limi tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida hamda mashg'ulotlardan keyin o'tkaziladi.

Talabalar mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Seminar mashg'ulotlarida talabalar ishchi fan dasturida belgilangan mavzularning kamida 50 foizini o'zlashtirishlari va baholanishlari shart. Talabalarning mashg'ulotlarda olgan baholari barchasi qo'shiladi va olinishi shart bo'lgan baholar soniga bo'lgan holda o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Mashg'ulotlar jarayonida talabalar mustaqil ta'limiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda talaba belgilangan TBBM asosida baholab boriladi.

Oraliq nazorat fan o'qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan test shaklida semestr davomida bir marta o'tkaziladi. Test TBBM asosida baholanadi.

Talabani yakuniy nazoratga kiritilishi o'quv mashg'ulotlari (seminar mashg'ulotlari, mustaqil ta'lim, ma'ruza mashg'ulotlari yakunida olinadigan oraliq nazoratning test shakli)da olgan ballari asosida amalga oshiriladi. Bunda talabaning olgan barcha baholari umumlashtiriladi va o'rtacha baho keltirib chiqariladi.

Talabaning yakuniy nazorat turigacha bo'lgan o'rtacha bahosi quyidagicha aniqlanadi:

$$O'B = \frac{MO'B + MTB + ONB}{3}$$

bu yerda: O'B - semestrda talabalarning olgan o'rtacha bahosi;

MO'B – mashg'ulotlarda to'plagan o'rtacha bahosi;

MTB – mustaqil ta'limdan olgan bahosi;

ONB – oraliq nazorat turining test shaklida olgan bahosi.

3 – mashg'ulotlar, mustaqil ta'lim va oraliq nazorat shakllari

Agar talabaning o'rtacha bahosi 3 bahoga yetmasa yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turi semestr yakunida talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish shakli Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi tomonidan belgilanadi va ishlab chiqish uchun fakul'tet dekaniga taqdim etiladi.

Nazorat turlari bo'yicha materiallar 6 oy mobaynida saqlanadi.

Talabalar bilimini baholash mezoni (TBBM):

Baho	Talabalarning bilim darajasi
5 – “A’lo”	Talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilgandayu
4 – “Yaxshi”	Talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
3 – “Qoniqarli”	Talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda.
2 – “Qoniqarsiz”	Talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda.

Talabala bilimini baholash:

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi. Bunda 5, 4 va 3 baholar nazorat turlariga kirish yoki talabalaga stipendiya tayinlash va kursdan-kursga ko'chirish uchun asos bo'lsa, 0, 1 va 2 baholar nazorat turlariga kirish uchun yetarli bo'lmaydi va belgilangan muddatlarda talaba fandan qayta topshira olmasa akademik qarzdor hisoblanadi.

Oraliq nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash tegishli fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini olib borgan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Oraliq nazorat ballari yakuniy nazorat o'tkaziladigan muddatdan kamida bir hafta muddatda umumlashtirilishi va talabalarga fan o'qituvchisi tomonidan yetkazilishi shart.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan yoki markazlashgan holda axborot kommunikasiya texnologiyalarini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Kafedra mudiri yillik yuklamadagi fanlar bo'yicha yukuniy nazoratlarni o'tkazadigan professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantiradi va ro'yxatni fakultet dekaniga tasdiqlatadi. Agar belgilangan fan bo'yicha mashg'ulot o'tgan professor-o'qituvchi(lar)dan boshqa fan bo'yicha mutaxassis bo'lмаган hollarda, tegishli kafedra mudiri o'quv yilining boshida fakultet dekaniga mutaxassis bilan ta'minlash yuzasidan yozma

murojaat qiladi. Ushbu holatlarda fakultet dekani mutaxassis yetishmaydigan fan(lar) bo‘yicha mutaxassis topish uchun bevosita mas’ul hisoblanadi.

Tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi yakuniy nazorat turini o‘tkazishda ishtirok etmaydi.

Talaba tegishli fan bo‘yicha yakuniy nazorat turi o‘tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo‘lishlari shart.

Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo‘yicha “2” (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Talaba uzrli sabablarga ko‘ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

Talabaga oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini qayta topshirish uchun berilgan muddat davomida talaba tomonidan qayta topshirishlar soni 2 martadan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

Talaba oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini birinchi marta qayta topshirishdan o‘ta olmagan takdirda, fakultet dekani tomonidan komissiya tuziladi. Komissiya tarkibi tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi va soha mutaxassislari orasidan shakllantiriladi.

Ikkinchi marta oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turini o‘tkazish va talabani baholash mazkur komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Baholash natijasidan norozi bo‘lgan talabalar fakultet dekani tomonidan tashkil etiladigan Apellyasiya komissiyasiga apellyasiya berish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi tarkibiga talabani baholashda ishtirok etmagan tegishli fan professor-o‘qituvchilari orasidan komissiya raisi va kamida to‘rt nafar a’zo kiritiladi.

Talaba baholash natijasidan norozi bo‘lgan taqdirda, baholash natijasi e’lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat davomida apellyasiya berishi mumkin. Talaba tomonidan berilgan apellyasiya Apellyasiya komissiyasi tomonidan 2 kun ichida ko‘rib chiqilishi lozim.

Talabaning apellyasiyasini ko‘rib chiqishda talaba ishtirok etish huquqiga ega.

Apellyasiya komissiyasi talabaning apellyasiyasini ko‘rib chiqib, uning natijasi bo‘yicha tegishli qaror qabul qiladi. Qarorda talabaning tegishli fanni o‘zlashtirgani yoki o‘zlashtira olmagani ko‘rsatiladi. Apellyasiya komissiyasi tegishli qarorni fakultet dekani va talabaga yetkazilishini ta’minlaydi.

Baholash natijalarini qayd etish:

Talabalar bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib boruvchi o‘qituvchi tomonidan Talabalarning fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida qayd etib boriladi.

Professor-o‘qituvchi qo‘srimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Talaba nazorat turi o'tkazilgan vaqtida uzrli sabablarsiz qatnashmagan hollarda Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yiladi. Agar talaba sababsiz yoki uzrli sabab bilan mashg'ulotlarga qatnashmasa, unga yo'q (y yoki nb) qo'yiladi. Uzrli sabablarga kasallik, uylanish va turmushga chiqish, yaqinlarini olamdan o'tishi, boshqa joylarga rejalashtirilgan safar va shunga o'xshash omillar kiritiladi.

Yakuniy nazorat turi bo'yicha talabaning bilimi "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan yoki Jurnalga "0" belgisi yozib qo'yilgan hollarda ushbu baho yoki belgi talabaning Baholash daftariga yozilmaydi.

Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari

Rahbariyat adabiyotlari:

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martda qabul qilingan "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli Qarori
8. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 03.02.2021.
9. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 22.02.2021.
- 10.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi

to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).

11.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning OLiy Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/>

12.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “ O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PF-5847-sون Farmoni.

Asosiy adabiyotlar:

1. Ziyomuhamedov V., Ziyomuhamedova S., Qodirova S. Ma'naviyat asoslari. –T.: O'zbekiston, 2000.
2. Otamurodov S., Xusanov S. Ma'naviyat asoslari. – T.: Ma'naviyat, 2003.
3. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2006 yil.
4. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlari. – T.: Iqtisod moliya nashriyoti, 2006 yil.
5. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. –T.: G'ofur G'ulom, 2009.
6. Эркаев А. Маънавиятшунослик. (Маънавият онтологияси ва феноменологияси). 1-китоб. – Т.: Маънавият, 2018.
7. Эркаев А. Маънавиятшунослик. (Маънавият методологияси ва праксиологияси монография). 2-китоб. – Т.: Маънавият, 2018.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish – barqaror taraqqiyot kafolatidir //Xalq so'zi. 2016 yil 2 noyabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Xalq so'zi. 2016 yil 8 dekabr. O'zbekiston Respublikasining saylangan Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak //Xalq so'zi. 2017 yil 15 yanvar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisdagi ma'ruzasi.
4. Mahkamov U.I. Ta'lim oluvchilarining axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: FAN, 1995.

5. Ziyomuxammedov B. Komillikka eltuvchi kitob. – T.: “Turon-iqbol” nashriyoti, 2006.
6. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. – T.: 1994.
7. Ismailova Z.I. Ta’limiy ish metodikasi. – T.: 2003.
8. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilariuchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008. -180 b.
9. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovation texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilariuchun amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2009. -160 b.
10. Zamonaviy dars / Mas’ul muharrir Sh.Shomansurov – T.: A.Avloniy nomidagi xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy instituti, 2007. -120 bet.

Elektron ta’lim resurslari:

2. <http://www.tsil.uz>
3. <http://www.norma.uz>.
4. <http://www.gov.uz>
5. <http://www.lex.uz>
6. <http://www.lawbook.ru/>
- 13 <http://www.lawlibrary.ru>

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI



Milliy g'oya va huquq ta'lifi kafedrasи

“MA'NAVIYATSHUNOSLIK”

**fanidan talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va
baholash to'g'risida**

USLUBIY KO'RSATMA

NAMANGAN

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“Tasdiqlayman”
Milliy g'oya va huquq
ta'limi kafedrasi mudiri
f.f.n.O. Mamatov.
“ ” 2021 yil

Uslubiy ko'rsatma NamDU ning “Milliy g'oya va huquq ta'limi”
kafedrasining yig'ilishida ko'rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

2021 yil _____

Kafedra mudiri: f.f.n. O. Mamatov.

Uslubiy ko'rsatma NamDU ning Yurtidik fakulteti ilmiy kengashida ko'rib
chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

2021 yil _____

Fakultet dekani: t.f.n., dotsent B. Talapov

Tuzuvchi: dotsent v.b. A.Abdullayev

I. Umumiy qoidalar

Talabaning mustaqil ishi o'quv rejasida muayyan fanni o'zlashtirish uchun belgilangan o'quv ishlarining ajralmas qismi hisoblanadi.

O'qishning boshlang'ich qismida talabaning mustaqil ishini tashkil etish bir qator vazifalar bilan bog'liq. Shuning uchun har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma- bosqich mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nikma boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Mustaqil ta'limning maqsad va vazifalari.

Maqsadi:

Mustaqil ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatida zamonaviy pedagogik texnologiya va ular asosida yaratilgan interfaol usullardan foydalanishi; mustaqil ta'limning barcha shakllarini yangi texnika va texnologiya yutuqlarini xisobga olgan xolda zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish va amalga oshirish;

Mustaqil ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyat hamda kasbiy maxoratlarini zamon talabi darajasida shakllantirish;

Mustaqil ta'limning noan'anaviy o'qish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan uzviy hamda uzlucksiz aloqasini yaratish;

Mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish;ta'lim oluvchilarga

Mustaqil ta'lim jarayoniga nisbatan kasbiy, iqtisodiy, tafakkur etish, ma'naviy va boshqa qiziqishlarini uygotish;mustaqil tarzda kerakli ma'lumotlarni yig'ish, muammoni aniqlash, echimlarini qidirish; olingan bilim, malaka va ko'nikmalarni tanqidiy taxlil etish va ularni yangi vazifalarni hal etishda qo'llash;

Mustaqil ta'limda mustaqil ishslash bilan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash; tashkiliy, psixologik-pedagogik, o'quv-uslubiy, axborot, moddiy- texnik ta'minotni o'z ichiga oluvchi mustaqil ish infrakturasini yaratish;

Mustaqil ta'lim-natijalarini baholash tizimini yaratish.

Vazifalari:

- Bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
- Axborot manbalaridan samarali foydalanish;
- Elektron darslik ma'lumotlar bankini yaratish;
- Berilgan topshiriqning muhim echimini belgilash;
- Ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- Ish natijalari xulosasini tayyorlash va qayta ishslash;
- Topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;

- Ishlab chiqilgan echim, loyihani asoslash va mutaxassislar ishtirokida himoya qilish;
- Pedagogik texnologiyalarni nazariy va amaliy egallash hamda sharoitlarini aniqlash;
- Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilar hamkorligidagi faoliyatning aniqligi va oshkoraliqi.
- fan, texnika va texnologiya taraqqiyotining bugungi darajasi bilan o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini ta’minlash jarayoni orasidagi nomuvofiqlikni tizimga keltirish;
- ta’lim jarayonini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilish bo’yicha vaqt resursining cheklanganligi;
- ta’lim oluvchilar mustaqil bilim olishlarini tashkil etish, amalga oshirish va nazorat qilishga oid o’quv-metodik adabiyotlar, tavsiyalar, ishlanmalar, yo’riqnomalar, ko’rsatmalarning etarli emasligi va talaba darajasida ishlanganligini yoritish.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish tartibi

Talabalarning mustaqil ishini nazorat qilib borish kafedrada tuzilgan va kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish fan bo’yicha o’quv mashg’ulotlarini olib boruvchi professor-o’qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishi uchun o’quv rejada ajratilgan vaqtga mos ravishda har bir fan bo’yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriq variantlari ishlab chiqiladi va kafedra majlisida tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun har bir fan bo’yicha talabalarga ko’rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda tarqatma material sifatida fan bo’yicha birinchi mashg’ulotda talabalarga etkaziladi.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e’tibor berish lozim:

- o’qish bosqichi, ya’ni talaba qaysi kursda o’qiydi;
- muayyan fanning o’ziga xos xususiyati va o’zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;
- talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi;
- fanning axborot manbalari bilan ta’minlanganlik darajasi;
- talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi oddiydan murakkabga qarab o’zgarib borishi lozim. Ya’ni talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasi asta-sekin oshib borishi lozim.

Ma’naviyatshunoslik fani bo’yicha talabaning mustaqil ishi soati o’quv rejada ko’rsatilgan bo’lib, bu soatlar ishchi o’quv dasturida mavzular bo’yicha taqsimlangan. 2021-yil tasdiqlangan ishchi o’quv rejaga ko’ra mazkur fan to’rtinchi bosqich talabalari uchun sakkizinch semestrda o’tiladi. Fan umumiy 60 soatdan iborat bo’lib, shundan 30 soati auditoriya, 30 soat esa mustaqil ta’limga ajratilgan. Mustaqil ta’lim auditoriya soatiga proporsional ravishda quyidagicha taqsimlanadi:

Semestr	Yuklama	Auditoriya mashg'ulotlari					Mustaqil ta'lif
		Jami	Ma'ruza	Seminar	Laboratoriya	Kurs ishi	
VIII	60	30	14	16	-	-	30
Jami	60	30	14	16	-	-	30

Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
- laboratoriya ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- hisob-grafik ishlarini bajarish;
- kurs ishi loyihasini bajarish;
- malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- berilgan mavzu bo'yicha elektron variantlarni tayyorlash;
- uy vazifalarini bajarish va boshqalar.

O'qitilayotgan fanning xususiyatidan kelib chikib, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanish mumkin.

Ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko'rsatish lozim. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan, ilmiy adabiyotlardan va internet ma'lumotlaridan foydalaniib ushbu mavzuga taylorlanib keladilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat oladilar. Talabalarning tayyorlab kelgan mavzulari bo'yicha fan o'qituvchisi savol-javob tarzida og'zaki, yozma va boshqa usullardan foydalangan holda talabalarning bilimini baholaydi.

Talabalar mustaqil ishini baholash

Talaba mustaqil ish natijalari 2020-2021 o'quv yilida 4 kurs talabalari "Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risidagi Nizom" va 2020-2021 o'quv yilida 2-3-kurs talabalari uchun Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018 yil 29 sentyabrdagi 820- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga asosan baholab boriladi.

Talabalarning mustaqil ishi har bir fakultet va kafedra oynasida yoritib boriladi. Talabalarning mustaqil ishi har bir kafedrada 6 oy mobaynida saqlanadi.

Yuqori darajada baholangan talabalarning mustaqil ishlari institut Web sahifalarida e'lon qilinib boriladi.

Mustaqil ta'limdi amalgaga oshirish bo'yicha fan o'qituvchisining vazifalari

Talaba tomonidan mustaqil ta'limdi belgilangan reja asosida bajarilishi ustidan nazorat olib borish;

Darsliklar, o'quv qo'llanmalar, ilmiy risolalar, ilmiy maqolalar bilan tanishib chiqish bo'yicha topshiriqlar berish;

Asosiy adabiyotlar, ma'lumotlar va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etish;

Mustaqil ishiga o'zi rahbarlik qilayotgan talabalar bilan jadval asosida maslahatlar o'tkazish;

Mustaqil ta'linding bajarilish jarayoni natijalari to'g'risida kafedra yig'ilishlarida muntazam axborot berib borish;

Seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlarlik ko'rish

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo'lgan biror mavzu bo'yicha amaliy yoki seminar mashg'ulotlariga tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo'shimcha adabiyotlardan va internet ma'lumotlaridan foydalanib materiallar yig'adi, tahlil qiladi.

Hisob-grafik ishlarini bajarish

Talabaga shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda hisob-grafik ishlari beriladi. Bunda talaba shu mavzu bo'yicha mustaqil ravishda mavzuni chuqr o'rganadi, material yig'adi, tahlil qiladi, kerak bo'lganda internet ma'lumotlaridan foydalanadi va bu hisoblash, so'ngra grafik ishlarini bajaradi. Bunda talab imkoniyatidan kelib chiqib hisob-grafik ishlarini elektron varianti ham qilinishi mumkin. Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat oladi.

Ko'rgazmali vositalar tayyorlash

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirishi uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar va h.k) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l- yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning mikdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish mumkin.

Mavzu buyicha testlar, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan masalalar va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi.

Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar va uni tuzish qonun- qoidalari, qanday maqsad kuzda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l-yo'riqlar beriladi. Maslahat paytida bajarilgan ishlarni talabga javob berish darajasi nazorat qilib boriladi.

Ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tezislarini tayyorlash

Talabaga biron mavzu bo'yicha ilmiy (referativ) xarakterdagи maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tatqiqot ishlari, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi va o'z fikrlarini bayon qiladi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.

Amaliyotdagi mavjud muammolar echimini topish

Talabaga bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha noan'anaviylikni tahlil qiladigan, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliyotdagi mavjud muammolar, ijodiy yondashish talab qiladigan ilmiy- ijodiy vazifalar topshiriladi. Amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal usulini izlashga va topishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunda o'qituvchi talaba bilan hamkorlikda ishlaydi.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish.

- talabalar mustaqil ishini tashkil qilishga tizimli yondashish;
 - talabalar mustaqil ishini barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uziylashtirish;
 - talabalar mustaqil ishini bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;
- talabalar mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish.

Talabalar mustaqil ishini muvaffaqiyatli yakunlashi uchun quyidagi talablar bajarilishi lozim:

- Maqsad bilimning (bilimni mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faoliytni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va x.k.), aniq asoslanishi;
- vazifa va topshiriqlarning aniq-ravshan belgilanishi;
- topshiriqlarni bajarish algoritmi va uslublaridan talabalarning etarli darajada xabardor bo'lishi, maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi;
- hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;
- nazorat vaqtin, shakli va turlarini aniq belgilab olish.

O'quv fanlari bo'yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etadi.

Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo'yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqiladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi.

Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo'yicha talabalarga zaruriy uslubiy qo'llanma, ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish

Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan maslahatlar jadvali asosida amalga oshiriladi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos ravishda baholanadi. Har bir fan bo'yicha mustaqil ishning shakllari kafedra majlislarida muhokama etiladi va tasdiqlanadi.

Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari har bir kafedrada muhokama etiladi va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestri) boshlanishi oldidan metodik materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

Fanlar kesimida talabalarining mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishi muntazam ravishda talabalar guruhlarida, kafedra yig'ilishilarida muhokama qilib boriladi.

“Ma'naviyatshunoslik” fanidan IV-bosqich talabalari uchun mustaqil ish mavzulari

№	Mavzular	Max-1ball	Adabiyotlar bilan ishlash	Max-2 ball	Internet materiallari	Max-2 ball	Ko'rgazmali quroq	Max-4 ball	Referat	Max-1 ball	Yakuniy ball	Max-10 ball	Jami	Soati
1.	Ma'naviyat tushunchasi: moxiyati, mazmuni, tuzilmasi, namoyon bo'lish shakllai.													1
2.	Ma'naviyatning vujudga kelishi (genezisi) va dastlabki rivojlanish davri.													1
3.	Ma'naviyat va jamiyat hayoti.													1
4.	Ma'naviyat va inson tabiatи.													1
5.	E'tiqod va ma'naviyat.													2
6.	Ommaviy madaniyat: kelib chiqishi va shakllanishi.													2
7.	Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatiga ta'siri.													1
8.	Yuksak va ommaviy madaniyatlar diffuziyasi va interferensiyasi.													1
9.	Jamiyat taraqqiyoti jarayonida sog'lom ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojlar muttasil o'sib													1

	borishi qonuni.					
10.	Ma'naviyat rivojlanishining umumtamadduniy (sivilizatsion) taraqqiyot darajasiga bog'liqlik qonuni.					1
11.	Ma'naviyat yuksalishining ijtimoiy ong va ijtimoiy munosabatlar rivojlanish darajasiga bog'liqlik qonuni.					1
12.	O'zlikni anglash ma'naviyatning asosiy kategoriyasi sifatida.					2
13.	Ma'naviyatning tolerantlik kategoriyasi. Qadriyat tushunchasi.					2
14.	Mustaqillik va ma'naviyat.					2
15.	Mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi hamda madaniy meros, diniy an'ana va qadriyatlarimizning tiklanishi.					1
16.	Mustaqillik mas'uliyati					1
17.	Milliy-ma'naviy yangilanish, yuksalish – taraqqiyot omili.					1
18.	Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasining yaratilishi.					1
19.	Ma'naviyat va milliy g'oya.					1
20.	Milliy ma'naviyat rivojlanish konsepsiyasini xam nazariy, xam amaliy jihatdan boyitishning yangi bosqichi.					1
Jami						30

Bunda talabaning mustaqil ishlarini baholash asosan 5 ta ko'rsatkich bo'yicha amalga oshiriladi:

I. Adabiyotlar bilan ishslash darajasi -1 ball

1. Talabaning viloyat va universitet kutubxonalariga a'zoligi - 0,3 ball
2. Talabaning kartotekalardan foydalana olish darajasi - 0,3 ball
3. Adabiyotlar bilan ishslash holati - 0,4 ball

II. Internet materiallaridan foydalana olish darajasi - 2 ball

1. Kompyuter savodxonligi - 0,5 ball
2. Internet saytlarining ro'yxati - 0,5 ball
3. Tanlangan materiallarning mavzuga mos kelishi – 0,5 ball
4. Materialni tarjima qilish imkoniyati – 0,5 ball

III. Ko'rgazmali quollar tayyorlash - 2 ball

- I. Ko'rgazmali kurolning standart talabiga moskelishi 0,5 -ball
2. Ko'rgazmali qurolning originalligi (o'ziga xosligi) 0,5 -ball
3. Ko'rgazmali qurolning mavzuga mosligi -1 ball

IV. Referatning ilmiy jihatdan yoritilishi - 4 ball

1. Referatda ijtimoiy-siyosiy voqyelikning aks ettirishi 1-ball
2. Referatda ilmiy nazariy manbalarning yoritilishi - 1 ball
3. Referatda ilmiy amaliy manbaalarning yoritilishi - 1 ball
4. Xulosa va tavsiyalarning mavjudligi - 1 ball

V. Yakuniy nazorat (referat himoyasi) - 1 ball

1. Talabaning o'z mavzusini chuqur egallaganligi 1- ball
2. Talabaning erkin va mustaqil fikrlay olishi 1- ball

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.-488 б.
2. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. - 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Т.: Ўзбекистон, 2017. - 512 б.
4. Мирзиёев Ш. М. “Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади” 3-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2019. - 400 б.
5. Мирзиёев Ш. М. “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари”. 4-жилд. - Т.: “Ўзбекистон”, 2020. - 452 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.

7. 2017–2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasini “Yoshlarni qo’llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 03.02.2021.
8. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. 22.02.2021.
9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda).
10. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning OLiY Majlisga Murojaatnomasi. 24.01.2020. <https://president.uz/uz/>
11. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr “ O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PF-5847-son Farmoni.
12. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi. 2019 yil 31 dekabr. O’zbekiston Respublikasi VM Qarori №1059, Toshkent sh.
13. Quronov, Sh.Turayev va boshq. Millit tarbiya va yoshlar dunyoqarashini shakllantirish. O’quv qo’llanma, “Muharrir” nashriyoti. 2017 y. 18 b.t.
14. A.Erkayev. Ma’naviyatshunoslik. Ma’naviyat nashriyoti. Toshkent. 2018.
15. R. Ruziyeva, N. Bobonazarova Ma’naviyat asosiari. T., “O’zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi”, 2019.
17. A.Qodirov, M.Quronov va boshq. Fazilatli avlod: 7-18 yoshgacha bo’lgan bolalarni tarbiyalash bo'yicha qo'llanma. “Muharrir” nashriyoti. 2019 y. 16 b.t.
18. Avloniy. “Tanlangan asarlar” 1 jild. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
19. Fitrat. “Tanlangan asarlar” 1 jild. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
20. M. Bexbudiy. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
21. M. Xodiev Botu. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
22. Ibrat. “Tanlangan asarlar”. “Ma’naviyat” nashriyoti 2019 y.
23. Quronov M. Mafkuraviy tahdid va yoshlar tarbiyasi. -T.: Akademiya. 2008.
24. A.Utamuradov va boshqalar. Shaxc ma’naviy kamolotini shakllantirish. Toshkent. “Universitet”, 2011.
25. Najmidinova Q. U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o’rni. - T.: “Adolat”, 2016. 224 b.
26. Kenjaboev A., Kenjaboev J. Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbligi. Zamonaiv ta’lim, 2015 yil, 4-son. 61-64 betlar.

Axborot manbilari:

6. WWW.tdpu.uz
7. WWW.pedagog.uz
8. WWW.Ziyonet.uz
9. WWW.edu.uz
10. tdpu-INTERNET.Ped

Glossary

**“MA’NAVIYATSHUNOSLIK” FANIGA OID ASOSIY
TIMSOL-TUSHUNCHALARING
QISQACHA IZOHLI LUG’ATI**

- 1. Ko’p qutbli dunyo** — milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, biz ko’rib turgan olamning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy sohalarda yuksak qudrat va mavqe kasb etgan shaxslar, guruhlar, davlatlar, mintaqalar xilma-xilligidan tashkil topganligi.
- 2. Inson** — dunyo mehvari - milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, ma’naviyat nuqtayi nazaridan, har bir insonga, imkoniyat (potensiya) darajasida, bu moddiy olamning markazi deb qarash, chunki u Allah tomonidan «yer yuzining xalifasi» qilib yaratilgan va uning qalbi Borliq haqiqatining mazhari (namoyon bo’lish joyi)dir. Shunday ekan, har bir inson, agar astoydil xohlasa, bulun olam holatiga sezilarli ta’sir ko’rsatish imkoniga ega.
- 3. Iqtisod, siyosat, ma’naviyat uyg’unligi** - milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, inson va jamiyat hayoti ushbu uch sohadan (uch yo’nalishidan) iborat bo’lib, inson va jamiyat kamolotining asosi ularning o’zaro uyg’un rivojida ekanligi.
- 4. Iqtisod** — inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo’nalishidan) biri, har bir insonning atrof-tabiat (moddiy voqelik)ka amaliy munosabati.
- 5. Iqtisod fanlari** — ijtimoiy-siyosiy fanlar tarkibiga kiruvchi ushbu ilm tarmog’i bugungi kunda o’zi ko’p tarmoqli mustaqil tizimga aylangan bo’lib, tabiiy va texnika fan tizimlari ham asli ko’p jihatdan keng ma’nodagi iqtisod sohasi ehtiyojlariga xizmat qiladi.
- 6. Siyosat** — inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo’nalishidan) biri, har bir insonning o’zga insonlar bilan bevosita munosabatlari. Siyosat sohasi o’z navbatida axloq va huquq qatlamlaridan iborat bo’lib, ularning har birini o’rganuvchi alohida fan yo’nalishlari mavjud.
- 7. Siyosatda huquq qatlami** - insonlararo munosabatlarning qonunlar orqali tartibga solinishi.
- 8. Siyosatda axloq qatlami** — insonlararo munosabatlarning muayyan ma’naviy qadriyatlar asosida muvozanatda saqlanishi.
- 9. Siyosatshunoslik (Politologiya)** - siyosat sohasini o’ziga xos muayyan yo’nalishda o’rganuvchi fan bo’lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) davlat tizimi va siyosiy partiylar, demokratiya va ijtimoiy adolat masalalarini qamrab oladi. Bugungi kunda siyosiy fanlar alohida tizimni tashkil etishidan tashqari agar siyosat sohasini keng ma’noda olib qaraladigan bo’lsa, huquqshunoslik, axloqshunoslik, jamiyatshunoslik kabi yana bir qator zamonaviy fanlar ham ayni shu sohaga oid masalalar bilan bevosita shug’ullanishini nazarda tutish lozim. Ulardan ba’zilari, masalan axloqshunoslik, bir paytning o’zida ma’naviyat

sohasiga ham bevosita aloqador fanlar tizimiga kiradi.

10.Ma'naviyat — inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo'nalishidan) biri, har bir insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo'lган munosabati. Ma'naviyat – o'z mazmuniga ko'ra ko'p qirrali murakkab botiniy hodisa bo'lib, mohiyatan Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlikni anglatadi. Shu ma'noda uni Insonning, Xalqning, Jamiyatning, Davlatning kuch-qudrati, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch, Haqiqat nurining inson qalbida aks etishi, yoki baqoning fanoda zuhuri, dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligi, insonning o'z mohiyati oldidagi mas'ulligi, o'zligini anglashi deb ham ta'riflash mumkin. Insonning Borliq abadiyatiga daxldorligi ayni uning ma'naviyati tufaylidir.

11.Dunyoviy maqsadlar — biz yashab turgan moddiy dunyoga oid (o'tkinchi) maqsadlar.

12.Baqqo — abadiylik, azaliy va abadiy qudrat, mutlaq Haqiqat, inson ma'naviy kamolotining nihoiy maqsadi.

13.Fano — o'tkinchi, muvaqqat holat, insonning moddiy olamdag'i holati.

14.Ma'naviyat asoslari - Ma'naviyat sohasining asosiy masalalarini nazariy tadqiq etuvchi yangi fan. Bugungi kunda, hanuz jahon **ilmi** darajasida tadqiqotlar o'tkazilmaganligini hisobga olib, «Milliy ma'naviyatimiz asoslari» deb atalishi maqsadga muvofiqdir. Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik darajalari (Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat), Shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari (imon, ilm, mas'uliyat, mehr), Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari va shu kabilar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qildi.

15.Inson — ma'naviy kamolot imkoniga ega bo'lган (yagona) moddiy (biologik) mavjudot. Qur'oni karim oyatlarida ta'kidlanishicha, har bir inson Allah tomonidan «yer yuzining xalifasi» qilib yaratilgan, shunday ekan, butun moddiy olam uning tasarrufida va u dunyodagi barcha mavjudot taqdiri uchun mas'uldir. Insonning irodasi erkin va shu sababli har bir xatti-harakati uchun Allah oldida javob berasidi. Inson o'z ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan sari tom ma'noda Shaxsga aylana boradi.

16.Shaxs ma'naviyati — har bir inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik darajasi. Bu uyg'unlik har bir shaxsning imoni, ilmi, mas'uliyati, mehri orqali namoyon bo'ladi va Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg'ularida ifodalanadi.

17.Borliq haqiqati – mavjud borliqning asl mohiyati, inson zoti hech qachon oxirigacha anglab yetishga intiladigan mutlaq haqiqat. Har bir inson Borliq haqiqati haqida

muayyan tasavvurga ega bo'lib, ushbu tasavvuri umri bo'yi takomillashib borishi, ba'zan hatto keskin o'zgarib ketishi ham mumkin.

- 18.Imon** — shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihatni, o'zi anglab yetgan va to'g'ri deb bilgan Borliq haqiqatiga samimiy e'tiqod. Imon-e'tiqod ma'naviyatning o'zak tomiri bo'lib, shaxs ma'naviyati imondan boshlanadi-Xalqimiz tilida "imonsiz" degan so'z eng og'ir haqorat sanalishi bejiz emas.
- 19.Ilm** — shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihatni va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, Borliq haqiqatini anglab yetishda bilimga, aql va tafakkurga tayanish. Ilm nuri bilan yorishmagan e'tiqod "taqlidiy imon" hisoblanadi va takabburlik bilan birlashsa aqidaparastlikka olib boradi.
- 20.Mas'uliyat** — shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihatni, o'zi anglab yetgan va to'g'ri deb bilgan Borliq haqiqatiga amalda sadoqat saqlash, har bir xattiharakatining oqibatini o'ylab qadam qo'yish. Inson erkin irodasi bilan o'zini dunyodagi barcha mavjudot uchun mas'ul deb bilsa va har bir qadamini qo'yishda ana shu mas'uliyatni his qilib tursa ayni shu shaxs haqiqiy ma'naviyat sohibidir.
- 21.Mehr** — shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihatni va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, insonlarga, tabiatga, har bir ishga beg'araz fidoyilik bilan munosabatda bo'lismash. Mehr ma'rifati 1) inson ko'nglini anglab yetish va unga mehr ko'rsatish bilan tarbiyalash, 2) insonning boshqa bir insonga bo'lgan beg'araz muhabbat tufayli xudbinlik balosidan forig' bo'lishi va Borliq haqiqatini anglab yetishi (Alisher Navoiy talqinida) ma'nolarini anglatadi.
- 22.Ma'rifat** — ma'naviy kamolot yo'li, insonning ko'ngil ko'zgusini sayqallash jarayoni, ya'ni har bir insonning butun ongli hayoti davomida o'zligini anglash, o'zining Borliq haqiqatiga nisbatini aniqlash va o'z ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirib borish yo'lidagi harakati.
- 23.Tarbiyashunoslik (Pedagogika)** — ta'lim-tarbiya sohasining dolzarb masalalarini tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi maxsus fan bo'lib, ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi. Ma'rifat yo'llari (jumladan, ibrat va ilm, riyozat va mehr) orqali ifodalanuvchi o'zlikni anglash ya'ni ko'ngil ko'zgusini sayqallash jarayoni milliy pedagogikamizning asosiy mavzularidandir.
- 24.Ibrat** — milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, el-yurt ehtiromiga sazovor ulug' bir insonning yashash tarzi, e'tiborga loyiq xattiharakatlaridan namuna olib, hayotda ularga rioya qilish. Jumladan, islom ma'naviyatida payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) ibratlari yetakchi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga ibrat ma'rifatini ko'r-ko'rona taqliddan farq qilish juda muhim.

- 25. Riyozat** - milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, muayyan ezgu maqsad yo'lida barcha qiyinchiliklarga bardosh berib, olg'a intilish. Islom mintaqasi madaniyati doirasida riyozat ma'rifatini yuksak mukammallik darajasiga olib chiqishda tasavvuf piri murshidlarining xizmati beqiyosdir.
- 26. Oliy ma'naviy qadriyatlar** — inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining turli darajalarini ifodalovchi timsol-tushunchalar. Shaxs va millat ma'naviy kamolida besh daraja sifatida besh ulug' ma'naviy qadriyatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular — *Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat*. Bularning har biri bir paytning o'zida ham Millat ma'naviyatining bosh tayanchlari, murakkab ichki mundarijaga ega bo'lgan timsol-tushunchalardir.
- 27. Vatan (tuyg'usi)** — milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining avvalgi darajasi, har bir insonning muayyan moddiy makonga ma'naviy munosabati. Bu timsol-tushunchaning ma'no ko'lami yana o'z ichki takomil darajalariga ega (1-ruh uchun badan, 2-xonodon, 3-shahar, qishloq, 4-mamlakat, 5-onasayyora).
- 28. Shaxs (tuyg'usi)** - milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson rahining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining ikkinchi darajasi, har bir inson ma'naviy takomilning muayyan bosqichiga ko'tarilib, o'zligini anglay boshlagan holati.
- 29. Millat (tuyg'usi)** — milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining uchinchi darajasi, har bir insonning muayyan (o'z tili, davlati, ma'naviy, siyosiy va hududiy birligiga ega bo'lgan) insonlar uyushmasiga o'zini aloqador ekanligini anglab yetishi.
- 30. Adolat (tuyg'usi)** – milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining to'rtinchi darajasi, ma'naviyatning siyosat sohasida (ya'ni, insonlararo munosabatlarda) akslanishi (yuzaga chiqishi).
- 31. Haqiqat (tuyg'usi)** — milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining eng yuqori darajasi, inson ma'naviy kamolotining tasavvur qilish mumkin bo'lgan ideal holati.
- 32. Milliy ma'naviyat** — har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyati majmuyini muayyan bir tizim sifatida anglanishi. Milliy ma'naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo'lib, millatning o'tmishi, buguni, hamda kelajagini o'zida mujassam etadi. U millatimizning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istiklarida o'z aksini topgandir. Uning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yaxlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan

birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbayi bo'lib xizmat qiladi.

33. Madaniyat — inson ma'naviy faoliyatining hosilasi, ma'naviyatning moddiy voqelikdagi izlari. Boshqacha qilib aytganda, ma'naviyat botiniy imkon bo'lsa, madaniyat — ushbu imkondan tug'ilgan voqe mavjudlik. Shaxs va millat ma'naviyatining nazariy masalalarini o'rganish uchun ilojsiz ravishda ayni shu voqe mavjudlik dalillaridan kelib chiqishga to'g'ri keladi "Ma'naviyat sohasiga aloqador barcha fanlarning mavzulari ham aslida ana shu mavjud voqelik dalillariga tayangan holda ishlab chiqilishi tabiiy holdir.

34. Madaniyatshunoslik (Kulturologiya) — Ma'naviyat sohasiga aloqador yo'nalishdagi asosiy fanlardan bo'lib, jahon va mintaqqa madaniyatlarini inson ma'naviy faoliyatining hosilasi bo'l mish mavjud voqelik sifatida olib o'rganish ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil etadi.

35. Islom mintaqqa madaniyati — asosan VIII — IX asrlarda shakllanib, Ispaniya va Shimoliy Afrikadan Volga bo'yи va Sharqiy Turkistongacha cho'zilgan hududdagi musulmonlar jamoasi uchun umumiy bo'lgan va deyarli XVI asr boshlarigacha nisbatan yaxlitligini saqlab kelgan madaniy-ma'naviy an'analar tizimi.

36. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari — Millatning ma'naviy kamoloti uning butun tarixi davomida yuz beradi, u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi, unda ba'zan asrlar kunlarga, va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Ma'naviy takomil jarayonining o'ziga xosligi shundaki, agar tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tkinchi bo'lsa, moddiy madaniyat unsurlari vaqt o'tishi bilan yemirilsa, ma'naviyat esa yuksalib, boyib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va maz-munda o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Milliy ma'naviyatimizning necha mingyllik takomili shartli ravishda uch yirik davrga bo'linadi: 1. Islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti. 2. Islom mintaqqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomili. 3. Yangi davrda milliy ma'naviyatimiz ahvoli. Bu davrlar o'z qamrab olgan muddatlariga ko'ra o'zaro teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr 8-9 asrni o'z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o'lkamiz - Turkiston uchun 5 asr chamasi davom etib, oxirgi 200 yili ko'proq fojialarga to'liq bo'ldi. Bu davrlar o'z navbatida yana qator bosqichlarga bo'linadi.

37. Eng qadimgi ma'naviyat unsurlari — islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining birinchi bosqichi. Tosh asriga muvofiq keluvchi ibtidoiy jamoa davrida shakllangan ma'naviy qadriyatlar. Bu davrda hanuz yozuv ixtiro

qilinmagani uchun yaxlit shakllangan alohida ma'naviyat tizimi haqida xulosa qilish qiyin.

38.Ilk shahar jamoasi ma'naviyati — islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining ikkinchi bosqichi. Asosan bronza asriga muvofiq keluvchi ilk shahar-davlatlar davrida shakllangan yaxlit ma'naviyat tizimi (masalan, shumerlar ma'naviyati yoki "Avesto" ma'naviyati). Bu davr odamlari Borliq haqiqatini asosan asotir tarzida tasavvur etganlar.

39.Asotir (mif) - ibridoq inson ongida Borliq haqiqatining xayoliy timsollar vositasida ifodalanishi. Hozirgi zamon odami asotirni afsona sifatida tushunadi, ammo qadimgi dunyo odamlari asotirning Borliq haqiqatini ifodalashiga shubha qilmaganlar. Masalan, Qadimgi yunonlar Zevs, Apollon, Afrodita kabi turli sanamlarni Olimp tog'ida abadiy yashaydi deb tasavvur qilganlar va ular sharafiga ibodatxonalar qurib, qurbanliklar keltirganlar. Asotir va badiiy asarning umumiy tomoni Borliq haqiqatini timsollar vositasida anglash va anglatishga urinish bo'lib, ularning o'zaro farq qiluvchi tomoni - asotirni o'z davrining odami haqiqat deb qabul qilgan, san'at asarini esa insonlar mutlaq haqiqat deb o'ylamaydi, balki ibrat maktabi sifatida tushunadi.

40.Millat va milliy davlatning shakllanishi — islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining uchinchi bosqichi. Temir asri yoki buyuk sultanatlar davrida shakllangan ma'naviy qadriyat - millat timsol-tushunchasining vujudga kelishi (masalan, turkiy bitiklarda o'z ifodasini topgan "turk buduni" timsol-tushunchasi).

41.“Turk buduni” — Buyuk turk xoqonligi (Ko'k turk xoqonligi) davrida umumturkiy adabiy til, mustaqil davlatchilik g'oyalari asosida mukammal shakllangan va “Kultegin bitigi”, “Bilka xoqon bitigi”, “To'nyuquq bitigi” kabi turkiy toshbitiklarda o'z ifodasini topgan yagona turkiy xalq va millat timsol-tushunchasi.

42.Sunna bosqichi — milliy ma'naviyatimizning islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining birinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan birinchisi, Tavhid Haqiqatini butun ko'lami bilan anglab yetishning dastlabki pog'onasi bo'lib, VIII—IX asrlarni o'z ichiga olgan bu bosqichda Payg'ambarimiz (s.a.v) sunnatlarining asosi bo'l mish hadis ilmi mukammal darajaga ko'tarildi va eng mo'tabar olti hadis to'plami tuzildi. Bu bosqichning yetakchi tamoyilini Ibrat ma'rifati deb hisoblash mumkin. Sunna ibrat orqali e'tiqod bo'lib, Borliqning yagona Oliy haqiqati mavjudligini tan olish va unga chin dildan e'tiqod qilishni taqozo etgan.

43.Taqlidiy imon - ilm darajasiga ko'tarilmagan, mohiyatan anglab yetilmagan, faqat ibrat asosidagi e'tiqod bo'lib, uning egalari turli botil yo'nalishlar va aqidaparastlik ta'siriga oson berilish xavfidan xoli emaslar.

- 44.Tahliliy imon** - chuqur bilim va tafakkur natijasida shakllangan, yuksak ma'naviyat egalari, orif insonlarga xos mohiyatan anglab yetilgan e'tiqod.
- 45.Islom ma'rifatchiligi bosqichi** — milliy ma'naviyatimizning islom mintaqasi madaniyati doirasidagi takomilining ikkinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan biri, X—XI asrlarda o'zining eng yuksak takomilini namoyon qilgan va Tavhid haqiqatini mantiqiy tafakkur darajasida anglab yetishga erishilgan bu tamoyilni Ilm ma'rifati deb ta'riflash joizdir. "Islom ma'rifatchiligi" insoniyat anglab yetgan barcha mavjud bilimlar mohiyatan Tavhid e'tiqodiga muvofiq ekanligini ilm va mantiqiy tahlil vositasida isbot qilishga qaratilgan turli yo'nalishdagi qomusiy allomalar guruhining umumiy faoliyatini anglatadi.
- 46.Kalom (ilmi)** — naqliy va aqliy bilimlar uyg'unligiga tayangan xos islom falsafasi va ilohiyot ilmi. Kalom ilmining dastlabki yirik oqimi bo'lган mo'tazila din aqidalarini aql tarozisida o'lchab talqin etishga assoslangan edi, bu oqim vakillari islomning eng muhim ikki masalasi - Adolat va Tavhid tushunchalari talqinida shu darajada ilgari ketdilarki, ular izidan islom ma'rifatchiligining buyuk talqini kelishi davrning mantiqiy taqozosi bo'lib qoldi. Xalifa Ma'mun (813— 833) davrida islomning mo'tazila talqini rasmiy ta'limotga aylandi va hatto mo'tazilaning Qur'onning yaratilganligi haqidagi qarashiga qo'shilmagan ruhoniylar tazyiq ostiga olina boshlandi. Bu holat to 849-yilda xalifa Mutavakkil (847—866) bunday bahslarni taqiqlash haqida farmon chiqarguncha davom etdi. X asrga kelib, kalom ilmining ashariya va moturidiya oqimlari shakllandı. Kalom falsafasi Tavhid ta'limotini minta-qadagi barcha eski aqidalar majmuyidan har tomonlama ustunligini aql va mantiq qudrati bilan isbotlab bergach, islomning ma'naviy mavqeyi beqiyos yuksalib ketdi, shu bilan birga Qur'oni karim oyatlarida ta'kidlangan tarixiy tadrijiylik qoidasi chuqurroq idrok etila boshlandi. Allohning oxirgi kitobi keltirgan ma'naviy boylikni teran anglab yetish uchun islomgacha yaratilgan butun madaniy merosni chuqur o'rganish va to'g'ri talqinda o'zlashtirish lozimligi ma'lum bo'lib qoldi.
- 47.Falsafa** — Borliq haqiqatini (Borliqning mohiyati, unda insonning o'rni va vazifasi kabi eng umumiy muammolarni) mantiqiy tafakkur asosida anglab yetish va anglatishga urinish, aniqroq aytganda, Borliq haqiqatini turlicha xususiy timsol-tushunchalar asosida modellashtirishga urinish. Islom mintaqasi madaniyati doirasida qadim yunon falsafiy maktabi an'analarini tawhid ta'limoti doirasida rivojlantirgan Forobiy, Ibn Sino kabi allomalarimiz merosi shu nom bilan atalgan.
- 48.Falsafa(shunoslik)** — ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, asosiy mavzusi (predmeti) jahon tarixida mavjud bo'lган turli falsafiy tizimlarni Borliq haqiqatini mantiqiy modellashtirish usullari sifatida qiyosiy o'rganishdir. Fan va

uning tadqiq sohasi (obyekti) bir nom bilan atalganligi tufayli ba'zi ilmdan uzoq kishilar hayotda ularni o'zaro adashtirishi kuzatiladi.

49.Faylasuf — Borliq haqiqatini o'zi anglab yetgan yoki tasavvur etgan darajada mustaqil falsafiy tizim shaklida modellashtira olgan ijodkor shaxs.

50.Falsafiy tizim — Borliq haqiqatining har bir faylasuf tasavvuridagi yaxlit mantiqiy modeli.

51.Botiniya — Islom ma'rifatchiligi bosqichida shakllangan Borliq haqiqatini idrok etishga oid yana bir yirik yo'naliш bo'lib, uning asosida ismoiliya bid'ati yotadi. Shia mazhabidan ajralib chiqqan bu bid'at namoyandalari boshqa shialar kabi oltinchi imom Ja'far as-Sodiq (700—765) ning kichik o'g'li Muso al-Kozim (vafoti 799-yil) ni emas, katta o'g'li Ismoilni imomlikdagi vorisi degan da'vo bilan chiqdilar (Ismoil bin Ja'far otasi hayot chog'ida 762-yilda vafot etgan). Misrda Fotimiylar davlat tepasiga kelgach (909-yil), ismoiliylarning mintaqa bo'ylab faoliyati avj oldi va ta'siri ham kuchaydi. Davr aql va mantiqiy tafakkur davri edi. Shunga munosib ravishda ismoiliya bid'ati targ'ibotchilari o'zlarining murakkab falsafiy tizimini ishlab chiqdilar. Ular bilimni zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) darajaga ajratdilar. Zohiriy bilim avom uchun mo'ljallangan bo'lib, asosan shia mazhabi shariat ahkomlariga mos kelardi. Botiniy bilim esa faqat tanlangan tor doira — xoslar orasidagina tarqalishi nazarda tutilar va borliqni idrok etishning murakkab falsafiy tizimidan iborat edi. Botiniy bilimlar qomusi sifatida shuhurat qozongan buyuk meros - X asrda yaratilgan 52 risoladan iborat "Rasoili ixvon-us-safo va xullon ul-vafo" ("Pok birodarlar va vafodor do'stlar risolalari") majmuasi bo'lib, bu majmuada 14 risola riyoziyot (matematika)ga, 17 risola tabiiy fanlarga, 11 kitob Oliy haqiqat sirlari va yana 10 kitob diniy masalalarining mantiqiy tahliliga bag'ishlangan edi. Bu mukammal qomus islomgacha hosil bo'lgan ilmiy-falsafiy merosni chuqr o'zlashtirish asosida yuzaga kelgan bo'lib, mintaqa ilmining keyingi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Botiniya yo'naliши asosan ismoiliya bid'atiga bog'lab talqin etilsa ham, aslida o'sha davrlarda ko'pchilik rasmiy aqidaga muxolif qarashlar shu nom ostida umumlashtirib talqin qilinganligini ham nazardan qochirmasligimiz kerak. Ushbu yo'naliشning Movarounnahrdagi yirik namoyandasи buyuk shoир va mutafakkir Nosir Xusrav (1004—1088) ismoiliya qarashlarini jiddiy falsafiy ruhda talqin qilib, ijtimoiy adolat masalalariga alohida diqqatini qaratdi.

52.Tasavvuf tariqatlari yoxud irfon bosqichi - milliy ma'naviyatimizning Islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining uchinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan biri, Tavhid Haqiqatining irfoniy ta'rifini shakllantirgan tasavvuf tamoyili tarixida ayni XII—XIII asrlar keng xalq ommasini o'ziga jalb eta boshlagan ulug' tariqatlar zamoni bo'ldi va bu yo'naliشning eng mukammal

nazariy asoslari ham shu asrlarda yaratildi. Riyozat ma'rifatining eng yuksak namunalarini ko'rsatgan o'z zamonasining ma'naviy qutblari – ulug' piri murshidlarning aksariyati shu asrlarda yashab o'tdilar.

53.Irfon — tasavvuf nazariyasi, Borliq haqiqatini anglab yetishning tasavvufiy yo'nalishi. Irfon Haqiqat ishqiga alangasiga tik kirib borib, nafsni xudbinlik zangidan poklash va shu orqali shaxsning Oliy Haqiqatga daxldorligini amalda ta'minlash yo'li.

54.Zuhd — zohidlik, moddiy olam hirs-u havaslaridan butkul yuz o'girib, Alloh ibodatiga berilish, tarki dunyochilik, tasavvuf tamoyili tarixida bиринчи bosqich.

55.Shariat - (arab tilidagi lug'aviy ma'nosi "yo'1"). Islom dinida barcha musulmonlar rioya qilishi shart bo'lgan umumiyligini qonun-qoidalar. Tasavvuf yo'lini tanlagan so'fiylar uchun rioya qilish shart bo'lgan bиринчи bosqich.

56.Tariqat — arab tilida "tariq"so'zining lug'aviy ma'nosi ham "yo'1" bo'lib, "tariqa(t)"ning tasavvufiy ma'nosi ma'naviy kamolot sari intilgan so'fiyning maxsus tanlagan yo'lidir. Bu yo'l tavba maqomidan boshlanib, muridning bir ulug' piri murshidga qo'1 berishidan ("fano fi-sh-shayx" maqomi) to "fano fi-l-loh" darajasiga yetishgunicha davom etadi. Majoziy ma'noda bu bosqichdagi piri murshidning vazifasini kulolga, muridni uning qo'lidagi loyga, "tavba" maqomini loyning xas-xashakdan tozalanishiga qiyos qilish mumkin. Barcha gunohlaridan astoydil tavba qilgan muridni sopol yoki chinni yasashga yaraydigan loy deb tasavvur qilsak, piri murshid unga ishlov berib, yaxshi bir ko'za yasaydi, unga jilo berib, "oftobda quritgach", pi-shirish uchun "xumdon"ga soladi.

57.Ma'rifat — tasavvufda tariqatdan keyingi uchinchi bosqich bo'lib, "Alloh(Haq)ni tanish" ma'nosini bildiradi va "fano fi-1-loh" maqomidan "baqo bi-l-loh" maqomigacha bo'lgan ma'naviy takomil darajasini anglatadi. Yuqoridagi majoziy o'xshatishni davom ettirsak, "ma'rifatulloh" bosqichini xumdonga qiyos etish o'rini bo'lib, bu "xumdon"ning olovi esa "ishqi ilohiy"dir. Ana shu muqaddas ishq olovi butun borlig'ini chulg'ab olib, inson ruhiyatidagi nafs yo'liga moyillik va xudbinlik "chirki"ni butkul kuydirib tashlagan bo'lsa, so'fiy "haqiqat" bosqichiga ko'tarilib, oriflik maqomiga erishadi. Tasavvufda faqat oriflik maqomiga erishgan so'fiygina piri murshid xirqasiga noil bo'lishi mumkin.

58.“Fano fi-sh-shayx” – to'liq ishonch bilan piri murshid irodasiga o'zligini topshirish. Bu maqomni to'g'ri talqin qilish uchun tasavvufdagi piri murshidlik maqomining asl mohiyatini anglab yetish talab etiladi.

59.“Fano fi-l-loh” – lug'aviy ma'nosi:"Allohda yo'q bo'lish". Tasavvufiy ma'nosi: ilohiy ishq jazbasida butkul o'zlikdan kechish. Mansuri Xallojning mashhur"Analhaq" xitobi ushbu holatning eng yorqin namunasidir.

- 60.“Baqo bi-l-loh”** — lug’aviy ma’nosi "boqiylikda (abadiylikda) Alloh bilan". Tasavvufiy ma’nosi: nafsoniy va xudbinlik mayllaridan butkul ozod bo’lib, irodasini to’liq Borliq haqiqatiga bo’ysundirish, oriflik maqomiga yetishish.
- 61.Oriflik maqomi** - irfoniy kamolotda "haqiqat" bosqichiga ko’tarilib, valiylik darajasiga yetish.
- 62.Orif** — laduniy bilim egasi, Borliq haqiqatini mohiyatan anglab yetgan, o’z ruhiyatida Borliq haqiqati bilan mukammal uyg’unlik hosil qila bilgan shaxs, tasavvufda ma’naviy kamolotning oliv darajasi bo’lmish "Haqiqat" bosqichiga ko’tarilgan solik.
- 63.Piri murshid** — Oriflik maqomiga yetishib ustozni tomonidan muridlarni mustaqil tarbiyat qilish huquqiga musharraf bo’lgan solik, muayyan tariqat silsilasida alohida halqa sohibi.
- 64.Ilmi laduniy (laduniy bilim)** — irodasini to’liq Borliq haqiqatiga bo’ysundirgan alohida insonlar musharraf bo’ladigan, Alloh inoyati bilan erishiladigan bilim (Imom G’azzoliy uni "mukoshafa ilmi" ya’ni kashf etiladigan ilm deb ataydi). Bu ilmga noil bo’lganlar valiylik maqomiga erishgan karomatli zotlar hisoblanadi.
- 65.Ilohiy fayz** — (1) Qur’oni karimning «Nur» surasi 35-oyatida ishora etilgan Alloh «nuri», (2) Allohnинг alohida inoyatiga noil bo’lgan xos insonlarga nasib qiladigan ma’naviy quvvat, (3) ilmi laduniy (mukoshafa ilmi) ba’zan shunga tenglashtiriladi.
- 66.Olim** — o’qish-o’rganish, ustozdan ta’lim olish yo’li bilan erishi-ladigan bilim egasi, zohiriy (xoh diniy, xoh dunyoviy) ilmlarni o’zlashtirgan inson.
- 67.Moddiy olam** — biz yashab turgan zohiriy dunyo, moddiy mavjudotlar olami.
- 68.Moddiy mavjudot** - Zamon va makon kesishuvida muayyan o’rin egallab turgan ashyo, mavjudlik.
- 69.G’ayb olami** — inson o’z aqli va tafakkuri, hayotiy tajribalari va maxsus uskunalar yordamida bila olmaydigan, faqat ilohiy kitoblardagi maxsus xabarlar va ishoralar orqaligina bizga malum bo’lgan voqelik. Materialistik dunyoqarashning cheklanganligi g’ayb olamini tan olmaslikda yaqqol ko’zga tashlanadi.
- 70.Zohir** — tashqi, inson va narsa-hodisalarning ko’zga ko’rinib turgan, sezgi a’zolari bilan bilsa bo’ladigan tomoni.
- 71.Botin** — ichki, inson ruhiyatiga oid tashqi sezgi a’zolari bilan bilib bo’lmaydigan jihatlar.
- 72."Majoz tariqi"** — milliy ma’naviyatimizning islom mintaqa naadaniyati doirasidagi takomilining to’rtinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan biri, "Al-majoz-u qantarat ul-haqiqa" (Majoz haqiqatning ko’prigidir) hadisiga tayanuvchi alohida dunyoqarash tizimi. XIV—XV asrlarda to’kis shakllangan

Tavhid haqiqatini anglab yetishning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi ushbu tamoyil Borliq haqiqatini anglab yetishning badiiy adabiyotga xos maxsus yo'nalishi bo'lib, Alisher Navoiy ijodida o'zining ham nazariy, ham amaliy mukammal ifodasini topdi. Bu tamoyilning ulug' mutafakkir shoir "pok ishq" deb atagan o'zak timsol-tushunchasini bugungi kun xalqimiz tilidagi aniqifodasidan kelib chiqib mehr ma'rifati deyilsa, xato bo'lmas. "Majoz tariqi" Haqiqat izlovchilarni yana baqdan fanoga yuzlantirdi. O'zligini anglab yetganlar o'z qalbiga sayqal berib, unda Haqiqat nurining aks etishiga erishganlar endi o'zgalar qalbiga ziyo baxsh etishni hayot mazmuniga aylantirmoqlari asosiy maqsad yo'nalishi qilib belgilandi. Alisher Navoiy talqiniga ko'ra yetakchi qoida "Majoz tariqi" namoyandalari Haqiqat asrorini majozdan izladilar, "majoz"da Haqiqat izlarini ko'rdilar va fano orqali baqoga intildilar.

73.Badiiy ijod tariqi - adabiyot nazariyasiga oid muhim tushuncha, badiiy adabiyotning mazmuniy jihat, ya'ni badiiy tafakkur qonun-qoidalari aloqador bo'lib, arab tilidagi "tariq" so'zi qadim yunon tilidagi "metodos", ya'ni "yo'l", "borliqni anglab yetish va aks ettirishning o'ziga xos yo'li" ma'nosini anglatadi. Alisher Navoiy ushbu atamadan ijodiy foydalanib, islom mintqa adabiyotida "haqiqat tariqi" va "majoz tariqi" deb atalmish ikki adabiy yo'nalish va badiiy ijod tariqi mavjudligini kashf etdi va ularing har birini qisqacha ta'riflab, XII-XV asrlarda yashab forsiy va turkiy tillarda ijod etgan ulug' shoirlarning qaysi biri qaysi yo'nalishga mansub ekanligini aniq ko'rsatib berdi. Natijada badiiy ijodga Borliq mohiyatini idrok etish va ijodiy akslantirishning alohida bir yo'nalishi sifatida ongli yondoshuv islom mintaqasida Yevropadan bir necha asr ilgari mukammal shakllandi. Alisher Navoiyning badiiy ijod tariqiga oid nazariy mulohazalari "Mahbub ul-qulub" risolasi "Avvalgi qism"ining "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" deb atalgan 16-faslida mukammal bayon qilingan.

74.Ko'ngil ko'zgusi — milliy ma'naviyatimiz an'analariga ko'ra Inson ko'ngli ma'rifat xazinasi bo'lib, bu sehrli tilsim ichiga Alloh haqiqati o'z sirrini pinhon etgandir. Ma'naviyat ana shu ko'ngil tilsimiga yashiringan Alloh haqiqatining zuhuridir. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan doimiy uyg'unligini saqlashi uchun ibrat va ilm, riyozat va mehr ma'rifati uni bir zum tark etmasligi talab etiladi, ayni shular ko'ngil ko'zgusini pok tutib turadi.

75."Ishqi haqiqiy" — tasavvuf irfonida Haq ishq, Borliq haqiqatiga fidoyilik, "ishqi ilohiy".

76."Ishqi majoziy" — tasavvuf ahli nazdida bu dunyo, o'tkinchi olam mavjudotlariga qaratilgan muhabbat. So'fiylar bunday ishqni arzimas hisoblab, "ishqi haqiqiy"ga intilishni ma'qul ko'rsalar, "Majoz tariqi" vakillari

Payg'ambarimiz(s.a.v)ning "Al-majoz-u qantarat ul-haqiqa" (Majoz haqiqatning ko'prigidir) hadisidan kelib chiqib, "ishqi majoziy"ni "ishqi haqiqiy"ga eltuvchi yo'l sifatida ulug'laydilar.

77."Avom ishqisi" — Alisher Navoiyning ta'rifiga ko'ra "oddiy odamlar ishqisi bo'lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir... Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliv martabasi — shar'iy nikohdir... Quyiroq martabasida janjal, tashvishlar, ko'ngilsizlik va sharmandaliklar ko'rindik, bu haqda so'zlash - odobsizlik, bayon etish hayosizlikdir" ("Mahbub ul-qulub" asari, 2-qism, 10-bob).

78."Xavos ishqisi" — Alisher Navoiyning ta'rifiga ko'ra, alohida fazilat egalariga xos ishq bo'lib, "pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko'ngil ul pok yuz oshubidin qo'zg'almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq" (pok ko'zni pok niyat bilan pok yuzga qaratmoq va pok ko'ngil ul pok yuzning shavq-zavqi bilan beqaror bo'lmog'i va bu pok yuz vositasi bilan pok oshiq haqiqiy mahbubning jamolidan bahra olmog'i). Xalqimiz aytadiki, bir ish qilsang "xolisanlilloh" qilgin, ya'ni xolis Alloh taolo yo'lida qilingan har bir ish xayrlidir, agar unga xudbinlik, g'araz aralashsa, yaxshiday ko'ringan ish ham yomonlikka olib kelishi mumkin. Navoiy nazdida "xavos ishqisi" insonning insonga bo'lgan ayni shunday Haq yo'lidiagi har qanday g'arazdan xoli, pok mehridir. O'z ijodida ana shunday pok insoniy ishqni tarannum etgan Amir Xusrav Dehlaviy va Hofiz Sheroziy kabi ulug' shoirlarni Navoiy "ishq ahlining pokbozlari" deb ataydi. "Layli va Majnun" dostonida bir insonning o'zga insonga bunday pok mehri "oyinayi getinamo" (Borliq haqiqatini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu) deb ta'riflanadi.

79."Siddiqlar ishqisi" — Alisher Navoiyning ta'rifiga ko'ra moddiy olam orzu-havaslarini butkul tark etgan tasavvuf ahliga xos bo'lib, ular "Oliy haqiqatning tajallisi (nurlanishi) jamolig'a uning (moddiy olam mavjudotlari qiyofasidagi) ko'rinishidan tashqari, bevosita maftun bo'lganlar va o'zlarini shu yo'lga taslim etganlar va ushbu (Oliy haqiqat jamolini bevosita) ko'rishga intilish behushligida idrok qilish qobiliyati ulardan begona bo'lgan. Ularni (Oliy haqiqatni bevosita) ko'rish (istagi) butkul g'arq etgan va ular g'arq bo'lishdan o'tib, halok bo'lish darajasiga yetganlar...», «Agar hodisalar bo'roni osmon gulshanining bir qabatini uchirib ketsa - ular bexabar va agar yulduzlar gulbargini har tomongasovursa, bularga ta'sir qilmaydi. Ularning hislari Haq jamolini ko'rish tashvishi bilan ishdan chiqqan, shavq-zavqlari esa, unga bo'lgan ishq hujumlari ostida yo'qolib bitgan...» Adibning bunday mubolag'ali ta'riflarida uning «siddiqlar», ya'ni tarkidunyochi tasavvuf ahli qarashlariga munosabati aniq aks etgan bo'lib, bu daraja fidoyi e'tiqodga ehtirom tuyg'ulari bilan bir paytda ularning moddiy dunyo, real insonlar tashvishidan uzoqlashib

ketganliklari, «xalq g'amidin g'ami» yo'qligiga muayyan ishoralar ham mavjud.

80."Xavos" — 1) xos kishilar, Alisher Navoiy nazdida o'zligini anglab yetgan, ya'ni, o'zining Borliq haqiqatiga nisbatini to'g'ri anglab yetib, shunga yarasha hayotiy mezonlarini belgilab olgan, o'z insonlik burchini teran idrok etib, shunga yarasha amal qiluvchi yuksak ma'naviyatli ogoh shaxslar; 2) XIX - XX asrlarga kelib, oddiy xalq tushunchasida yuqori tabaqa vakillari, beklar, aslzodalar,"zodagonlar" ma'nosida ishlatila boshlagan.

81."Avom" — 1) omi odamlar, Alisher Navoiy nazdida ijtimoiy kelib chiqishi, boyligi va amalidan qat'i nazar, o'zligini anglab yetmagan, ma'naviy saviyasi past bo'lган insonlar, agar kimki o'zligini anglab yetmagan bo'lsa, o'zini yeb-ichib, "kayfi safo qilib" yurishdan ortiqqa arzitmasa hanuz u haqiqiy shaxs maqomiga ko'tarilmagan, oddiy bir "xudoning maxluqi" darajasida qolib ketgan, bunday insonlarning jamlanmasi esa "xalq" emas, "olomon" atalishga loyiq bo'ladi. Haqiqiy fuqarolik jamiyati, o'zini muayyan millatga mansub deb bilgan shaxslar ogoh odamlardan iborat bo'lmog'i kerak; 2) keyingi davrlarda yuqori tabaqa vakillari orasida "qora xalq", past tabaqa vakillari ma'nosida ishlatila boshlagan.

82."Ahli qabul" — Alisher Navoiy nazdida Borliq Haqiqatini e'tirof etuvchi, , insof va diyonat,sabr va rizolik, halollik va mehr yo'lini tanlagan imon-e'tiqodli insonlar.

83."Ahli rad" — Alisher Navoiy nazdida Borliq Haqiqatini tan olishdan bosh tortuvchi, norizolik va badbinlik, xiyonat va xudbinlik, harom va qahr yo'lini tanlaganlar, imonsiz kishilar.

84.Ahli futuvva, yoki javonmardlar -IX—XV asrlarda islom mintaqasida keng tarqalgan ijtimoiy-ma'naviy oqim namoyandalari, asosan shahar kosib-hunarmandlaridan iborat bo'lib, piri komil rahbarligida ham jismoniy, ham ma'naviy kamolot sari intilishni halol rizq topish karakati bilan uyg'unlikda olib borgan yuksak ma'naviyatli shaxslar jamoasi.

85.Darvesh — Navoiy nazdida ma'naviy kamolotga erishgan shaxs, haqiqiy ziyoli timsoli, "ichi tashi bilan muyofiq, balki arig'roq (pokroq), botini zohir bila musoviy (teng muvozanatda), balki yorug'roq" deb ta'riflaydi ularni shoir. Bu toifa ahli elga faqat ma'rifikat, ilm nurini tarqatish bilan kifoyalanmaydi, ular insonlar diliga poklik, mehr-oqibat, ezgulikka intiqlik, o'z-o'zini anglash tuyg'ularini singdiradi.

86.Simurg' — Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi o'ta muhim ijtimoiy-irfoniy ma'no tashuvchi yetakchi timsol. Bashariyat miqyosidagi mukammal ijtimoiy tizimning shakllanishi undagi har bir shaxsning ma'naviy barkamolligi bilan bog'liq ekanligi, bu barkamollik bani odamning har bir a'zosi ko'nglidagi bir-biriga nisbatan beg'araz va samimiylar mehr mas'uliyati bilan o'lchanishi,

insoniyatning mohiyatan yaxlitligi va buni anglab yetish har bir insonning ma'naviy kamolot sari cheksiz intilishi orqali yuz berishi mumkin ekanligi, insoniyatning yaxlit mohiyat sifatidagi birlashuvi esa zo'rlik va bosqin asosida emas, turli inson toifalari, millat va elatlararo bir-birini tushunishga intilish, beg'araz va fidoyi mehr asosida o'zaro yaqinlashuvi orqali erishiladigan voqelik ekanligini anglatuvchi badiiy tashbih.

87."Nafrasonlik" — Alisher Navoiy asarlarida (xususan, "Hayrat ul-abror" dostonining maxsus bobida) ulug'langan yuksak ma'naviyat egalariga xos insoniy fazilat. Jamiyatga, o'zga insonlarga xolis yordam berish, mehr ko'rgazish, o'zgalarning mushkulini oson qilishni o'zining hayotdagi asosiy maqsadi deb bilish. Shoirning quyidagi satrlarida bu g'oya yorqin ifodalangan:

Kimki bir ko 'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay.

88.Tavhid – so'zning leksik ma'nosi – *yagonalik* va *yaxlitlik bo'lib*, timsol-tushuncha sifatida milliy ma'naviyatimiz tarixiy takomilida turli zamon va turli soha namoyandalari tomonidan turlicha talqin etilgan. Masalan, (Sunna bosqichiga xos) *diniy talqin'*— faqat Allohnинг yagona ma'bud (sig'inishga loyiq yagona zot) ekanligi, (Islom ma'rifatchiligi bosqichiga xos) *ilmiy talqini* dunyodagi jonli va jonsiz, harakatda va sokinlikda ko'ringan, o'tmish, bugun va keljakka oid narsa va hodisalarning o'zaro uzviy bog'liqligi, yagona manba va manshaga oidligi, uyg'unligi va yaxlitligi, (Tasavvuf tariqatlari yoxud irfon bosqichiga xos) *tasavvufiy (irfoniy) talqini* — haqiqiy (boqiy) Borliq faqat Haqning Borlig'i ekanligi, ("Majoz tariqi" bosqichida shakllangan) *mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodida aks etgan qarash* — haqiqiy Borliq — Haqning Borlig'i, bu dunyo — ya'ni biz ko'rib turgan moddiy olam esa Haqning mazhari (ko'zguda namoyon bo'lishi), ammo biz insonlar ham ushbu ko'zgudan (majoz olamidan) tashqarida emasmiz, shunday ekan, biz asosiy e'tiborni Haq jamoli aks etuvchi ko'zgu bo'lmish inson qalbiga qaratishimiz, insonga mehr qo'yishimiz, qolaversa, Alloh yaratgan moddiy olamning har bir zarrasiga mehr va e'tibor bilan qarashimiz, jiddiy o'rganishimiz, ijtimoiy hayotimizni ham ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda takomillashtirib borishimiz lozim. Shunday qilib, "Majoz tariqi"da Tavhid mohiyati Yangi davr qadriyatlariga muvofiq keluvchi yangicha talqin oldi. Ammo sanab o'tilgan talqinlarning birortasi boshqalariga zid emas, milliy ma'naviyatimizda ular mohiyatan bir-birini to'ldirib keladi.

89.Tavhid haqiqati — Allohnинг barcha kitoblarida uqtirilgan, ajdodlarimiz asrlar davomida anglab yetgan va imon keltirgan Borliq haqiqati bo'lib, Tavhid e'tiqodida ifodalananadi. Tavhid haqiqatining mohiyati shundaki, yagona Alloh

irodasi bilan biz ko'rib turgan Borliqning har bir uzvi, qismi, zarrasi o'zgalari bilan bog'liq, o'zaro aloqadordir. Shu sababli Borliqdagi har bir zarra o'zgarishi butun Borliqni o'zgartiradi, har bir zarradagi o'zgarish esa, o'z navbatida, butun borliqdagi o'zgarishdan kelib chiqadi. Bu umumjahoniy qonuniyataro yer yuzida xalifa qilib yaratilgan Inson zotining alohida imtivozi -uning irodasi erkin, unga ongli va ixtiyoriy harakat qilish imkonи berilgan. Shu bilan birga Yer yuzida xalifalik ham katta imtiyoz, ham jiddiy mas'uliyatdir — ongli va hur zot sifatida Inson har bir qadami uchun butun Borliq oldida mas'ul, har bir xattiharakatiga Alloh oldida javob beradi. Tavhid haqiqatining yana bir sirini e'tirof etish kerak. Borliqning yagonaligi shuni taqozo qiladiki, undagi eng ibtidoiy makonda siljish harakatidan eng oliv ma'rifikat yo'llarigacha aslida bir paytning o'zida mavjud. Faqat insoniy mantiqning muayyan darajada chekli ekanligi bois, biz tasavvur etgan zamon va makonda har bir narsa-hodisaning holati kamolotning muayyan bosqichi doirasida tasavvur qilinadi.

- 90. Yangi davrning ma'naviy mohiyati** - Yangi davrning buyuk haqiqati ikki asosda: 1) dunyoni surat va ma'no yaxlitligida o'rganish va 2) bahamjihatlikda boshqarishga intilish bilan o'zligini namoyon etadi.
- 91. Yangi davr ma'naviyatiga o'tish yoki islom mintaqqa madaniyati davri ma'naviy yutuqlarining ommalashuvi bosqichi** — Yangi davr milliy ma'naviyatimiz takomilining ikki bosqichidan birinchisi, XVI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha davom etadi. Bu bosqichda yaxlit islom mintaqqa madaniyati erishgan yutuqlar zaminida mahalliy o'lkalar keng xalq ommasining ma'naviy saviyasi oshib bordi, mintaqqa xalqlari o'tgan davrda erishilgan yuksak ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolishga va rivojlantirishga urindilar, shu bilan birga mintaqqa siyosiy hayotida tanazzul jarayonlari yildan yilga kuchayib, islom dunyosida siyosiy parokandalik va yaxlit mintaqqa madaniyatining parchalana boshlashi, hokimiyatni boshqarishda sulolaviylik an'anasing jamiyat ma'naviy takomil darajasi bilan nomuvofiqligining keskin namoyon bo'lishi, turli siyosiy guruhlararo noittifoqlik balosi, ma'naviyat ahlining siyosatga aralashuvi, xos va avom orasidagi ma'naviy chegaranining yo'qolib borishi kuzatiladi.
- "Milliy izardob" she'riyati** - XVII-XIX asr birinchi yarmida millat hayotida yuz bergen siyosiy va ma'naviy tanazzul asoratlaridan ma'naviy azoblanishning Turdi Farog'iy, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy kabi shoir va adiblar ijodida yorqin namoyon bo'lishi. Siyosiy qaramlik davrida ma'naviyatimiz ahvoli yoki Milliy ma'naviyatimizning Yangi davr Yevropa madaniyati bilan bevosita to'qnashuvi Yangi davr milliy ma'naviyatimiz takomilining ikkinchi bosqichi bo'lib, bu jarayon boshlanishdanoq foje bir tarzda - qadim Turon xalqlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va 150 yillik mustamlaka holatida murakkab bir tarzda kechdi. Bu bosqichdagi milliy ma'naviyatimiz uchun eng

ahamiyatli hodisa Milliy uyg'onish va jadidlarning madaniy-ma'rifiy faoliyatidir.

- 93. Milliy uyg'onish va Yangi davr ma'rifatchiligi** - Qaramlik davri Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashi ikki yo'nalishda kechdi. Birinchisi — qurolli kurash, qo'zg'olonlar yo'li bo'lib, ikkinchisi ma'rifatparvarlar va jadidlar harakatida yorqin namoyon bo'lgan madaniy-ma'rifiy yo'nalish edi. Ikkinchi yo'nalishning asosiy maqsadi xalq madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish, ma'naviyatini takomil toptirish, milliy iqtisodni yangi izlardan yuksaltirish yo'li bilan, Yevropaning ilg'or idora usullarini o'zlashtirib, millatning haqiqiy ozodligini ta'minlash bo'lib, "usuli jadid" maktablaridan boshlangan bu harakat XX asrning ikkinchi o'n yilligidan butun mintaqada yalpi rivoj olib, Milliy uyg'onish harakati darajasiga ko'tarildi. Bu harakat vakillari Vatan mustaqilligi va xalq ma'rifati yo'lida butun kuchg'ayratlarini sarf etdilar, ularning aksariyati bu yo'lida jonlarini fido etib, o'zlarining jo'shqin va barakali siyosiy-ma'rifiy faoliyatları bilan millat xotirasida fidokorlik timsoli bo'lib qoldilar.
- 94. Jadidchilik harakati** — milliy mustaqillik uchun kurashning jadidlar olg'a surgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishi bo'lib, bu yo'lning fidoyilari ishni "usuli jadid" maktablari ochish, ularga mos darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlab nashr etish, "darsxonayı ibrat" hisoblangan milliy teatr va milliy dramaturgiyani shakllantirishdan boshlab, asta-sekin keng ko'lamlı siyosiy va iqtisodiy mustaqillik uchun kurash ("Turkiston muxtoriyati"), milliy ma'naviy merosdan ajralmagan holda yangi davr saviyasiga muvofiq ilm-fan asoslarini ishlab chiqish, ilg'or jahon ilmi darajasida fikrlovchi milliy ziyolilar qatlamini tarbiyalab yetkazish vazifalarini barcha to'sqinliklar va qarshiliklarga qaramay dadillik va izchillik bilan amalga oshirib borishga erishdilar va ushbu sobitqadam intilishga butun borliqlarini baxsh etdilar. ularning urinishlari behuda ketmadi, sho'rolar davrida ham millat fidoyilari qaramlik sharoitining butun murakkabliklariga qaramay, ushbu yo'lni imkon darajasida rivojlantirib bordilar, mustaqillik davriga kelib esa bu ulug' an'analar bor bo'yи bilan qad rostlab, jahoniy miqyos kasb etdi.
- 95. "Usuli jadid" maktablari** — Yangi davr ma'rifatchilari (jadidlar) ishlab chiqqan usuli savtiya, ya'ni savod chiqarishning tovush tizimi asosidagi yangicha maktablar.
- 96. Ruhiyat** - bir tomondan, insonning moddiy tabiatini bilan (shahvat, nafs, jahlg'azab, qo'rquv), ikkinchi tomondan, ma'naviyat olami bilan (imon-e'tiqod, mehr, mas'uliyat, iroda, ilm) tutashgan murakkab voqelik bo'lib, "Ruhshunoslik" fani inson ruhiy olamini ayni shu ziddiyatli murakkablik holatida olib o'rganadi.

- 97. Ruhshunoslik (Psixologiya)** — Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) inson va jamiyatning turli ruhiy holatlari va ulardagi o'zgarishlarni o'rghanishdir. Bu fan, bir tomondan, juda qadim, ikkinchi tarafdan, nisbatan yosh fan. Uzoq vaqtgacha falsafiy fanlar sohasiga oid hisoblangan psixologiya fanida hozirgi zamonga kelib ruhiyatni insonning moddiy borlig'i, undagi fiziologik jarayonlar bilan bog'liq ravishda (ya'ni eksperimental — zohiriylar asosida) o'rghanish yetakchi o'ringa ko'tarildi. Yevropa psixologik maktablari o'z tadqiq mavzularini inson jismi, moddiy mohiyat bilan bog'liq holda o'rghanishadi. Uning tibbiyot fanlari bilan bevosita bog'liqligi ham shu sabablidir. Ammo inson ruhiyatini faqat uning sezish a'zolari va miya faoliyati bilangina bog'lab tushuntirishga urinish, ya'ni sof materialistik yondoshuv, bizning nazarmizda, bugungi kun ilmi uchun yetarli emas. Bu sohada milliy ma'naviy merosimiz an'analariga ham murojaat etish maqsadga muvofiq..
- 98. Nafs** — milliy ma'naviyatimiz an'analariga binoan inson ruhiyatida moddiy olam ne'matlariga moyillikni ifodalovchi timsol-tushuncha. Tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan va uning turli darajalari belgilangan.
- 99. Jon** — biologik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun xos bo'lган tiriklik va erkin harakatga qobililikni anglatuvchi timsol-tushuncha.
- 100. Ruh** — ilohiy kitob (Qur'oni karim) oyatlari mazmuniga binoan Alloh tomonidan faqat insonga in'om etilgan alohida g'aybiy quvvat bo'lib, bani odamning ma'naviy kamolot kasb etish imkoniyatining asosidir.
- 101. Nafsi ammora** — insonni tamomila o'z jiloviga olgan, har qanday og'ir gunohlarga boshlovchi tarbiyaga bo'ysunmagan, o'jar nafs. Qur'oni karimning "Yusuf" surasida eslanadi.
- 102. Nafsi lavvoma** — gunoh ishlarga yo'l qo'yganda vijdoni qiynalal boshlagan, o'z xatolaridan afsuslanish hissi paydo bo'lган inson nafsining holati. Qur'oni karimning "Qiyomat" surasida eslanadi.
- 103. Nafsi mutma'inna** — sokin muvozanatga erishgan, xotirjam, gunohlardan tiyilgan nafs. Qur'oni karimning "Al-Fajr" surasida eslanadi.
- 104. Nafsi mulhama** — ilhomlangan nafs tarbiyasining bu darajasiga erishgan insonlar o'zgalarga beminnat yordam ko'rsatishga moyil bo'ladilar, savob uchun vaqtini, molini, mehnatini ayamaydilar.
- 105. Nafsi marziya** — rozi bo'lган nafs, Alloh taqdir etgan yaxshi-yomon ishlarga sabr qiluvchi,turmush og'irliliklariga bardoshli, odamlarning noo'rin munosabatlaridan xafa bo'lib, gina qilmaydigan insonlar nafsi.
- 106. Nafsi sofiya** — dunyo orzu-havaslaridan, obro'-e'tiborga intilish tamoyillaridan butkul forig'lik darajasiga erishgan nafs, oriflik maqomiga yetishgan piri

murshidlar, valiyalar nafsi

- 107. Nafsi komila** — payg'ambarlar nafsi. Oddiy kishilar nafs tarbiyasi bilan bu darajaga yetishi qiyin, ammo komil nafs egasi bo'lishga intilish ma'naviyat nishonasidir'.
- 108. "O'simlik ruhi"** - milliy ma'naviyatimiz an'analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha biologik mavjudotlar (nabotot, ya'ni o'simliklar, hayvonot va insonlar) uchun umumiylar bo'lgan oziqlanish va o'sish xususiyati, "quyi olamdan" (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasi asosida).
- 109. "Hayvon ruhi"** — milliy ma'naviyatimiz an'analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, tirik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun umumiylar bo'lgan erkin harakatlanish va nafs (ya'ni, moddiy mayllar)ga ega bo'lish xususiyati, "quyi olamdan" (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasi asosida).
- 110. "Inson ruhi"** — milliy ma'naviyatimiz an'analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha inson zoti uchun umumiylar bo'lgan tafakkur (fikrlash, aql ishlata bilish) va nutq (fikrini erkin bayon eta bilish) xususiyati, (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasi asosida).
- 111. "Muqaddas ruh"** — milliy ma'naviyatimiz an'analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, haqiqiy imon egalari, payg'ambarlar va valiyalar (orif insonlar) rahiyatiga aloqador g'ayb olami bilan tutashlikni anglatuvchi atama, "yuqori olamdan" (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasida "osmoniy farishtalar jinsidan" deb ta'riflanadi).
- 112. Axloq** — har bir shaxs ma'naviyatining uning xulqida, o'zga insonlarga munosabatida aks etishi, yuzaga chiqishi. Ma'naviyat va siyosat sohalarining kesishuvida namoyon bo'ladi.
- 113. Axloqiy fazilatlar** — shaxs ma'naviyati turli qirralarining inson amaliy faoliyatida doimiy asosda namoyon bo'lishi, inson qalbidagi ma'naviyat nurining jilolari.
- 114. Axloqiy qusurlar** — insonning ko'ngil ko'zgusidagi zang va chirkalarning o'zgalar nigohiga namoyon bo'lishi.
- 115. Axloqshunoslik (Etika)** - Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, inson xulqi, uning axloqiy fazilatlari va qusurlarining xolis tahlili bu fanning asosiy mavzusi (predmetini) tashkil etadi.
- 116. Adolat tarozisi** — ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan timsol-tushuncha bo'lib, har bir zamon va makonda o'ziga xos ko'rsatkichlarni namoyon etadi va har bir insonning barcha fazilat va nuqsonlarini, iste'dod va kamchiliklarini aniq «vaznini» belgilab, o'shangacha har bir shaxsning ijtimoiy qiymatini o'lchash va baholashga xizmat qiladi
- 117. Milliy adolat** — o'z millatiga mehr tuyg'usi o'zga millat namoyandasiga

nisbatan noxolis yondoshuvga sabab (bahona) bo'lmasligi.

118. **Dinyi adolat** — o'z e'tiqodiga sodiqlik tufayli o'zga e'tiqod egasiga noxolis munosabat izhor etmaslik.
119. **Siyosiy adolat** — siyosiy hokimiyatning yagona manbayi xalq irodasi deb tan olinishi va Qonun ustuvorligi tamoyiliga qat'iy rioya qilinishi.
120. **Ijtimoiy adolat** — barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o'z o'rni mavjudligini va qonun oldida ularning o'zaro teng huquqlarga ega ekanligini e'tirof etish.
121. **Dehqon** — xususiy yer-mulk egasi bo'lgan mehnatkash toifa (fermer chorvador, bog'bon). Ijtimoiy vazifasi: millatning boquvchisi, birlamchi moddiy ne'matlar yetishtiruvchi. Bosh ma'naviy fazilati: tabiatga mehr.
122. **Ziyoli** — ma'naviyat sohasida yetakchi ijtimoiy toifa (san'atkor, olim, muallim), muayyan sohaning oliv toifali mutaxassisi (vrach, muhandis, agronom) Ijtimoiy vazifasi. Millat tarbiyasi, ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, turli sohalarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Bosh ma'naviy fazilati: Borliq haqiqatini anglash va anglatishga intilish. O'tmishda ahli ilm, darveshlar, ahli hunar shoir va voizlar shu toifaga mansub bo'lганлар.
123. **Hunarmand-kosib** — xususiy mulk egasi bo'lgan mehnatkash toifa vakili, qo'li gul usta. ijtimoiy vazifasi: sanoat sohasida mustaqil ishlab chiqaravchi. Bosh ma'naviy fazilati: mahorat. O'tmishda "ahli futuvva" ayni shulardan bo'lган.
124. **Ishchi** — yollanma mehnat asosida ish bajaruvchi ijtimoiy toifa. Ijtimoiy vazifasi: mijozlarga xizmat ko'rsatish va mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish. Bosh ma'naviy fazilati: mehnatkashlik.
125. **Xizmatchi** — yollanma mehnat asosida turli xizmatlar bajaruvchi ijtimoiy toifa. Ijtimoiy vazifasi: turli tashkilot va muassasalarda tashkiliy ishlarni amalga oshirish. Bosh ma'naviy fazilati: hozirjavoblik.
126. **Siyosiy arbob** — davlat va boshqa siyosiy tashkilotlarning mas'ul rahbarlik lavozimidagi asosan, ziyorolar toifasiga mansub guruh vakili. Ijtimoiy vazifasi: siyosiy boshqaruv orqali mamlakatning siyosiy mustaqilligi va ijtimoiy barqarorligini ta'minlash. Bosh ma'naviy fazilati: millat taqdiri oldidagi mas'uliyatni his etish.
127. **Harbiy** — mamlakat qurolli kuchlari, ichki ishlar va xavfsizlik sohasida xizmat qiluvchilar. Ijtimoiy vazifasi: Millat himoyachisi, tinchiik paytida ham favqulodda holatlarga doimiy jangovar hozirlik saqlash, insonlar hayotiga xavf tug'diruvchi jinoyatlarning oldini olish. Bosh ma'naviy fazilati: fidoyilik.
128. **Beklar va xonlar** — o'tmishda hukmron ijtimoiy toifa, zodagonlar. Harbiy ishlar va siyosiy boshqaruv shu toifa vakillari qo'lida bo'lган.
129. **Kanizlar va g'ulomlar** — o'tmishda zodagonlar xonardonida barcha qora ishlarni bajaruvchi qaram ijtimoiy toifa. Qadimgi davr qullaridan farqli o'laroq,

islom dunyosida ular muayyan chekli huquqlarga ega bo'lishgan.

- 130. Fuqarolik mas'uliyati** — qonun ustuvorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish. Ushbu fuqarolik mas'uliyatini to'liq anglab yetmas ekanmiz, bizning shaxs sifatidagi ma'naviy kamolotimiz ham tugallik kasb etmaydi.
- 131. "Fozil shahar"** — Abu Nasr Forobiy talqinida «Insonlari haqiqiy saodatga erishish yo'lida bir-biriga yordam berish uchun birlashgan shahar». Har bir inson Haq oldidagi mas'uliyatini to'g'ri anglab, kamolot sari o'zi intilar ekan, o'zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko'makdosh bo'lishga astoydil urinsa, natijada «fozil shahar» (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi. Ulug' allomaning bu qarashlari bugungi kundagi "fuqarolik jamiyat" tushunchasini mukammal ifodalaydi.
- 132. Qadr** — Xoliqi olam irodasi va qudrati bilan yaratilgan har bir mavjudotning olamdag'i o'ziga yarasha o'rni va salmog'i, har bir insonga yaratilishdan ato etilgan ilohiy ne'mat. Haqiqiy Shaxs darajasiga yetishgan inson o'z qadrini, shu bilan birga yorug' olamdag'i barcha ashyo va mavjudotlar qadrini muayyan darajada anglab yetgan, shu asosda jamiyatning faol a'zosiga aylangan inson bo'ladi. «Men Allah tomonidan yer yuzida xalifa etib yaratilganman», deb o'zlikni anglab yetish o'z qadrini to'g'ri baholashning poydevoridir. O'z qadrini anglab yetish barobarida har bir inson o'zga insonlar ham yer yuzida xalifa ekanligiga imon keltirib, ularning ham qadrini o'zidan kam bilmaydi. Qadr timsol-tushunchasi ma'naviyatga oid bo'lib, uni iqtisod sohasiga tatbiq etilsa, qiymat va bahoga, siyosatda mavqe' va maqomga aylanadi.
- 133. Mavqe** — har bir insonning jamiyatda ishg'ol etib turgan muayyan o'rni, qadri va qudrati. Siyosatdagi huquq, burch, imtiyoz hodisalarining tagzaminida ayni shu insonlarning bir-biriga nisbatan mavqe va maqomi masalasi joy olgandir.
- 134. Maqom** — har bir insonning jamiyat hayotida rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan muayyan o'rni, holati. Har bir insonning mavqe va maqomi orasidagi farq qancha kuchayib borsa, uning ruhiyatida ham ziddiyat kuchayadi, natijada bu holat jamiyat hayotiga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshlaydi.
- 135. Tadbirkor** — mamlakatda ishlab chiqarish, tijorat va moliya ishlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchi ijtimoiy toifa (sanoatchi, tijoratchi, bankir). Ijtimoiy vazifasi: mamlakatning iqtisodiy rivojini ta'minlash. Bosh ma'naviy fazilati: Farosat. O'tmishda asosan tijorat ahli sifatida namoyon bo'lган.
- 136. Farosat** — voqelikni asliga muvofiq idrok etish, unga to'g'ri munosabat hosil qila bilmoqlik, shu bilan birga voqelik talabiga muvofiq tadbir ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta bilishdir. Buning uchun inson, avvalo, o'z holini to'g'ri idrok etishi, ikkinchidan, o'zgani tushunish, o'zgalarning ehtiyoji, xohishi, imkonii haqida to'g'ri tasavvur hosil qila bilishi kerak.

- 137. Iqtisodiy adolat** — bozor iqtisodi qonuniyatlariga (mulk shakllarini erkin tanlash huquqi, talab va taklif erkinligi, erkin raqobat tamoyillariga) rioxalish.
- 138. Iqtisodiy munosabatlar** — har bir insonning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'zga insonlar bilan turli munosabatlarga kirishuvi.
- 139. Shaxsning iqtisodiy mustaqillik mas'uliyati** — har bir balog'at yoshidagi inson o'zi va o'z qo'l ostidagilar moddiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda va halol yo'l bilan ta'minlash zaruratinini to'g'ri anglab yetib shunga yarasha harakatda bo'lishi. Inson — hayvon emas, ammo farishta ham emas. Unga faqat biologik mavjudot deb qarash yetarli bo'lmasa-da, ammo moddiy mavjudligini ta'minlash ehtiyoji va o'zidan so'ng surriyot qoldirish vazifasi har bir insonda mavjud ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi. Inson o'z moddiy mavjudligini umr bo'yи, uzlusiz ta'minlab borishga majbur, busiz u o'zga hech qanday vazifani bajara olish imkonini topmaydi.
- 140. Qiymat** — har bir narsa-hodisaning iqtisodiy o'lchovlarda ifo-dalangan salmog'i.
- 141. Bahо** — har bir narsa, hodisaning muayyan zamon va makon o'zgarishi bilan o'zgarib turuvchi qiymati.
- 142. Ibtidoiy (natural) xo'jalik** — insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir insonning o'z moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiat bilan bevosita amaliy mu-nosabatlarga kirishib, o'z aqli, malakasi, mehnati yordamida o'zi va oilasi uchun rizq topishi.
- 143. Bozor iqtisodi** — mulk turlarining xilma-xilligi, erkin talab va taklif asosida o'zaro mahsulot almashuviga tayanuvchi tizim.
- 144. Total (yalpi) davlat iqtisodi** - insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning tarixiy shakllaridan biri, barcha mulk davlatga qarashli bo'lib, barcha ishlab chiqarish va taqsimot davlat ixtiyorida bo'lishi. Bunday tuzumda ilojsiz ravishda total siyosiy va mafkuraviy istibdod (diktatura) mavjud bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish asta-sekin susayib boradi.
- 145. Ibtidoiy bozor iqtisodi** — insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir mustaqil xo'jalikning ibtidoiy ishlab chiqarish vositalariga tayangan holda biror tur yoki yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarib, bozorda uni boshqa mahsulotlarga almashishi.
- 146. "Yovvoyi bozor" (shartli atama)** - ibtidoiy bozor iqtisodi yoki yalpi davlat iqtisodidan rivojlangan bozor iqtisodiga o'tish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, hanuz siyosat va ma'naviyatda yetarli yangilanishlar ro'y bermagan holatda hukmon guruhlarning xudbinlik mayllari avj olishi natijasida shakllanuvchi va ommaviy norozilik va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'luvchi iqtisodiy vaziyat bo'lib, asosan Yangi davrning boshlarida Yevropada vujudga kelib, bora-bora butun dunyoda mustamlakachilik

sistemasing shakllanishiga olib kelgan. Bugungi kunda ham dunyoning ba'zi nuqtalarida ushbu tizimning bir qator unsurlari muayyan holatlarda yuzaga chiqishi mumkin.

147. Rivojlangan bozor iqtisodi — insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, yuqori darajada takomillashgan ishlab chiqarish vositalariga, yuqori texnologiya va ilmiy taraqqiyotga tayangan, siyosatda demokratiya va ongli fuqarolik jamiyati bilan hamqadam taraqqiy etayotgan murakkab ko'rinishli iqtisodiy tizim.

148. Bozor iqtisodining asosiy ko'rsatkichlari — 1) mulk turlarini erkin tanlash imkoniyati, 2) talab va taklif erkinligi, 3) erkin raqobat imkoniyati, 4) bozorning har uch yo'nalishi: mahsulot, ishchikuchi va qimmatli qog'ozlar bozorining mukammal shakllanganligi.

149. Ilohiy bilim — faqat Allohga tegishli bo'lган cheksiz-chegarasiz, azaliy va abadiy bilim, insonlarga u vahiy sifatida payg'ambarlar orqali nozil etiladi. Uni inson imon bilan qabul qiladi, rad qilish ham, isbot qilish ham inson qudratida emas.

Kimki bir ko 'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,

Oncha borkim Ka'ba vayron bo 'lsa, obod aylagay.

150. Irfoni bilim - tasavvufda oriflik darajasiga erishgan so'fiylarga ilohiy ilhom orqali beriladigan bilim, ilmi laduniy. Insonlar tilida boshdan-oyoq faqat ramz va ishoralar orqali ifodalananadi.

151. Naqliy bilimlar - ilohiy kitoblar orqali yoki turli yo'llar bilan (asosan, yozma manbalarda) o'tmish ajdodlardan yetib kelgan bilimlar.

152. Aqliy bilimlar - inson tafakkuri bilan yetishgan bilimlari.

153. Mantiqiy bilim — inson bilgan narsalarini fikriy qiyo slash ,va tahlil qilish orqali hosil qilgan bilimlari.

154. Nazariy bilim - mantiqiy tafakkur natijasida erishilgan bilim.

155. Modellashtirish — Borliq haqiqatini anglab yetish va o'zgalarga anglatishga urinishning o'ziga xos yo'nalishi, muayyan tushunchalar yoki timsollar tizimi vositasida murakkab voqelikni soddalashtirib, yaxlit shaklda ifodalash.

156. Tafakkur turlari — Borliq mohiyatini anglab yetishga urinishning turli usullari, asosan tushuncha, tasavvur va timsollarga tayanib olib boriladigan aqliy faoliyat turlari.

157. Asotir tafakkur — Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo'lib, ibtidoiy jamoa, qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar odamining fikrlash tarziga xosdir. Bu davrlarda aksariyat insonlar g'ayb olamiga oid narsa-hodisalar va mavhum tushunchalarni moddiy voqelik ashyolaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar, mushriklikning kelib chiqish sababi ham shunda.

- 158. Amaliy tafakkur** - muayyan hayotiy tajriba asosida amaliy xulosa qilish.
- 159. Mantiqiy tafakkur** — asosiy tafakkur turlaridan, sabab-oqibat bog'lanishlari asosida fikr yuritish.
- 160. Timsoliy tafakkur** — asosiy tafakkur turlaridan, badiiy tafakkurning asosi, o'z fikrini ramz va timsollar vositasida ifodalash.
- 161. Tarixiy tafakkur** — asosiy tafakkur turlaridan, turli manbalar orqali aniqlangan ma'lumotlarga tayanib xulosalar qilish.
- 162. Evristik tafakkur** — asosiy tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, ilmiy va badiiy ijod jarayonida tamomila yangicha g'oyalar, yechimlar, timsol va tasavvurlarning yaxlit shakllanishi
- 163. Irfoniy tafakkur** — murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, riyozat va ilohiy jazba natijasida hosil qilingan laduniy bilimlami timsol va ishoralar vositasida ifodalash.
- 164. Falsafiy tafakkur** - murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkur asosida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish.
- 165. Ilmiy tafakkur** — murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkurga hamda maxsus amaliy tajribalarga tayangan holda muayyan nazariy muammoni hal qilishga urinish.
- 166. Riyoziy (matematik) tafakkur** — murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, aniq formulalar, chizmalar, tenglamalar, raqamlar nisbati vositasida o'z fikr va g'oyalarini ifoda etish.
- 167. Estetik tafakkur** — murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, muayyan hayotiy hodisalarga go'zallik va ichki uyg'unlik talablaridan kelib chiqib munosabatda bo'lisch.
- 168. Badiiy tafakkur** — ko'proq timsoliy va evristik tafakkur asosiga qurilgan murakkab tarkibli tafakkur turlaridan bo'lib, ijodkorning Borliq haqiqati haqidagi o'z tasavvurlarini. hayotiy yoki xayoliy timsollar tizimi vositasida modellashtirishi. Badiiy timsol haqiqatni o'zida to'liq ifodalashga da'vo qilmaydi, faqat unga ishora qiladi.
- 169. Nafosatshunoslik (Estetika)** — Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, badiiy tafakkur qonuniyatları, go'zallikning mohiyati, moddiy borliq va san'atning turli sohalarida shakl va ma'no uyg'unligi masalalari ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti) ni tashkil qiladi.
- 170. Axloqiy tafakkur** — murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning amaliy faoliyatini muayyan ma'naviy-axloqiy tartib-qoidalar nuqtayi nazaridan baholash.
- 171. Siyosiy tafakkur** — murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ijtimoiy hodisalarga muayyan siyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan yondoshish.
- 172. Huquqiy tafakkur** — murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning xatti-

harakatlariga muayyan qonunlar bilan belgilangan huquqiy normalar nuqtayi nazaridan yondoshish.

- 173. Tavhidiy tafakkur** - Insoniyatga xos barcha tafakkur turlari yagona Borliq haqiqatining turlicha jilolari ekanini anglab yetib, e'tirof etish, o'zgacha fikrlovchi insonni tushunishga intilish, XXI asr odamining fikrlash tarzi.
- 174. Jahon madaniyati** — turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuyidan iborat bo'lib, mavhum bir shakldagi umum-insoniy madaniyat hayotda asli mavjud emas. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida avval muayyan kichik jamoalar doirasida shakllangan madaniyat unsurlari bora-bora kengroq miqyos kasb etib, turli elat va millatlar, mintaqalar madaniyati darajasiga ko'tarilib bordi va nihoyat Yangi davrga kelib yaxlit bir voqelik sifatida idrok etila boshladi.
- 175. Umuminsoniy (ma'naviy) qadriyatlar** — ularni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, aslida dastlab har bir millat ma'naviy qadriyatlari o'ziga xos tizim shaklida namoyon bo'ladi, keyinroq har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi davomida asta-sekin shakllantirib borgan bunday tizimlar turli elat va millatlarning o'zaro munosabatlari tufayli bir-birini tushunish, barcha xalqlar uchun umumiyoq bo'lgan jihatlarni tadrijiy anglab borish jarayonida asta-sekin umuminsoniy mohiyat kasb etib boradi. Zotan, milliy ma'naviyatimiz zamirini bizni o'zgalardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar tashkil etadi.
- 176. Din** —muayyan insonlar guruhining Borliq Haqiqati haqidagi (odatda ilohiy vahiyga asoslangan) tasavvurlari, ularga qat'iy ishonchi, shu ishonchga muvofiq amal qilishga intilishi. Dinning botiniy va zohiriyligi jihatlari mavjud bo'lib, botiniy jihatni imon, zohiriyligi ibodatlardir. Imon masalasi din va ma'naviyatning umumiyoq jihatni bo'lib, diniy imon ma'naviyatning muayyan jihatiga nisbatan xususiy holdir.
- 177. Islom dini** — Muhammad(s.a.v.) ga vahiy orqali nozil bo'lgan Allohning oxirgi kitobi Qur'oni karimda va Payg'ambarimizdan yetib kelgan sahih hadislarda o'z ifodasini topgan e'tiqod tizimi.
- 178. Musulmonchilik** — Allohning borligi va birligi hamda Muhammad (s.a.v.) uning oxirgi haq payg'ambari ekanligiga imon keltirgan barcha insonlarning islom dini haqidagi tasavvurlari. Islom madaniyati tarixida islom aqidalarini tushunishdagi turlicha qarashlarning mavjud ekanligi islom va musulmonchilik o'zaro bog'liq bo'lgan turli voqeliklarni anglatishini ko'rsatadi.
- 179. Islom ma'naviyati** - Oxirgi va mukammal ilohiy kitob bo'lmish Qur'oni karim mazmunida ifodalangan ma'naviyat tizimi bo'lib, Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuv sari intilishida g'aybiy hidoyat yo'li hisoblanadi. Islom dini va ma'naviyati mohiyatan boshqa-boshqa narsalar emas, ammo insonlar

tasavvurida ular farq qilishi mumkin. Masalan, islom dinida qabul qilingan farz ibodatlar va aqidaviy qoidalar boshqa tavhidiy dinlardan farq qiladi, ammo islom ma'naviyatiga ko'ra har bir inson o'z aqidasi va Borliq haqiqati to'g'risidagi tasavvurlaridan qati nazar "yer yuzidagi xalifa" sifatida ehtiromga sazovordir.

- 180. Dinshunoslik** — Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, dunyoda mavjud diniy tizimlar, ularning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish bosqichlari, turli dinlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyatdagi o'rni bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.
- 181. Siyosat va din munosabatlari** - jamiyatda har bir shaxs ma'naviyati orqali dinning siyosatga ta'siri o'z-o'zidan mavjud, ammo diniy e'tiqoddan bevosita siyosiy quroq sifatida foydalanishga urinish bugungi kunda nihoyatda xavfli siyosiy avanturizm bo'lib, mohiyatan ma'naviyat sohasiga aloqador bo'lgan imon-e'tiqod masalasiga mutlaqo aloqasi yo'qdir.
- 182. Ilm-fan** — shaklan madaniyat sohasining tarkibiy qismi, naqliy va aqliy bilimlar majmuyi, mazmunan turli iqtidor egalari ma'naviyatining samarasi sifatida tashkil topgan bo'lib, aniq va tabiiy fanlar, iqtisod fanlari, ijtimoiy-siyosiy fanlar, texnika fanlari, ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar kabi turli yo'nalishlar va tizimlardan iborat.
- 183. Aniq va tabiiy fanlar** — insonning moddiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar majmuyi, ularni aniq bilish mumkin va kerak, taxminiylilik bu yerda taxmin (gipoteza) darajasida qoladi. Ammo bu bilimlar doimo xususiy hodisalarga oid bo'lib, ular yordamida Borliq haqiqatini yaxlit anglab yetishga urinish befoyda, ularga tayanib moddiy voqelikdan tashqari chiqmoqchi bo'linsa, tajovuz bo'ladi, adashuvga olib keladi, g'ayri ilmga aylanadi
- 184. Ijtimoiy-siyosiy bilimlar** — insonlararo munosabatlarga oid bilimlar. Bu sohada qoniqarli xulosalarga erishish uchun ham ilohiy, ham irfoniy, ham aqliy, ham naqliy bilimlarga tayanib ish yuritish kerak bo'ladi. Birortasi hisobga olinmasa, xatoga yo'l qo'yish ehtimoli ko'payadi. Chunki aslida bu •■sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab yetish uchun mintaqqa va millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o'rganish zarur.
- 185. San'at** - Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo'li, taxayyul o'yinlari vositasida Borliq haqiqatini model-lashtirishga urinish. San'at ma'lum ma'noda insoniyatning bolalik odatidan rivojlanib chiqqan. Bola o'ynaydi, o'yin orqali hayotiy ko'nikmalar hosil qilib boradi. San'at turlari ham o'ynab turib o'rgatadi, uning timsollari hayot ibratlaridir. Bolaning o'yini — beg'araz. Kattalarning o'yiniga esa doimo g'araz xavf solib turadi. Ammo haqiqiy san'atkori o'z ishiga beg'araz yondoshsagina, u hayot haqiqatini uyg'un aks ettira oladi.

- 186. Taxayyul** — (qadim Yunon terminologiyasida "imaginatsiya", ruscha "всебиражение"), Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishda asotir tafakkur, falsafiy va badiiy tafakkurning assosiy vositasi bo'lib, ijodkor shaxsning Borliq haqidagi o'z tasavvurlarini xayoliy timsollarda modellashtirishini bildiradi. Uning mohiyati taniqli rus olimi Y. Golosovkerning "Jiofigika mifa" kitobida bat afsil izohlab berilgan.
- 187. O'yin** — jonli mavjudotlar, (inson va hayvonlar) tabiatiga xos ixtiyoriy harakat tizimi bo'lib, faol dam olish va hayotiy ehtiyojlarga moslashish usuli. Bola o'ynaydi, o'yin orqali bola hayotni o'rganadi. Sport, adabiyot va san'atning barcha turlariga ham ma'lum darajada ana shu tamoyil xos bo'lib, inson zoti ular orqali "o'ynab turib" jismoniy va ma'naviy kamol topib boradi
- 188. San'atshunoslik** - san'atning turli yo'naliшlarini o'rganuvchi fan bo'lib, bugungi kunda musiqashunoslik, teatrshunoslik, kinoshunoslik, kabi turli yo'naliшlarga tarmoqlanib ketgan. Borliq haqiqatini turli badiiy tasvir vositalari asosida modellashtirishning o'ziga xos yo'llarini o'rganishi jihatidan ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan hisoblanadi.
- 189. Badiiy adabiyot** — san'atning bir turi, inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga intiluvchi assosiy vositalardan bo'lib, milliy ma'naviyatimiz an'analarida ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot o'z mohiyatiga ko'ra Borliq haqiqatining botiniy sirlarini zohiriyl timsollar vositasida majoziy ifodalash qudratiga ega.
- 190. Adabiyotshunoslik** — ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, badiiy adabiyotni Borliq haqiqatini badiiy timsollar asosida modellashtiruvchi so'z san'ati sifatida o'rganadi. Jahon va milliy adabiyotlar tarixi, adabiy tanqid va adabiyotning nazariy masalalari bu fanning assosiy mavzulari (predmeti)ni tashkil etadi.
- 191. Jamiyatshunoslik (Sotsiologiya)** - insonlar jamiyatini sinxronik kesimda o'rganadi. Turli ijtimoiy toifalar va tuzilmalar holatidagi o'zgarishlar va ularning sabab-oqibatlarini xolis tahlil qilish bu fanning assosiy mavzusi (predmeti) bo'lib, ma'lum darajada ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub deyish mumkin
- 192. Tarix(shunoslik)** — Insonlar jamiyatini diaxronik kesimda o'rganadi. Jahon va turli o'lkalar tarixi, umumbashariy, turli mintaqalar va elatlarga xos siyosiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot qonuniyatları bu fanning assosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi. Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi
- 193. Sinxroniya** — muayyan bir zamonga xos masalalarni yaxlit tizimda olib qarash.
- 194. Diaxroniya** — muayyan bir masalalar tizimini tarixiy izchillikda olib qarash.
- 195. Xalq ijodi** — Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo'li bo'lib, ikki yo'naliшda namoyon bo'ladi: 1) xalq badiiy ijodi mumtoz san'at

namunalaridan muayyan jihatlariga ko'ra farq qiladi, masalan, xalq ijodi namunalarida an'anaviylik, ijod va ijob yaxlitligi, so'z, harakat va musiqa uyg'unligi yorqin namoyon boladi, bir asar ustozdan shogirdga o'tgan sari sayqal topib boradi, ya'ni ijodiy jarayon davomiylik kasb etib, mualliflik yakka bir shaxs doirasidan tashqari chiqadi; 2) xalq amaliy san'ati, xalq ijodining bu turida yaratilgan ashyolar bir paytning o'zida ikki yo'nalishda — ham amaliy (utilitar), ham estetik vazifa bajarishi bilan san'at asarlaridan farqlanadi.

- 196. Marosimlar** — Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo'li, ular ikki turli bo'ladi: 1)asotir marosimlar (mifologik rituallar), ular insoniyatning ibridoiy tafakkuriga xos bo'lib, muayyan narsa-hodisalar va xatti-harakatlarning inson va tabiat hayotiga sirli ta'siri bor, degan aqidaga tayanadi; 2) an'anaviy urf-odatlar, el orasida joriy bo'lgan rasm-rusumlar, ularning aksariyati muayyan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, shu jihatdan bolalar o'yini va xalq ijodi namunalariga yondosh turadi.
- 197. Elshunoslik (Etnografiya)** — ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, turli xalqlarning urf-odatlari va marosimlari xalq ongidagi asotir tafakkur unsurlari, an'anaviylik va etiket, xalq ijodi turlari va shakllari, urf-odatlar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati kabi masalalar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) hisoblanadi.

Ilovalar

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY G'OYA VA HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha
prorektor _____ PhD D.Xolmatov

«___» _____ 2021 yil

**MA'NAVIYATSHUNOSLIK
FAN DASTURI**

*2021/2022 o'quv yili kunduzgi ta'lim shakli,
barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari uchun*

NAMANGAN – 2021

